



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN


1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 9-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

SEN – QUDRAT MANBAI, SAODAT MASKANI, JONAJON O'ZBEKISTONIM!



Ushbu sonda



Adabiy taqvim

Baxtiyor Nazarov –
adabiyotshunos olim va
munaqqid

4
bet



Dars – muqaddas

Besh tashabbus – besh
imkon

9
bet



Tadqiqotlar

Lisoniy stereotiplar
xususida

34
bet



Лучший учитель-
филолог – 2020

Редукция как
инструмент
практической фонетики

49
bet

FANIMIZ FIDOYILARI



Mahliyo JAKBAROVA,

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi 17-sonli ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2019" ko'rik-tanlovi g'olibi.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 9-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.28.10. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Times» garniturasida. 10, 11 kegl. «NAKIMA NASHR GROUP» MHN bosmaxonasida etildi chop.

Manzil: Buxoro sh., Mustaqillik ko'chasi. Buyurtma raqam 06 Adadi 3230 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН


Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

XALQARO ILMIY KONFERENSIYA	
Olimjon JUMABOYEV. Tanqidiy tafakkur timsoli.....	3
ADABIY TAQVIM	
Qurdoq QAHRAMONOV. Baxtiyor Nazarov – adabiyotshunos olim va munaqqid	4
DARS – MUQADDAS	
Shoira SODIQOVA. Nutq tovushlari va harf	6
Adiba BEKCHANOVA. Besh tashabbus – besh imkon	9
Maxfurat OTAYEVA. Tafakkurdan tomgan tomchilar	12
METODIK TAVSIYA	
Elmurod NASRULLAYEV, Abdumutalib HAZRATQULOV. Insho – o'quvchi shaxsini shakllantirishning muhim vositasi	15
Nodira HOTAMOVA. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini she'riy talqinda o'qitish	17
Shaxnoza XUDANOVA. Nemis tilini o'qitishda kreativ yondashuv: kommunikativ til ko'nikmalarini shakllantirish dars maqsadi sifatida	18
Musallam XASANOVA. Xorijiy til o'rgatishda partikulativ yondashuvlar: nomutaxassis yo'nalislar misolida	20
Surayyo MUQIMOVA. Ona tili, adabiyot va boshqa fanlar integratsiyalashganda	22
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Dilnora TOLIBOVA. Ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion interfaol metodlari	23
TAHLIL	
Nilufar NAMOZOVA. "Behbudiy afandil Yig'lamang..."	26
Sarvara AKOBIROVA. G'afur G'ulom ijodining amerikada o'rganilishi	28
Khamidilla UMAROV. The problem of "fathers" and "children" in the works by I.S. Turgenyev and William Thackeray	29
TILSHUNOSLIK	
Nilufar ACHILOVA. Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar va ulardan foydalanish muammolari	32
Jasur ESHKUVATOV. O'zbek nasri animalistik semantikasi masalasiga doir ayrim mulohazalar	33
TADQIQOTLAR	
Feruz MAMATOVA. Lisoniy stereotiplar xususida	34
Gulbahor TOJIYEVA. Atov birliklarining xoslangan ma'nolari	35
Ziyoda KASIMOVA. Dunyo tilshunosligida realiyalar tasnifi	38
Islom MINNIQULOV. Shart gaplar pragmatik aspektining nutq akti nazariyasi asosida yoritilish masalalari	39
Xolida DAVUROVA. O'ykonimlarning grammatik tuzilishi	41
Dilrabo QUVVATOVA, Ixtiyor KAMOLOV. Pirmiqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani jahon adabiyoti kontekstida	44
KICHIK TADQIQOT	
Zebo YAXSHIYEVA. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyaasida tarixiy haqiqatga asoslangan badiiy to'qimalar	47
ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020	
Екатерина АМИНОВА. Редукция как инструмент практической фонетики	49
МЕТОДИКА. ОПЫТ	
Гульшод ХАМРАЕВА. Библиографическое описание литературных источников, изучение литературы и отбор фактического материала	51
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Раъно ТУРДИЕВА, Феруза ЗОИРОВА. Работа над компонентами интонации при обучении выразительному чтению	53
Лариса ФЕДОРОВА. Общепринятые сокращения в русском языке и практические рекомендации по «сжатю» слов	55
Любовь РАДЖАБОВА. Применение активизирующих методов на занятиях по русскому языку в совершенствовании речевых компетенций у студентов	57
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Светлана ЯРЦЕВА. Особенности фонетической интерференции на примере «Спанглиша»	60
Замира НУРЖАНОВА. О термине «заимствование»	62
СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Венера ЖАМЕДИНОВА. Зоонимы и орнитонимы в паремиях о труде	63
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Рахима УСМАНОВА. Поэтика узбекского романтического эпоса	65
Олеся ВЕЧ. Эмоциональная модель мира в поэзии Сергея Есенина	66
Умида АННАКУЛОВА. О малой прозе В.М.Шукшина	68
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	
Нояба ЮЛДАШЕВА. Электронные технологии в системе обучения литературе	71
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Ирина ПАНФЕРОВА. Методологические подходы к освоению грамматики иностранного языка	73
ПОЛЕМИКА	
Дилфуза АБДУЛЛАЕВА. Важность родного языка в образовании	76
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Ксения НОВИК. Овладение иностранным языком – оптимальный путь к глобальному образованию	77
ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ	
Нагима ЮСПОВА. Моя лира жива	79



Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zladi. Bu BMTda O'zbekiston tarixida ilk bora davlat tilida yangragan ma'ruza edi.

Adiblar xiyobonida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti bilan hamkorlikda "Muqimiy – mangu yashar dillarimizda" deb nomlangan madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'liy o'quv yurtlari kutubxonalari uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etilgan 76 nomdagi 30 mingdan ortiq kitob sovg'a qilindi.



Adiblar xiyobonida O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 113 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan adabiy tadbir adib hayoti va ijodiga yana bir bor nazar tashlandi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida "Pandemiya va axborot-kutubxona sohasi faoliyati" mavzusida onlayn anjuman tashkil etildi.




Samarqand viloyat musiqali drama teatrida ma'rifatparvar jadid Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati, ijodi va sahnalashtirgan asarlari tarixi aks etgan muzey tashkil etildi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida fors tili va madaniyati markazi tashkil etiladi.

Milliy gvardiya Harbiy-texnika institutida O'zbekiston Milliy gvardiyasi qo'mondonining "Zahiriddin Muhammad Bobur" nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishoni joriy etilishi to'g'risidagi buyrug'i imzolandi.

M. Do'stmuhamedova tayyorladi.



Adiblar xiyobonida "Xalq yuragi" nomli hujjatli film namoyishi bo'lib o'tdi. "O'zbekkino" milliy agentligi tomonidan "Cinema Days – 2020" kino kunlari doirasida namoyish etilgan mazkur film xiyobon va unda haykallari o'rnatilgan yozuvchi-shoirlarning ijod yo'llari haqida hikoya qiladi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchi va xodimlar "El-yurt umidi" jamg'armasi yordamida xorijda malka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olimjon JUMABOYEV,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti


TANQIDIY TAFAKKUR TIMSOLI

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekiston fan arbobi Baxtiyor Nazarov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, akademik B.G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti va Qo'qon davlat pedagogika instituti hamkorligida "Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy onlayn-konferensiya tashkil etildi. Dunyoning taniqli olim va adabiyotshunoslari, mamlakatimizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar qatnashgan anjumanda akademik Baxtiyor Nazarovning serqirra ilmiy va pedagogik faoliyati, adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z bordi. Shuningdek, bugungi kunda yurtimizda o'zbek tili va adabiyoti, yozuvchi-shoirilar ijodi, ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratilayotgan e'tibor, mumtoz adabiyot, adabiyotshunoslik, lingvistik, folklorshunoslik oldida turgan dolzarb masalalarga mutaxassislar tomonidan to'xtalib o'tildi.

– Ustozning ilmiy izlanishlari, adabiy jarayon haqidagi teran fikrlari, yangi-yangi talqinlari, mushohadalari adabiyotshunosligimiz, fanimiz ravnaqiga ulush bo'lib qo'shilmogda, – deydi filologiya fanlari nomzodi Gulnoz Sattarova. – O'zbek adabiyotshunosligida adabiy-tanqidiy tafakkur tarixi rivojida Baxtiyor Nazarovning alohida o'rni bor. Domlaning ilmiy-ijodiy faoliyati, avvalo, rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor haqidagi o'nlab tadqiqotlari, o'zbek va G'arb adabiyotini qiyosiy-tipologik o'rganish borasidagi maqolalari, badiiy asarda g'oyaviylik va badiiylik bilan bog'liq muammolarga doir tadqiqotlari bugungi yosh izlanuvchilar uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Adabiy-tanqidiy tafakkur haqida so'z borsa, beixtiyor ko'z o'ngimizda domlaning timsoli gavdalanadi.

Darhaqiqat, akademik Baxtiyor Nazarov nafaqat mamlakatimiz ilm-fani, adabiyoti va madaniy hayotida, balki jahon xalqlari adabiyotida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, xalqaro ilmiy anjuman doirasida ham bu fikr yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

– Domla Baxtiyor Nazarov "Rauf Parfi portretiga chizgilar" nomli tadqiqotida ijodkorning o'ziga xos xususiyatlarini, falsafiy-estetik qarashlarini ochiq bayon etadi: "Shoirming asarlari, asosan, uch tuyg'u tegrasida ko'rinadi – Vatan, Ozodlik, Muhabbat". Albatta, bu tuyg'ular har bir millat shoiriga xos tuyg'ulardir, – deydi Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining "Ozarbayjon-Turkmaniston – O'zbekiston adabiy aloqalari" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Almaz Ulvi Binnatova. – Albatta, adabiy aloqalar rivojida Nizomiy Ganjaviy, Maqsud Shayxzoda, Sayid Rizo Alizoda sing-



ari daholar asarlarining tadqiq etilishi muhimdir. Bunda ham o'zbek adabiyotining ulug' nazariyotchisi Baxtiyor Nazarovning xizmati katta.

Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov singari adabiyot darg'alari ma'lum ma'noda oldi-qochdi, jo'n asarlar yaratilishiga qarshi kurashgan. Ammo bugun adabiy tanqidchilik, talqin, tarjima-shunoslik borasidagi ilmiy izlanishlar sustlashgandek. Ayniqsa, davlatimiz tomonidan o'zbek tiliga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda ko'cha-ko'yda, ijtimoiy tarmoqlar, reklama va bannerlardagi yozuvlarda noqisliklar kuzatilmogda. Bu esa ziyolilar, adabiyotshunos va tilshunoslardan til targ'ibotiga jiddiy e'tibor berishni taqozo etmoqda. Bu jihatlarga ilmiy anjuman chog'ida ko'p bora to'xtalib o'tildi.

Xalqaro ilmiy onlayn-konferensiya guruhlariga ajratilgan holda "Alisher Navoiy sho'basi", "Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek sho'basi", "Abdulla Oripov sho'basi" va "Ozod Sharafiddinov sho'basi"da davom ettirildi.

Sho'balarda mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlar, bugungi nasrimizdagi yangilanishlar, dramaturgiyaga oid izlanishlar, ta'lim, tarjima-shunoslik va folklorshunoslikka doir tanqidiy-tahliliy fikrlar, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va folklorshunoslik oldida turgan muammolarga yechim izlandi. Ayniqsa, tadqiqotlarda adabiy tanqidchilikka alohida e'tibor qaratilgani adabiyotga dadil kirib kelayotgan ijodkorlarni bir qadar sergak torttirishi, shubhasiz. Eroning Tarbiyati mudarris universiteti professori Ibrohim Xudoyor, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Birinchi vitse-prezidenti, akademik Isa Habibeyli, Akademik B.G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Mavlonberdi Suyunov adabiy-madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarni ko'proq tashkil etish zarurligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Anjumanga hamohang tarzda "Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" xalqaro ilmiy onlayn-konferensiya materiallari to'plami taqdimoti bo'lib o'tdi.

Albatta, bu kabi anjumanlar nafaqat adabiyotimiz rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning barobarida boshqa xalqlar bilan adabiy va madaniy aloqalar taraqqiyotiga hissa qo'shadi.



BAXTIYOR NAZAROV – ADABIYOTSHUNOS OLIM VA MUNAQQID

Joriy yilning 16–19-sentabr kunlari akademik Baxtiyor Nazarov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan "Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tashabbusi bilan Yozuvchilar uyushmasi va respublikamizdagi bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda Eron, Ozarbayjon, Tojikiston kabi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etildi. To'rt kun davom etgan ushbu anjumanda respublikamizning 150 dan ortiq taniqli filolog olimlari, professor-o'qituvchilari hamda xorijlik olimlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Anjumanni O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, professor Nizomiddin Mahmudov boshqarib bordi. U o'zining kirish so'zida akademik B.Nazarovning yarim asrlik ilmiy-ijtimoiy faoliyati haqida fikr yuritib, olimning nafaqat O'zbekistonda, balki Amerika, Rossiya va Yevropa mamlakatlarida ham e'tirof etilishi, o'zining ilmiy-amaliy faoliyati, ma'ruzalari bilan o'zbek adabiyotini xorijda ham tanitishga katta hissa qo'shganini ta'kidladi.

Anjumanning yalpi majlisida so'zga chiqqan akademik T.Mirzayev, A.Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, professor Sh.Sirojiddinov, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Birinchi vitse-prezidenti, akademik Isa Habibbeyli, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston adabiy aloqalari bo'limi mudiri Almaz Ulviy Binnatova, Ibrohim Xudoyor, Tarbiyati mudarris universiteti professori Ibrohim Xudoyor (Eron), Akademik B.G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti professori A.Abduqodirov (Tojikiston), O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim mudiri I.Haqqulov va boshqalar akademik Baxtiyor Nazarovning ilmiy faoliyati va adabiy aloqalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari haqida qimmatli takliflarni bayon etishdi.

Anjumanning bunday xalqaro miqyosda adabiyotshunoslikning turli yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilishi bejiz emas, albatta. Zero, akademik B.Nazarov yirik nazariyotchi olim sifatida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning muhim metodologik masalalari haqida birinchilardan bo'lib tadqiqotlar olib borgan, sho'ro davridayoq asosiy prinsiplarini ilmiy-nazariy aspektida belgilashga harakat qilgan olimlardan biridir. Olimning 1979-yilda chop etilgan "O'zbek adabiy tanqidchiligi. G'oyaviylik, metod, qahramon" nomli monografiyasi hamda qator maqolalarida o'zbek tanqidchiligining metodologik asoslarini belgilash, "xalq dushmani" sifatida nomlari faqat qoralov bilan tilga olinib kelayotgan Cho'lpon va Fitratning ilmiy-adabiy qarashlarini tahlilga tortib, ancha demokratik yondasha olish, o'tgan asrning 20–30-yillari tanqidchiligiga xos ziddiyatli jarayonlarning xolis ilmiy bahosini berishdek harakatlarni kuzatamiz.

B.Nazarovning ilmiy-tashkilotchilik faoliyati, ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda u faol tashkilotchi rahbar sifatida Til va adabiyot institutida olib borilayotgan ko'plab yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning yuzaga chiqishi va nashr etilishida muhim ishlarni amalga oshirdi. Bunga misol qilib o'sha davrdagi ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib chop etilgan ikki tomlik "Adabiyot nazariyasi", ikki tomlik tanqid tarixi, "O'zbek tilining izohli lug'ati" va boshqa ko'plab nashrlarni keltirish mumkin.

B.Nazarovning 1980–1990-yillardagi ilmiy-ijtimoiy faoliyatiga nazar tashlasak, olim tomonidan ulkan hajmli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz. 1984-yilda "O'zbek adabiy tanqidchiligi metodologik prinsiplarining shakllanishi va qaror topishi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan olim 1986–1990-yillarda Til va adabiyot instituti direktori, ayni shu davrda institut qoshidagi doktorlik ilmiy darajasini beruvchi Ixtisoslashgan kengash raisi, 1990–1992-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi, 1992–1994-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. Ayni 1980-yillar oxiri va 1990-yillarning boshida Amerika, Fransiya, Rossiya kabi qator davlatlarda bo'lib o'tgan ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashgan. 1990-yil fevral–may oylarida AQSHning Indiana shtatidagi Indiana universiteti talabalariga o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars bergan.

Bulardan tashqari "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali Bosh muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi tanqidchilik va adabiyotshunoslik kengashi raisi o'rinbosari, Fitrat va Cho'lpon ijodiy merosini o'rganuvchi Respublika komissiyasi a'zosi, Sovet turkologlari komiteti raisining o'rinbosari, Toshkent viloyati "Bilim" jamiyati boshqaruvi qoshidagi san'at va adabiyotni targ'ib etish bo'yicha ilmiy-metodik kengash raisi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Ayni paytda o'rta maktablar va oliy o'quv yurtlari uchun adabiyot fani bo'yicha yaratilgan qator dastur va darsliklarning mualliflaridan biri ekanini yodga oladigan bo'lsak, olimning ilmiy-pedagogik faoliyati ko'lami haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi. Bular olim faoliyatining ma'lum bir qismi, xolos.

Shu jihatdan respublikamizning taniqli olimlari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari uchun o'zbek adabiyoti tarixidan, oliy o'quv yurti filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan XX asr o'zbek adabiyoti yuzasidan yaratgan darslik va qo'llanmalari xarakterlidir. Ushbu darslik va qo'llanmalar o'n-o'n besh yildan beri oliy o'quv yurti talabalariga uchun asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, olimning A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedova bilan hammualliflikda yaratgan "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –

Toshkent: Cho'lpon, 2012) darsligi bugungi kunda ham amaliyotda bo'lib turgan qo'llanmalardan biridir.

Ma'lumki, mustaqillik arafasi va istiqlolning dastlabki yillarida o'zbek adabiyotshunosligida sho'ro davri adabiyoti namoyandalari ijodini qayta baholash bir tamoyil sifatida bo'y ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, sho'ro davrida yashab ijod qilgan G'afur G'ulom va uning salaf-lari ijodini baholashda turli xil murakkabliklarni vujudga keltira boshlagan, bahs-munozaralarga asos yaratga boshlagan edi.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslikning ilg'or namoyandlari bu masalaga o'zbekona bag'rikenglik va nekinlik bilan yondashdi, qayta baholashda tarixiylik va ilmiylikni uyg'un tarzda birlashtirib, to'g'ri metodologik yondashuvni amalga oshirdi. Natijada qisqa vaqt ichida XX asr o'zbek adabiyotining eng bahsli va murakkab davrida ijod qilgan G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Olimjon va unga zamondosh bo'lgan ijodkorlar ijodi o'zining haqqoniy bahosini oldi. Bu ijodkorlar ijodini baholashda to'g'ri metodologik yondashuvni shakllantirishda akademik Baxtiyor Nazarovning ham munosib hissasi bor. Buni olimning "G'afur G'ulom olami" nomli kitobi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, G'afur G'ulom o'z zamondoshlari qatori sho'ro davrining g'oyaviy-mafkuraviy hukmronligi avj olgan bir davrda yashab ijod qilgan adiblardan biri bo'lgan. Binobarin, shoir ijodida davr g'oyalari ham aks etishi tabiiy hol. B.Nazarov o'z kuzatishlarida shoir ijodiga, xususan, uning she'riyatiga xos bo'lgan va zamonasozlik motivlari bilan bog'langan yo'nalishni inkor qilmagan holda buning asosiy sababi shoir shaxsiyati emas, balki sho'ro siyosatining badiiy ijod sohasida olib borgan siyosati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shoir she'riyatidagi umumjahoniy motivlar – tinchlik, xalqlar do'stligi, xalqaro imperializmga qarshi kurash motivlari bitilgan she'rlar shular jumlasidan ekanligini tahlillar bilan asoslaydi. Shu bois shoir she'rlarida siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy motivlar yetakchilik qilishi ta'kidlanadi.

Biroq olimning mahorati shundaki, u shoir ijodi faqat ijtimoiy-siyosiy mavzulardan iborat emasligini, chinakam she'riyatga xos inja tuyg'ular, milliy, g'oyat o'zbekona ruhiyatni aks ettiruvchi she'rlar ham shoir ijodini bezab turganligini tahlillar bilan asoslab beradi. Olim fikriga ko'ra shoir she'rlarini nurlantirib turgan ohang milliy jozibadadir. "Umuman, milliy joziba G'.G'ulom nasrini ham, nazmini ham bezab turuvchi eng go'zal xususiyatlardan biridir", – deb yozadi u bu haqida.

Munaqqid shoir she'rlarida bo'y ko'rsatayotgan milliylikni "... qahramon xarakterining tabiatida, fikrlash yo'sinida, his-hayajonlarning namoyon bo'lish tarzida, xalq obrazida, urf-odatning o'ziga xosligida, an'analarda, tarixiylikda, tabiat va qahramon harakat qiluvchi shart-sharoitlarda, hatto kiyim-kechak va portret kabi unsurlarda namoyon bo'ladi",¹ – deb belgilaydi.

Kitobda shoirning "Sog'inish" she'ri alohida tahlilga tortilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur she'r shoir ijodini o'rganuvchi ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan badiiy yuksak she'rlardan biri sifatida e'tirof etilgan. She'rdagi milliy kolorit ham, ota obrazi, uning ruhiy kechinma-

lari ham tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan. B.Nazarov mazkur she'rni tahlil qilar ekan, albatta, boshqa adabiyotshunoslarning ham qarashlarini nazarda tutgan holda, original yondashuvga harakat qiladi. She'rning asosiy mazmunida umuminsoniy g'oya – insonparvarlik motivi yetakchilik qilishini qayd etadi. Mana shu motiv G'afur G'ulom qalamida g'oyat o'zbekona, g'oyat milliy ruhda, hayotiy kechinmalar fonida tasvirlanganligini chiroyli tahlillar bilan asoslab beradi. Sog'inch tuyg'usi, otaning farzand qismatidan xavotirlanish hissi barchaga xos bo'lgan ruhiy holat bo'lgani uchun she'rda ayrim avtobiografik o'rinlar bo'lsa-da, uni faqat G'afur G'ulom shaxsiyatigagina tegishli, deb baholab bo'lmaydi. Munaqqid fikricha, she'rda ushbu sog'inch tuyg'usi umumlashma mohiyat kasb etib, barcha otalarga xos umuminsoniy kechinmaga aylangan. She'rdagi ota obrazi va uning bedor tuyg'ulari, Bedilxonlik qilishi, saharlab o'g'il ekib ketgan bog'ni kezishi – bular barchasi g'oyat milliy, g'oyat o'zbekonadir, degan qarash tahlilning asosini tashkil etadi. Garchi otalarning sog'inch tuyg'usi millat tanlamasa ham, she'rda tasvirlangan ota holati va uning xatti-harakatlari milliy kolorit bilan sug'orilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. "Asardagi bosh lirik qahramon – Ota shu qadar mehriparvar va milliy tabiatli, shu qadar nuroniy va bolajonki, she'r o'qilishi davomida u ko'z o'ngimizda shundoqqina tirik insondek gavdalanadi. U o'g'lining omon kelishiga, shunchaki omon emas, g'olib va muzaffar kelishiga, faqat g'olib va muzaffargina emas, qora qoshiga gard ham qo'ndirmasdan kelishiga astoydil ishonadi. Qarang, qanchalik mehr, milliy tuyg'ulariga yo'g'rilgan sog'inch va ishonch balqib turibdi qahramon tabiatida", – deb yozadi olim bu haqida (23-bet).

Ayni paytda munaqqid she'rda aks etgan va ota xavotiriga asos bo'layotgan urush fojialari, uning oqibat-lari tasviriga ham to'xtalar ekan, agar qahramon ruhiyatida shunday hadikli holatlar tasvirlanmaganda, she'rning hayotiyligi va badiiyiligiga putur yetgan bo'lar edi, deb baholaydi.

Munaqqid she'rni tahlil qilar ekan, shoir mahoratini unda faqat ota sog'inchi va xavotirigina aks etishida emas, balki she'rda katta hayotiy va falsafiy umumlashmalar chiqara olganligida ham, deb hisoblaydi. "G'afur G'ulom mahorati asar so'ngida lirik qahramoni tabiati va falsafasidagi hayot abadiyiligiga, xalq va millat davomiyiligiga, avlodlarning vorisligiga ishora qiladi. Ota xayolan urushdan g'olib qaytgan farzandini hayot danagini avaylab saqlashga, mevalar yaratishga undaydi", – (25-bet) deb yozadi bu haqida. Aytish mumkinki, Baxtiyor Nazarov G'afur G'ulom nafosati olamini g'oyat noziklik bilan ilg'ay olgan va hassos munaqqid sifatida talqin etgan.

Binobarin, Baxtiyor Nazarov tavallud ayyomi baho-na to'rtta sho'bada O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universitetida to'rt kun davom etgan ushbu anjumanda ishtirok etgan respublikamizning taniqli filolog olimlari, professor-o'qituvchilari hamda xorijlik olimlarning ma'ruzalari adabiyot ilmi rivojiga o'ziga xos hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

¹B.Nazarov. G'afur G'ulom olami. – Toshkent, 2004. 21-bet. (Ushbu manbadan olingan keyingi iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.)

Shoira SODIQOVA,
 Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi
 202-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

NUTQ TOVUSHLARI VA HARF

(5-sinf, I chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish; so'z ma'nosidagi farqqa e'tibor qaratishni o'rgatish; nutq tovushlarining vazifasi haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan muhabbatni orttirish; ularda tabiat hodisalaridan zavqlanish hissini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda nutqiy kompetensiya elementlari – o'qish, tinglash, gapirish va yozish malakalarini rivojlantirish; talaffuz va imloda tovush o'zgarishi hodisalaridan o'rinli foydalana olish, matndagi ma'lumotlardan kerakli bo'lgan detal, fikrni ajratish, fikrni umumlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Moslashtirish mashqi", "Sirlil tovushlar", "Nodir tashbeh", "Topgan topag'on", "Tovushlar jilosi".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: AKT vositalari, A3 formatli qog'ozlar, markerlar, audiokalonka, ekran, proyektor, karton qog'ozdan yasalgan yoproqlar va kuz

faslining ramziy toji (rag'bat kartochkalari o'rniida ishlatiladi).

Darsning borishi:


I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi. Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi. Navbatchi o'quvchining axboroti tinglanadi.

O'quvchilardan darsda faol qatnashib, oltin yoproqlar to'plashi kerakligi va eng ko'p "oltin yoproq"larni to'plagan o'quvchi bugungi darsning shahzoda yoki malikasi sifatida kuz faslining ramziy tojiga ega bo'lishi aytib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Darsning ushbu bosqichida "Moslashtirish mashqi" usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun sinf taxtasiga jadval ilinadi. O'quvchilar navbat bilan jadvalda berilgan qoidalar tilshunoslikning qaysi bo'limiga mos kelsa, shu bo'lim va qoidani marker bilan ko'rsatkich belgisini chizib bog'lab qo'yadi. Bu usul orqali o'quvchilar egallagan tilshunoslik bo'limlarini farqlash – lingvistik kompetensiyasi va axborotlar bilan ishlash tayanch kompetensiyasi rivojlantiriladi.



yoziilmaydi; fasl – talaffuzda **s** va **l** undoshlari orasida **i** unlisi eshitiladi, ammo yozuvda yoziilmaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'rganilgan yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida darslikda berilgan mashqlardan foydalaniladi.

36-mashq. "Nodir tashbeh" grammatik o'yin orqali bajariladi. Mashqda berilgan gaplar o'qiladi va o'quvchilardan ham shunday o'xshatishlarni topish va dafarga yozish so'raladi. Eng chiroyli o'xshatish topganlar oltin yaproqlar bilan rag'batlantiriladi.



1. Kuzda ona zaminimiz tilla rangli to'n kiyib oladi.

2. Kuz noz-ne'matlarga boy fasl.

3. ...

37-mashq asosida **"Topgan topag'on"** grammatik o'yini tashkil etiladi. Berilgan topishmoqli matn o'qiladi. Keltirilgan ta'rif asosida katakchalar ichiga yashiringan kuz ne'mati nomi aniqlanadi. So'ngra kuzda pishib yetiladigan meva hamda sabzavotlar haqida topishmoqlar aytilish bellashuvi o'tkaziladi. Topag'on o'quvchilar rag'batlantiriladi.

38-mashqda nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib, matn ko'chiriladi va so'zlarning talaffuz hamda imlosidagi farq izohlanadi. O'quvchilarning javoblari kerakli o'rinlarda o'qituvchi tomonidan to'ldirib boriladi. Bu quyidagi jadval orqali izohlab tushuntiriladi.

So'zlar	Farqlar
To'kib	b – p
Sabzavot	a – o
Chalinmaydi	n – m
Yurtda	d – t

39-mashq. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qish mashqi o'tkaziladi. So'zlar o'qilib, ma'nosidagi farqqa diqqat qilinadi. Ushbu so'zlar yordamida gaplar tuziladi. Masalan: *Sayyora ovqat tayyorlash uchun kartoshka archa boshladi. Umida olmalarni tozalab artib, likopchaga soldi.*

So'ngra **"Tovushlar jilosi"** interfaol grammatik o'yini tashkil qilinadi. Bunda o'quvchilarga monitorda uchta harfdan iborat so'zlar ko'rsatiladi. O'quvchilardan shu so'zlardan bitta tovushni o'zgartirib yangi so'zlar hosil qilish so'raladi. Bu o'quvchilarning so'z boyligini o'rttirish va nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini anglatishga yordam beradi.

"Tovushlar jilosi"

Z...r	→	zar	zo'r	zor
q...l	→	qil	qol	qo'l
t...p	→	tep	top	to'p
b...l	→	bo'l	bol	bel

"Tovushlar jilosi"

Bor	→	tor	xor	zor
Til	→	qil	bil	fil
Tur	→	nur	yur	sur
Ko'r	→	zo'r	to'r	sho'r

V. Baholash va rag'batlantirish.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarga oltin yaproqlar rag'bat sifatida berib boriladi. Dars so'ngida oltin yaproqlar sanaladi, eng ko'p to'plagan o'quvchilarga kuz faslining ramziy toji kiydiriladi. Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

40-mashq. Saxiy kuz haqida 10 ta gapdan iborat er-tak to'qish. Iqtidorli o'quvchilarga "Saxiy kuz" mavzusi-da rasm chizib, gapirib berishga tayyorlanib kelish topshirig'i beriladi.



Adiba BEKCHANOVA,

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
41-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BESH TASHABBUS – BESH IMKON

Darsning mavzusi: Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi. (8-sinf, I chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning yozma savodxonligini o'stirish, fikrlash orqali nozik ma'nolarni anglatish, dunyoqarashini boyitish.

Darsning turi: yangi materiallarni o'rganuvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Qaysi guruh faol", "Ortiqchasini top", "Fikringni bayon et", "Zakovat", "To'g'ri va noto'g'ri", "YQXO'M".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, tarqatmalar, vatman qog'ozi, flomasterlar, slaydlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa usulida olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi: "**Sog'ligim – boyligim**", "**Kitobim – oftobim**", "**Odobim – oftobim**".

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilarning o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun "Qaysi guruh faol?" usulidan foydalanish mumkin. Ushbu usul yordamida o'quvchilarga erkin kasb tanlash, tanlagan kasbini sevish va kasb sirlarini chuqur egallash zarurligi uqtiriladi. Bunda "**Sog'ligim – boyligim**" guruhiga matndagi asosiy fikrni yozma bayon qilish; "**Kitobim – oftobim**" guruhiga matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlash; "**Odobim – oftobim**" guruhiga matn asosida tuzilgan savollarga javob berish topshirig'i beriladi. Bu usuldan foydalanilganda o'quvchilarda matematik va lingvistik kompetensiya elementlari shakllanadi.

Miqyosi nafs

Miqyosi nafs deb qiladigan amallarimizni, ishlari-mizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub, o'lmaydig'ini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur. Nafs o'lchovi haqiqiy bir o'lchovdirki, insonning o'z nafsiga loyiq ko'rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg'a qo'ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sa-

bab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ket-sa, bu qabohatini nafs o'lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikg'a sa'y va g'ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdur. Buyuk Iskandar: "Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo'qdur", – demish. Ibn Sino hakim "Insonning fazl-u kamoli o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur", – demish.

Dunyoda har narsaning maxsus o'lchovi bo'lar, Banda af'olini vijdoni ila tortib ko'rar.

Bir ishiga vaznda kelsa og'ir o'z nafsiga,

Ul ishing qandog' bo'laklarga ravo, loyiq ko'rar.

(A.Avloniy, "Turkiy Guliston yoxud axloq").

I. "Sog'ligim – boyligim" guruhi: Miqyosi nafs deb qiladigan ishlarimizning shar'iy, insoniy qonunlarga mosligiga aytiladi. Nafs o'lchovi haqiqiy o'lchovdirki, insof sohiblari bu o'lchovdan hech vaqt tashqarida harakat qilmas! Bir sabab ila shariat hukmidan chiqsa, bu qabohatini nafs o'lchovi bilan bilib, boshqa qaytar-maslikka qasd qiladi va shariat nizomidan chiqmaslikka harakat qiladi. Demak, nafs o'lchovi eng foydali, maqbul bir fazilatdir. Iskandar bu o'lchovda nuqson yo'q, desa, Ibn Sino fazl-u kamol shu o'lchov bilan o'lchanishini ta'kidlaydi.

II. "Kitobim – oftobim" guruhi:

1. Miqyosi nafs nima? (*Nafs chegarasi, me'yori*)

2. Qabohat nima? (*Me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik*)

3. Qasd nima? (*Ahd, kirishmoq*)

4. Sa'y nima? (*Astoydil urinish*)

5. Maqbul nima? (*Qabul qilingan, e'tirof etilgan*)

6. Nuqson nima? (*Me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik*)

7. Fazl-u kamol nima? (*Fazilatlar buyukligi*)

8. Af'ol nima? (*Fe'l-atvor, xarakter*)

III. "Odobim – oftobim" guruhi:

1. Miqyosi nafs nima?

Javob: Miqyosi nafs deb qiladigan amallarimiz, ishlarimizning shariat, insoniyat qonuniga muvofiq kelishi, har bir ishni vijdonimiz bilan o'lchab ko'rishimizga aytiladi.

2. Kimlar nafs o'Ichovidan tashqari harakat qil-maydi?**Javob:** Fikr egalari, insof sohiblari.**3. Buyuk Iskandar nafs o'Ichovini qanday ta'rif-lagan?****Javob:** Eng haqiqiy, to'g'ri, nuqsonsiz.**4. Ibn Sino inson fazl-u kamol o'Ichovi nima bi-lan o'Ichanadi deydi?****Javob:** Nafs o'Ichovi bilan.**5. Banda af'oli nima bilan o'Ichanadi?****Javob:** Vijdoni bilan.

Guruhlarning javoblari umumlashtirilib, o'qituvchi to-monidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Faol guruh rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

104-mashq. Gaplarning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.

T/r	Gaplar	Gapning kesimi	Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi
1	Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir. (V.Gyugo)	aks ettiradi, xatodir	Fe'l Sifat
2	Inson chehrasi uning tiliga nisbatan ko'p va qiziqroq narsalarni aytib berishi mumkin: til faqat inson fikrlarini bayon etsa, chehra fikr mohiyatini ko'rsatadi. (A.Shopengauer)	aytib berishi mumkin, bayon etsa, ko'rsatadi	Fe'ning harakat nomi shakli Fe'l Fe'l
3	Go'zallik – haqiqiy baxt-saodat va rostmana qahramonlik, u balandparvoz so'zlarga muhtoj emas. (V.Raabe)	qahramonlik, muhtoj emas	Ot Sifat
4	Go'zal chehra o'z nomi bilan go'zal. (F.Bekon)	go'zal	Sifat
5	Chehrasi ochiq kishining qalbi ham ochiq. (F.Shiller)	ochiq	Sifat

Bilib oling!

Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasida tire qo'yiladi:

I. Ot kesim kesimlik qo'shimchasisiz yoki bog'lamasiz qo'llanganda: Tinchlik – farovon hayot manbayi. Mening aytadigan gapim – shu. Uch karra uch – to'qqiz. Maqsadimiz – o'qish.

Eslatma. Ot kesim sifat, ravish va tartib son bilan ifodalanganda tire qo'llanmaydi:

1. Vatanimiz go'zal.
2. Ko'rmagan yerning chuquri ko'p.
3. Bizning sinfimiz sakkizinchi.

II. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: Bu – siz uchun katta sinov.

Eslatma. Agar ega bilan ot kesim orasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'llanmaydi:

1. Bular ham a'lochi.
2. Mening opam ham talaba.
3. Sharifa ham to'quvchi.

Bilib oling!

Ega ta'kidlab aytilsa, kesim tarkibida bog'lama bo'lsa ham tire qo'yiladi:

1. Sen – yetim emassan.
2. Biz – baxtlar vodiysining farzandlarimiz.
3. Men – mana shu minglarning biriman.

105-mashq “Ortiqchasini top” usuli yordamida bajariladi. Tushirib qoldirilgan tirelarni qo'ying. Tire qo'llanmaydigan qaysi gap “ortiqcha”?

I. 1. Kiyinishda oliftalikdan qochib, yoqimtoy bo'lish-ga harakat qiling: odob ko'rkamlik, isrofgarchilik esa oliftalik belgisi. (Suqrot) 2. Madaniyat bilan tashqi jilo – butunlay boshqa-boshqa narsa. (R.Emerson) 3. Saxovat – go'zallikdan ko'ra afzalroq. (G.Geyne) (Birinchi gapda tire qo'yilmaydi, chunki ega va kesim orasida esa so'zi bor.)

II. 1. Maftunkorlik – yashnab turgan go'zallik. (G.Lessing) 2. Go'zallik bu – erkin qalb va mustahkam


sog'liq samarasi. (L.Shefer) 3. Ma'no yo'q joyda go'zal-lik bo'lishi mumkin emas. (E.Bule) (Uchinchi gapda tire qo'yilmaydi, chunki emas so'zi bor.)

III. 1. Samimiylik ham xuddi husn va aql kabi ehson. (V.I.Kachalov) 2. Ko'p so'zlash – donolik belgisi emas. (“Qutadg'u bilig”dan) 3. G'o'zallik – butun olamni qal-bga olib kiradigan kuch va iste'dodga ega. (M.Servantes) (Birinchi gapda tire qo'yilmaydi, chunki ega va kesim orasida ham bog'lovchisi bor.)

Ushbu mashq ana shu tarzda o'quvchilar bilan bir-galikda doskaga yozib bajariladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida **“Zakovat”** musobaqasini o'tkazish mumkin. Berilgan she'rlarda ega va kesim orasiga tire to'g'ri qo'yilganmi?



So'ng **“To'g'ri va noto'g'ri”** usulidan foydalangan holda guruhlarga jadvallar tarqatiladi. Har bir guruh ajratilgan vaqt oralig'ida kerakli bandga “+” belgisini qo'yib, o'z javoblar varaqasini boshqa guruhlar bilan al-

mashadi va shu tariqa javoblar baholanadi. O'qituvchi guruhlarning javoblarini umumlashtiradi, yakuniy baholaydi. Bu orqali o'quvchilarda o'z-o'zini baholash kompetensiyasi shakllantiriladi.

T/r	Berilgan gaplarda tire to'g'ri qo'llanganmi?	To'g'ri	Noto'g'ri
1	Til – millatning bebaho mulkidir.	+	
2	Adabiyot – hayot darsligi.	+	
3	Sport sog'lik – garovi.		+
4	O'zbekistonning – poytaxti Toshkent.		+
5	Tamagirlik – kishining boshiga bitgan balo.	+	
6	O'qish – juda katta baxt.	+	
7	Ikki karra – ikki to'rt.		+

T/r	Savol	To'g'ri	Noto'g'ri	Misol
1	Ot kesim tarkibida bog'lama bo'lmasa tire qo'yiladi	+		Sog'ligim – boyligim.
2	Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, bog'lama bo'lmasa tire qo'yilmaydi		+	Maqsadim – ishlash.
3	Ega va kesim birikma bilan ifodalanib, bog'lama bo'lmasa tire qo'yilmaydi		+	Ona yerim – oltin tuprog'im.
4	Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa tire qo'yiladi	+		Bu – yangi qishloq rejasi.
5	Ega ta'kidlab aytilsa tire qo'yilmaydi		+	Biz – baxtli yoshlarmiz.
6	Ega va kesim orasida ham yuklamasi ishlatilsa, bog'lama bo'lmasa ham tire qo'yilmaydi	+		Sanobar ham o'quvchi.
7	Ega va kesim orasida undalma ishlatilsa tire qo'yiladi		+	Maqsadim, do'stim, shu.

“YQXO'M” usuli yordamida dars xulosalanadi.

O'qituvchi: Bugungi darsda nimalarni o'rgandingiz?

O'quvchilar:

Yaxshi: Hikoyani o'qib o'rganganimiz, mavzuga doir gaplarni turmush voqealari bilan bog'laganimiz.

Qiziq: Hikoyadagi ayrim so'zlar, jumlar, masalan, Iskandarning nafs o'lchovini ta'riflagani.

Xalaqit berdi: Vaqtning chegaralanganligi.

O'zim bilan olib ketaman: Ega va kesim orasida tirening ishlatilishi haqidagi bilimlarni, insofli bo'lish,

nafsga ruju qo'yimaslik to'g'risidagi pandlarni.

Mening kayfiyatim: A'lo!

V. Baholash va rag'batlantirish.

Guruhlarning to'plagan ballari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi. O'quvchilarning barchasi darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi. G'olib guruh a'zolari va faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyg'a vazifa.

106–107-mashqlarni berilgan shartlari asosida bajarish.



Maxfurat OTAYEVA,

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 17-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
"Shuhrat" medali sohibasi

TAFAKKURDAN TOMGAN TOMCHILAR

Darsning mavzusi: Qo'shma gaplar tasnifi. (9-sinf, I chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga qo'shma gaplar va ularning nutq jarayonida qo'llanishiga oid tushunchalar berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ona tiliga hurmat va ehtirom, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, insoniylik tushunchalarini shakllantirish, ularni o'zaro hurmat va hamkorlik qilish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning qo'shma gap to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarini o'stirish, undan nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira olish, fikrini bayon qilishda so'zlarni tanlash va ularni muayyan tartibda joylashtirish, to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish.

Darsda foydalanadigan usullar: "Aqliy hujum", "Ikki ko'z belbog'i", "To'liqsiz maktub", "Libos kiydir", "Fikrni davom ettir", savol-javob.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: kompyuter, monitor, yashil, sariq va qizil rangli kartochkalar, konvertlar, slaydlar, magnitofon, tarqatmalar, videolavhalar va audiomatnlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi va sinf xonasining tozaligi tekshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi.

Dars tarbiyaga chaqiruvchi daqiqa bilan boshlanadi. Unda o'quvchilar ta'lim-tarbiyaga oid maqollar, hikmatli so'zlar aytadilar. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini umumlashtirib, inson hamisha xalqning xizmatida bo'lishi lozimligi, shundagina u barchaga ibrat bo'la olishini uqtiradi.

Dars musobaqa usulida olib borilishi aytiladi va sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida har bir o'quvchi o'tilgan mavzu yuzasidan alohida ball yig'adi. Bunda o'quvchilar imkon qadar ko'proq savollarga javob beradilar. Fikr jamoaga tegishli ekanligini tan olish (hech kim uni o'ziniki qilib olishga haqqi yo'q), har bir ishtirokchi uni

boshqalarniki bilan qo'shib yuborish, o'zgartirish, yaxshilash va mukammallashtirish huquqiga ega. O'tilgan mavzu "Aqliy hujum" usulidan foydalanib mustahkamlanadi:

1. Qo'shma gap qismlari deganda nimani tushunasiz?

Javob: Qo'shma gapni tashkil qilgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari hisoblanadi.

Javob: Ikki va undan ortiq sodda gap qo'shma gap qismlari hisoblanadi.

Javob: Sodda gaplarning ortib borishi qo'shma gap qismlarini hosil qiladi.

2. Qo'shma gap qismlari qanday vositalar bilan bog'lanadi?

Javob: Bog'lovchilar, teng bog'lovchilar (*va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo...yo, dam...dam*) vositasida.

Javob: Ergashtiruvchi bog'lovchilar (*agarda, agar, basharti, garchi, ya'ni, chunki, negaki*) yordamida.

Javob: Bog'lovchi vazifasidagi vositalar bilan: *bo'lsa, esa, deb*.

Javob: *-u, -yu, -da, -ki* yuklamalari yordamida.

Javob: Nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilmalar (*shuning uchun, shu tufayli, shu sababli*) vositasida.

Javob: Shart mayli qo'shimchasi (*-sa*) bilan.

Javob: Ohang yordamida.

O'quvchilarning har bir javobi inobatga olinib, ball beriladi.

So'ng o'quvchilar "Ikki ko'z belbog'i" ta'limiy usulidan foydalanib, o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlashda davom etadilar. Buning uchun sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi. Guruhlarga 3 ta sandiqcha tanlash yo'li bilan beriladi. Ikkita ko'z bu – sodda gap + sodda gap, belbog' esa sodda gaplarni bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Guruhlar sandiqcha ichiga yashiringan sodda gaplar va bog'lovchi vositalardan foydalanib qo'shma gaplar tuzadilar. Tez va to'g'ri qo'shma gap tuzgan guruh rag'batlantirilib boriladi.

Namuna:

1-guruh	2-guruh	3-guruh
1-sandiqcha	2-sandiqcha	3-sandiqcha
1-sodda gap:	<i>Bog'lovchi vosita:</i>	2-sodda gap:
<i>Shunday yaxshi odatlarimiz borki,...</i>	<i>-ki yuklamasi</i>	<i>ularga hurmat bilan qarash lozim.</i>


III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzuni tushuntirishga kirishishdan avval guruhlarga darslikdagi topshiriqlar bo'lib beriladi:

1-guruhga – 1-topshiriq, 2-guruhga – 2-topshiriq,

3-guruhga – 3-topshiriq.

1-topshiriq. Teng bog'lovchilar haqida ma'lumot bering va ular ishtirokida gaplar tuzing.



1. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi **va** u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi. 2. Dilimizda orzu balandroq edi, **lekin** ko'klam biroz noqulay keldi.

2-topshiriq. *Chunki, shuning uchun* bog'lovchilari yordamida qo'shma gaplar tuzing.

1. Bugun teatr ochildi, **chunki** dam olish kuni edi. 2. Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, **shuning uchun** klub a'zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

3-topshiriq. Berilgan gap qismlari qanday bog'langanligini toping.

1. Kuz keldi, yig'im-terim boshlandi. (Ohang yordamida bog'langan, bog'lovchisiz qo'shma gap). 2. Kuz keldi **va** yig'im-terim boshlandi. (*va* teng bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap). 3. Kuz keldi, **shuning uchun** yig'im-terim boshlandi. (*shuning uchun* ko'makchili qurilma yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap).

Guruhlarning javoblari o'qituvchi tomonidan baholanadi va rag'batlantiriladi. So'ng o'qituvchi tomonidan yangi mavzu bo'yicha ma'lumotlar beriladi va o'quvchilar bilan mashqlarni bajarishda davom etiladi.

Bilib oling! Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi:

- 1) bog'langan qo'shma gaplar;
- 2) ergashgan qo'shma gaplar;
- 3) bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Navbatdagi mashqlar bajarish uchun guruhlarga bo'lib beriladi. O'quvchilar mashqlarda berilgan har bir qo'shma gap turini topishlari kerak bo'ladi. Har bir guruh mashqlarni namunadagidek bajarib bo'lgach, o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va rag'batlantiriladi.

34-mashq 1-guruh tomonidan bajariladi.

Namuna: Goh kechalari shamol bo'riday uvullab

chiqardi, goh sharros yomg'ir quyib qolardi. (Bog'langan qo'shma gap, *goh...goh* ayiruv bog'lovchisi yordamida hosil qilingan).

35-mashq 2-guruh tomonidan bajariladi.

Namuna: O'qishli kitob go'zallikdir, **lekin** go'zallikda ham go'zallik bor. (Bog'langan qo'shma gap, *lekin* zidlov bog'lovchisi yordamida hosil qilingan).

36-mashqni 3-guruh bajaradi.

Namuna: Shogirdlar qancha ko'p bo'lsa, ko'ngil qafasi shuncha ravshanroq bo'ladi. (Ergashgan qo'shma gap -*sa* shart mayli vositasida bog'langan).

37-mashq jamoa bo'lib bajariladi. Qaysi guruh ko'proq qo'shma gap tuzsa, rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi.

38-mashq asosida har bir guruh qo'shma gaplardan foydalanib "Kuz keldi – rizq keldi" mavzusida matn tuzadi. O'quvchilar tomonidan yozilgan matnlar o'qilib, o'qituvchi tekshiruv asosida rag'batlantiriladi va eng yaxshi matn yozgan o'quvchilar e'lon qilinadi.

Shundan keyin "Panda testi" yordamida o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy fikrlashi hamda intellektual salohiyati tekshirib ko'riladi.

Testdan namunalari. Quyida keltirilgan test savollari pedagogik izlanishlar va tajribalar asosida tuzilgan. Ushbu testni qo'llab ko'rishni barcha hamkasblaringizga tavsiya etaman:

1. Quyidagi so'zlarni mantiqiy tartibda joylashtiring:
1. Ish. 2. Qaram bo'lmaslik. 3. O'qish. 4. Daromad. 5. Imtihon.

- A) 1, 4, 2, 3, 5 B) 3, 1, 2, 4, 5
D) 2, 5, 3, 1, 4 E) 3, 5, 1, 4, 2
F) 1, 4, 3, 5, 2

Tahlil namunasi: 1. O'qish kerak. 2. Imtihondan o'tish. 3. Ishlash. 4. Daromad topish. 5. Qaram bo'lmaslik. Demak, to'g'ri javob – E) 3, 5, 1, 4, 2

Soat peshindan keyingi 3:30 ni ko'rsatmoqda. Daqiqa ko'rsatkichi har soatda 2 daqiqa oldinga o'tib ketsa, soat ertalabki 4 gacha necha daqiqa oldinlab ketgan bo'ladi?

- A) 23 daqiqa B) 24 daqiqa D) 22 minut E) 25 daqiqa F) 26 daqiqa

Tahlil namunasi: 3:30 dan ertalabki 4 gacha soatiga 2 daqiqadan hisoblaganda 24 daqiqa 30 soniya bo'ladi. 1 daqiqa qo'shamiz va 25 daqiqa bo'ladi. Demak, to'g'ri javob – E) 25 daqiqa.

IV. Otilgan mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichi "To'liqsiz maktub" usulidan foydalanib olib boriladi. Bunda o'quvchilar maktabning bo'sh qolgan qismlarini to'ldirishlari kerak bo'ladi.

Bitta ____ belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap _____ deyiladi. Ikki yoki undan ortiq ____ gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan, ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik _____ sanaladi.

1-guruhga:

2-guruh "Libos kiydir" ta'limiy usuli yordamida sxemalarga mos qo'shma gaplar tuzadi:

1. va 2. , shuning uchun

3. goh , goh

1. Ko'klam keldi **va** daraxtlar gullay boshladi.
2. Beruniy ilm yo'lidagi hamkorlikni juda qadrlardi, **shuning uchun** ham o'z davrining taniqli olimlari bilan ilmiy aloqalar o'rnatgan edi. 3. **Goh** qah-qah kulgi ovozi eshitiladi, **goh** musiqa sadosi avjiga chiqadi.

3-guruh o'quvchilari yana 4 ta kichik guruhlariga bo'lib olinadi va "Fikrni davom ettir" usuli yordamida ixtiyoriy qo'shma gaplar tuzish topshirig'i beriladi.

1-kichik guruh:

Keksa qarag'ayning ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan...

2-kichik guruh javobi:

Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi ungan yeridan.

2-kichik guruh gapi:

Butab, so'ng ko'tarib ketdilar...

3-kichik guruh javobi:

Biroq u o'z panjasida olib jo'nadi
Yashagan yeridan bir siqim tuproq...

Shu tariqa qo'shma gaplar tuziladi. Guruhlar o'rtasida gap tuzishda faol qatnashgan o'quvchilar aniqlanib, ularga rag'bat kartochkalari topshiriladi. Barcha guruhlarning javoblari tahlil qilinib baholanadi.



Guruhlarga test savollari tarqatiladi. Tez va to'g'ri bajargan guruh rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi:

1. Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap ... deyiladi.

- A) qo'shma gap D) murakkab qo'shma gap
B) sodda gap E) yoyiq gap

2. Ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik ... deyiladi.

- A) gap D) qo'shma gap
B) sodda gap E) murakkab qo'shma gap

3. Qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Bahrom o'zining kanizagi Fitna bilan kiyik oviga chiqdi.

B) Ov vaqtida Bahrom bir kiyikni shunday ustalik bilan otadiki, bundan o'zi ham bag'oyat hayratga tushadi.

D) Bahrom kanizagiga ko'z tashlaydi, ammo uning hayratlanmaganligi Bahromni darg'azab etadi.

E) B va D javoblar to'g'ri.

4. Kesimlik belgisining miqdori nimaga asos bo'ladi?

- A) Gapni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga.
B) Gap va so'z birikmasini ajratishga.
D) Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlashga.

ga.

E) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Qo'shma gap turlari nechta?

- A) 5 ta B) 3 ta D) 4 ta E) 2 ta

V. Baholash va rag'batlantirish.

Dars so'ngida guruhlarning to'plagan ballari hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Guruhlar va alohida o'rnak ko'rsatgan o'quvchilar "Eng bilimdon o'quvchi", "Eng chaqqon o'quvchi", "Eng faol guruh rahbari", "Eng faol guruh", "Eng zukko o'quvchi" kabi nominatsiyalar bilan rag'batlantiriladi. Guruhlar umumiy holda va har bir o'quvchi alohida baholanadi.

VI. Uyg'a vazifa.

39-mashq. "Hashar" mavzusida insho yozib kelish.



Elmurod NASRULLAYEV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti;

Abdumutalib HAZRATQULOV,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Samarqand davlat universiteti katta o'qituvchisi

INSHO – O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI

Jahon tajribasida inshoga ta'limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Insho yozish, ayniqsa, AQSH, Angliya, Kanada kabi dunyoning rivojlangan davlatlari kollej va universitetlarida keng yo'lga qo'yilgan yozma ish turi hisoblanadi. Kollejlarda talabalar yozma nutq malakalarini rivojlantirish va mukammallashtirish uchun insho yozadilar. Universitetlarda esa bunday yozma ish turlaridan bo'lajak talabalarning savodxonligi, dunyoqarashi va tafakkuri mustaqilligini aniqlashda foydalaniladi. BMTning "Many languages, one world" ("Ko'p tillar, bir dunyo") shiori ostida o'tkaziladigan insholar tanlovi mavjud bo'lib, bundan maqsad talabalarni ko'p tillarni bilishga undash, ularning nutqiy qobiliyatini rivojlantirish, madaniy ongini yuksaltirishdir.

Dunyo ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda xorijiy tajribalarga asoslangan "Intellect maps" (zakovat xaritasi), "Think and write" (o'yla va yoz) kabi shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning turli metodlari mavjud. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi barcha sohalarida o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin bayon qila oladigan, grammatik savodxonligi yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj hamda talab ortib bormoqda. Nafaqat kelajak faoliyati badiiy so'z bilan bog'liq shaxslarni shakllantirishda, balki har qanday sohada ish yurituvchi mutaxassisni tarbiyalashda inshoning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimiz adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimi va zakovatini rivojlantirishning turli metodlari, usullari yaratilgan bo'lsa-da, inshoning tarbiyalanuvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashdagi, uning ruhiy kamoloti hamda ma'naviy sog'lomlashuvdagi bevosita o'rni chuqur tadqiq etilmagan. Inshoni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari belgilanmaganligi, bu borada keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Davlatimiz rahbarining "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlashi mamlakat yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan yuqori malakali

mutaxassislar etib tarbiyalashda yozma nutq va mustaqil tafakkurning eng oliy shakli bo'lgan insho hamda uni yozishning tartib-qoidalarini o'rganish-o'rgatishga asoslangan o'qitishni maqsadli tashkil etish vazifasini qo'yadi.

Ma'lumki, bolalar 6–7 yoshgacha o'z hayotlarida bilishlari lozim bo'lgan asosiy narsa-hodisalarni farqlab bo'lishadi. Bunga ularning atrof olamni bilish, o'zlashtirish ehtiyoji sabab bo'ladi va bu ko'proq taqlid qilish yo'li bilan amalga oshadi. Maktabga qadam qo'yilgach esa bolalar o'qish va yozish jarayonida tabiiy ravishda "bilimlarni tizimli o'zlashtiruvchi shaxs"ga aylanishadi. Ta'lim amaliyotida bu bosqichni oqilona tashkil etish dastlabki sinflardan boshlab o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamda o'quvchilarning o'zaro bir-biri bilan erkin munosabatlarini yuzaga keltirish, mustaqil fikr bildirishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun, avvalo, kichik, qiziqarli matnlarni qayta hikoyalashni talab qilish, asta-sekinlik bilan rasmi bayon, kichik matnlarga asoslangan bayon va o'quvchilar qiziqishidan kelib chiqadigan kichik matnli insholar rejasi va matnini yaratish ishlarini izchillik bilan tashkil etish talab qilinadi.

Insho umumta'lim tizimi tarbiyalanuvchilari tafakkurini, ularning ham og'zaki, ham yozma nutqini rivojlantiruvchi, ijodiy va erkin fikrlash qobiliyatlarini o'stiruvchi muhim ish turi sanaladi. Shu sababli inshoga o'quv dasturlarida alohida dars soatlari ajratiladi.

Insho tushunchasining zamirida mavzu va hajmning cheklanganligi, o'quvchining ana shu cheklanganlik doirasidan chetga chiqmagan holda qo'yilgan masalani ochib berishga asoslangan mustaqil faoliyati yotadi. Inshoga material sifatida hayotdagi biror hodisa, badiiy asardagi qandaydir epizod yoki boshqa biror kishining hayotidan lavha, biror joyga, biror tasvirga munosabatni olish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, insho o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkur mustaqilligi hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'lida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriladigan, har bir o'quvchidan o'z mustaqil fikri, shaxsiy munosabati, betakror xulosasini bayon etishni talab qiladigan o'quv faoliyatining murakkab shaklidir.

Rus metodisti V.A.Nikolskiyning ta'kidlashicha, maktab insholari o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan

mavzu ustida o'quvchilarning, shu bilan birga o'qituvchining ham ishlashi jarayonidir. Bu jarayonda har ikki subyektning o'z faoliyat doirasi mavjud bo'lib, insho mana shu faoliyatning amaliy natijasi hisoblanadi. Bunda o'quvchining faoliyati o'qituvchi tomonidan qilinayotgan rahbarlikka ko'p jihatdan bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bizning nazarimizda, hamonki, insho o'quvchilarning mustaqil ishi hisoblanar ekan, insho yozish jarayoniga o'qituvchining rahbarlik qilishi, aralashishi pedagogik jihatdan o'rinni bo'lmaydi. To'g'ri, o'quvchilarni insho yozishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, masalan, boshlang'ich sinflarda uning bevosita tashkilotchiligi ehtiyoj sezilishi mumkin, lekin o'quvchilarda insho yozish borasida ma'lum bilim va ko'nikmalar shakllanib bo'lganidan keyin bunga ehtiyoj kamayib borishi kerak.

O. Madayevning fikricha, o'quvchilarga insho yozishdan oldin nazariy ma'lumot berilganda, "insho" so'zining ma'nosini sharhlash yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, insho yozish ma'lum mavzu yuzasidan mustaqil fikrni yozma tarzda ifodalash ekanligi tushuntiriladi. Bunday sharhning muhim ahamiyati shundaki, o'quvchi insho yozish ijod qilish ekanligini anglab oladi. Ishning dastlabki bosqichidanoq insho bironing fikrini yoki darslikdagi ma'lumotni ko'chirish emas, balki mavzu haqida mustaqil fikr yuritish mahsuli ekanligiga urg'u beriladi. "Insho" so'zining avvalgi ma'nosi hozirgi kunda toraygani qayd etiladi. Avvallari biror shaxs tomonidan yozilgan har bir matn insho deb tushunilgan. Maktublar, ilmiy asarlar, shaxsiy arxivda saqlanuvchi kundaliklar "insho" termini bilan yuritilgan. Hozirda esa, asosan, o'zbek tili va adabiyoti yuzasidan ma'lum mavzuga bag'ishlangan yozma ishlar mazkur termin bilan yuritiladi.

Insho ta'lim tizimidagi boshqa didaktik ishlarga qaraganda, o'quvchining o'zini o'rab turgan tevarak-atrofga, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga va o'z xulq-atvoriga munosabatini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchi o'ziga berilgan insho mavzulari ustida o'ylanadi, izlanadi, ishlaydi, fikrlaydi. Bu jarayon uning shaxs sifatida shakllanishida, ma'nan barkamol bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar insho ustida ishlar ekan, o'z hayotiy tajribasi, maktab ta'limi, mustaqil kitob o'qishi davomida to'plagan "bilimlar ombori"dan berilgan mavzuga mos ma'lumotlarni saralaydi va mavzuga tegishli bo'lmaganlariga e'tibor qilmay, insho mavzusini ishonch bilan ochishga harakat qiladilar. Ular saralab olingan materi-

allarni mantiqiy izchillikda joylashtirish, insho mazmuniga mos keladigan so'z va iboralarni tanlash ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar. Biroq bu ko'nikmalar o'quvchiga tayyor holda, yaxlit tarzda berilmaydi, ular o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. O'qituvchi ularni tizimli ta'lim va davomli mashqlar natijasida o'quvchilar ongida shakllantira boradi.

"O'quvchilarda ijodkorlikni o'stirish uchun ularni ijodga undovchi material va erkinlik berish, "ularni o'qitishni bas qilib", ishga tushishga yo'l berish zarur", – degan fikrni ilgari suradi Q. Husanboyeva o'zining "Tahlil – adabiyotni anglash yo'li" kitobida. U o'quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga, ya'ni insho yozishga yo'naltirishda quyidagilarga amal qilishni maqsadga muvofiq deb biladi: "O'quvchilarga xilma-xil mavzularni tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular o'quvchilar uchun qiziqarli va ularni ijodiy fikrlashga undaydigan bo'lishi kerak; o'quvchilarga o'rtoqlarining insholarini o'qishga berish; o'quvchilarning insholari tahlil qilinayotganda undagi kamchiliklar yuzasidan qattiq tanbeh bermaslik; inshoga baho berishda hajmning qanchaligini hisobga olmaslik".

Odatda, o'quvchilar adabiy insho yozganlarida darslik mualliflari yoki o'qituvchining timsollar haqidagi fikrlarini takrorlashadi. Boisi, ular o'z fikrini bildirishga o'rgatilmagan, timsollar haqida shaxsiy qarashlari yo'q, asar mazmuni yoki matnning qaysi o'rni va jihati o'ziga ta'sir etganini, tuyg'ularini muvozanatdan chiqargan narsalar nima ekanini ajrata olmaydilar. O'quvchilarga insho yozdirishdan oldin o'qituvchi ularning badiiy asarni qanday o'qiganlari va qanchalik tushunganlarini aniqlab olishi zarur. Shunday maqsad bilan tashkil etilgan suhbatlar asnosida asar yuzasidan o'quvchilar anglamay qolgan jihatlar va buning sabablari aniqlanadi. Shundan kelib chiqib ma'lum darajada tushuntirish ishlari amalga oshiriladi. Shunday qilinganda o'quvchida mustaqil fikr, sog'lom ma'naviyat shakllantirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda Respublikamiz boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning dunyoqarashini shakllantirish, Xalqaro PIRLS baholash talablariga javob beradigan o'quvchilar bilim darajasining shakllanishi, o'z navbatida, yozma ishlarning qanday tashkil etilishi bilan ham bog'liqdir. Aynan yozma ishlardan insho – o'quvchining hayot haqidagi munosabatini shakllantiruvchi ish turlaridan biri, deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Y. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2001. 288-bet.
2. Madayev O. Insho qanday yoziladi: O'rta maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. 88-bet.
3. Никольский В.А. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1971. С. 256.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. 163-bet.
5. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. – Toshkent: Muharrir, 2013. 432-bet.

Nodira HOTAMOVA,

Buxoro viloyati Olot tumanidagi 7-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASINI SHE'RIY TALQINDA O'QITISH

Yosh avlodni bilimli, e'tiqodli, Vatanga sodiq farzandlar qilib tarbiyalashda adabiy ta'limning samaradorligini oshirish lozim. Bunda turli ta'lim usullarini sinab ko'rish maqsadga muvofiq. 6-sinflarda O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'tishda o'quvchilarga mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun matnning quyidagi she'riy talqinidan foydalanish mumkin.

Tinchlik bo'lgan joylarda
Gullar chiroy ocharmish.
Onalar alla aytisa
Buyuklar ulg'ayarmish.
Tinch turmaskan zamona
Aql bunga hayrona.
Fashist degan gazanda
Paydo bo'ldi har yonda.
Keksa-yu yosh o'g'lonlar
Qo'lga qurol oldi.
Yurtni jondan sevganlar
Jangga qarab otlandi.
Istasa ham Shoikrom
Jangga yuborishmadi.
Chunki charog'bon edi,
Qishloqqa kerak edi.
Shoikromda uch farzand,
Oilaning boshida.
Ayoli Xadicha ham
Ro'zg'orining qoshida.
Shoikrom ishdan ortmas
Yo'qchilik, qahatchilik.
Erta turib kech kelar
Ko'paydi ko'p o'g'irlilik.
Shoikromning sigirin
Olib ketdi o'g'rilar.
U kimga arz qiladi,
Kamaydi-da to'g'rilar.
Taqdiriga tan berib
Arang tortib ro'zg'orni.
"Bir kunimga yarar" deb
Ekdi yerga yertutni.
Ukasi Shone'mat ham
Vatanni sevar jondan.
Ammo kasallik uni
To'shakka mixlab qo'ygan.

Umri xola jon halak
Shone'matga parvona.
Topganin unga tutar
Ne qilsin udir ona.
Har kun sut ichib tursin
Deya tabib buyurdi.
Onaxon nima topsa
Uni sutga alishdi.
Shoikromning yeriga
Ona tunda kirardi.
Olib chiqib qulupnay
Sutga alish qilardi.
Qulupnaylar pishganda
Tunlari o'g'ri tushdi.
G'azab otiga mingan
Shoikrom o'yga tushdi.
Uzun simni oldi-yu
Tomorqaga tashladi.
Elektrga uladi,
Keyin kuta boshladi.
Kimdir gursullab tushdi
Og'riqdan faryod chekdi.
Xato qildi Shoikrom
Shu onda anglab yetdi.
Yaqin borib qarasa,
Onaizori yotar,
Bir etak qulupnay-la.
Umri xola tobuti
Qabristonga eltishdi.
Urush tugabdi deya
Qishloqqa xabar keldi.
Mustaqil bo'ldik, shukur.
Osmonimiz musaffo.
Vatan uchun jon bergan,
O'g'lonlar nomi qalbd.
Bizning go'zal diyorda
Yurtni o'g'ri bosmaydi.
Shone'matlar so'lmaydi,
Onajonlar o'lmaydi.

Bu she'r darsning mustahkamlash qismida o'qilib, o'g'rilik eng yomon illat ekanligi, haqiqiy o'g'ri Umri xola emasligi, uni o'z zamonasi majbur etganligi muhokama qilinadi. Asardagi har bir obrazning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinsa, o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi, tinchlikning, ozod Vatanning muqaddasligi yana dir bor anglab yetiladi.

Shaxnoza XUDANOVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti nemis tili o'qituvchisi

NEMIS TILINI O'QITISHDA KREATIV YONDASHUV: KOMMUNIKATIV TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH DARS MAQSADI SIFATIDA

Texnika va texnologiyalar rivojlanishi avj olgan bugungi globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayonini ham shunga mutanosib tarzda tashkillashtirish pedagog kadrlardan bilim, malakalarini mustahkamlab turishni hamda yangi ko'nikmalarni shakllantirish uchun muntazam harakatlarda, uzluksiz malaka almashinuvida bo'lishni talab etadi. O'qituvchilar nafaqat individual o'qish va o'rganishga, balki o'zi o'rgangan, tajribada sinaganlarini boshqa kasbdoshlariga ham yetkazishga, qolaversa, bu orqali ular bilan uzluksiz malaka almashishga intilishlari lozim. Chunki bilim, tajriba va malaka almashish boshqa kasbdoshlarda yangi ko'nikmalar shakllantirishga turtki bo'ladi. Ayniqsa, chet til o'qitish darslaridan kommunikativ natija ko'zlanayotgan zamonaviy ta'lim jarayoni o'z ustida ishlovchi talabchan, intiluvchan o'qituvchi kadrlarga ko'proq ehtiyoj sezmoqda. O'z navbatida, pedagog kadrlar ham tabiiy til muhitiga mos kommunikativ maqsadga erishish yo'lida tinimsiz amaliy va ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bu rivojlangan davlatlar miqyosida olib qaralsa, bu borada Yevropa Kengashining "Chet tilni egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umumetirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR) ishlab chiqilgan bo'lib (1990-yil), unga ko'ra til o'rganishdan asosan kommunikativ maqsad ko'zlanadi, ya'ni chet tilni o'rganishda o'sha tilda so'zlashuvchi millat vakili bilan erkin muloqotga kirishish natijasiga erishish ko'zda tutiladi.

CEFR Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan 2001-yilda til ko'nikmalarini baholash standarti sifatida tavsiya etilgan. Unga muvofiq til o'rganish va baholashning uchta darajasi farqlanadi – elementar (A), mustaqil (B) va kompetent (C). Kompetent daraja deyilganda, o'quvchi chet til bo'yicha egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishi tushuniladi. Bu darajalarning har biri yana ikki boqichga ajratiladi. Masalan, A darajasi A1 hamda A2 bosqichga bo'linadi. [1]

O'quvchi til ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallab boradi. Shunga muvofiq darajalar bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan til ko'nikmalari ham har bir bosqichga mos ravishda rivojlantirib boriladi. Asosiy maqsad esa o'quvchilar egallagan til ko'nikmalarining tabiiy til muhitiga yo'naltirilishi bilan izohlanadi. Bu borada amaliy tilshunoslik bo'yicha Edinburg universiteti professori, xatolarni tahlil qilishni o'rganishga buyuk hissa qo'shgan britaniyalik tilshunos Stiven Pit Korderning 1981-yilda ilgari surgan fikricha, muvaffaqiyatli til o'rgatish darslari tabiiy til muhitiga yo'naltirilgan, undan oziqlangan va shunga asoslangan, shuningdek, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan bo'lishi lozim. O'quv jarayonida tabiiy va kundalik hayotda sodir bo'ladigan voqealiklar bilan bog'liq til materiallari qanchalik ko'p o'rganilsa, o'quv jarayoni ham shunchalik muvaffaqiyatli hamda uzoq muddat samarali bo'ladi. [2]

Respublikamizda ham bugungi ta'lim jarayonida bir qancha olg'a siljishlarni kuzatish mumkin. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida chet tilni mutaxassislik fani sifatida o'rganuvchi talabalarning til ko'nikmalarini amaliy egallashlari uchun o'quv dasturiga kiritilgan ko'pgina fanlar amaliy mashg'ulot tarzida o'qitilmoqda. Ana shunday mashg'ulotlarni samarali olib borish lozimligi o'qituvchi kadrlarni ayrim nemis tili darslariga kreativ yondashishga undaydi. Sababi, individual yondashgan holda har bir talabada tanish yoki o'zini qiziqitirgan mavzularda yuzma-yuz muloqotga erkin kirisha olish, uni samarali davom ettirish va tugallash, hissiyotlari va munosabatini tasvirlagan holda ko'rgan-kechirganlarini batafsil bayon qila olish, o'rganilayotgan chet tilda to'g'ri va aniq talaffuzda gapira olish kabi til ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchining asosiy mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. O'qituvchi, shuningdek, ba'zi guruhlarda uchraydigan ayrim past o'zlashtiruvchi talabalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda alohida shug'ullanishi, til darajasining boshlang'ich bosqichidan boshlab ko'nikmalarni shakllantirib borishi lozim bo'ladi. Masalan, bunday talabalar bilan darsdan tashqari qo'shimcha til to'garaklarida ishlaganda, A darajaga mos tildan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan materiallarni tanlashi mumkin. O'qituvchi ushbu darajadagi lug'at boyligi, leksik birliklar, tinglab yoki o'qib tushunish materiallari ustida talaba bilan qanchalik astoydil va mohirona ishlasa, uning kommunikativ, shuningdek, tabiiy tilga yaqin til ko'nikmalariga ega bo'lishi ham shunchalik oson bo'ladi.

Bundan tashqari, ayrim til materiallarini o'qitishda talaba ongi hamda tasavvurini hisobga olish talab etiladi, qolaversa, bunday til materiallarini o'rgatish va unga mos til ko'nikmasini shakllantirishda dars mavzusiga kreativ yondashish ehtiyoji tug'iladi. Bunga yaqqol misol qilib Germaniyaning Hueber nashriyoti tomonidan CEFR talabalariga muvofiq nashr etilgan "Menschen" o'quv va ishchi kitoblarning A2.1 darajasidagi 6-mavzu "Mening sevimli bayramim"ni ("Meine Lieblingsveranstaltung") ko'rsatish mumkin. Mavzudagi mashq va topshiriqlarni bajarishda quyida berilgan kreativ yondashuvlarga asoslanish mumkin:

1-mashq: (Sehen Sie das Foto an. Welche Wörter passen?)

Notieren Sie drei Minuten so viele Begriffe wie möglich.

Vergleichen Sie dann im Kurs.)

Berilgan rasmga qaysi so'zlar mos keladi?

Uch daqiqa davomida mos tushunchalarni yozing.

So'ngra ularni boshqalarniki bilan qiyoslang.

Misol tariqasida (Kostüm, Feuer) *kastum, olov* so'zlari berilgan. Ushbu mashqni talabalar avval egallagan bilimlariga tayanib mustaqil bajara olishadi, chunki ularning

lug'at boyligida rasmni tasvirlash uchun tushunchalar bo'ladi.

2-mashq: (Sehen Sie das Foto an und hören Sie.

Was für ein Fest ist das? Was meinen Sie?)

Rasmga qarang va tinglang.

Bu qanday bayram? Nima deb o'ylaysiz?

Bu mashqni bajarish uchun qandaydir bir bayram jara-yoni tasvirlagan 40 soniyalik audio eshittiriladi. Audio qaysi bayramga oidligini o'rganuvchi topib, quyidagi javoblardan birini tanlashi kerak:

(ein Theaterfestival) teatr festivali

(ein Karnevalsfest) karneval bayrami

(ein Mittelalterfest) o'rta asr bayrami

Berilgan javoblardan birini tanlashda talabalar ikkilanishadi, sababi ularda nemis madaniyatiga xos **Theaterfestival, Karnevalsfest** va **Mittelalterfest** haqida to'liq tushuncha yoki tasavvur bo'lmasligi mumkin. Shunchaki biror variant belgilagandan so'ng o'qituvchining to'g'ri javobni e'lon qilib, ushbu mashqni tugatishi esa unchalik samara bermaydi. Shuning uchun audio eshittirishidan oldin javob variantlarida berilgan uch xil festival va bayramlar haqida Internetdan kerakli mazmundagi qisqa videorolikni yuklab olib, talabalarga ko'rish hamda tushunib tasavvur hosil qilish uchun taqdim etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday festival va bayramlar qanday nishonlanishi, ulardagi musiqa yoki kiyimlar qanday farqlanishi xususida videoroliklar vositasida ko'proq tasavvur uyg'otilgach talaba topshiriqni nafaqat ongli ravishda bajara oladi, balki aniq tasavvur orqali ularni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini ham egallaydi.

Navbatdagi 3-mashq **Tolle Events in Deutschland, Österreich und in der Schweiz** deb nomlanadi. Mashqning a sharti quyidagicha:

Überfliegen Sie die Leserbeiträge. Zu welcher Veranstaltung passt das Foto auf Seite 33?

Matn nomlariga qarab chiqing. 33-betdagi rasm qaysi bayram yoki tadbirga mos?

33-betdagi rasm deyilganda, yuqoridagi 1-mashqdagi rasm nazarda tutiladi. Shu o'rinda o'qituvchi 3-mashqni boshlashidan oldin kichik matnlarda keltirilgan bayram va tadbirlarning qanday o'tkazilishiga oid videoroliklarni Internetdan yuklab, saralab talabalarga namoyish qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ularda navbatdagi mashqni bajarish jarayonida nafaqat matnga tayangan holda, balki videoroliklardan olgan tasavvurlarini gapirish orqali ham mustaqil so'zlab berish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bunday kommunikativ til ko'nikmasini shakllantirish esa nemis tili, umuman olganda, barcha chet tillarni o'qitishning muhim talabi sanaladi. Sarlavhadagi **Events** so'zini roliklar namoyishidan keyin izohlab berish osonroq bo'ladi.

3c. Welche Veranstaltung würde Sie interessieren? Erzählen Sie.

Qaysi bayram yoki tadbir sizni qiziqtirgan bo'lardi? So'zlab bering.

Darhaqiqat, erkin muloqot ko'nikmasi uchun ba'zan matn o'qib, gapirib berishning o'zi kamlik qiladi, bunday vaziyatlarda qo'shimcha material sifatida videoroliklarga murojaat qilgan ma'qul. Darslarga bunday kreativlik bilan yondashish ong, tasavvur bilan bir qatorda erkin muloqot uchun turtki bo'ladi.

Navbatdagi 4–5-mashqlarda ham yuqorida nomi keltirilgan nemis xalqlariga oid bayram va festivallar haqidagi bilimlar sinalladi. 6-vazifa esa a va b topshiriqlarda bajariladi. Bunda a topshiriqda talabalar mavzu doirasida o'qigan, ko'rgan va eshitgan so'z va iboralarni to'g'ri tartiblashlari lozim bo'lsa, b qismini bajarishda esa 85-betda berilgan rol ijro etish o'yiniga murojaat qilinadi. Vazifa og'zaki nutqni o'stirishga mo'ljallangan bo'lib, unda 34-betdagi bayram va festivallar tilga olinadi hamda ikki kishilik telefon orqali suhbat olib borish lozim bo'ladi. Aynan shu qismda ikkala so'zlovchiga o'z ongida shakllangan tushuncha va tasavvurlar orqali suhbat qilishga imkon tug'iladi. Bunda talabalar kichik matnlardan olingan ma'lumotlar hamda qo'shimcha materiallar asosida erkin muloqotga kirisha oladilar. Shuningdek, ularda hosil qilingan tasavvur va tushunchalar darsdan ko'zlangan maqsadga samarali erishishga, ya'ni ong imkoniyatlarini shakllantirish yo'li bilan muloqotga erkin kirishishga olib keladi. [3]

Bu o'rinda talabaning kommunikativ harakatlariga imkon beradigan bilim, ko'nikma, shaxsga oid kompetensiyalar va umumiy aqliy qobiliyatlarining yig'indisini kommunikativ kompetentlilik deyish mumkin. Bu borada Hertel shunday deb yozadi: "Kompetentlilik – bu muayyan muammolarni hal qilish uchun shaxslarga beriladigan bilim imkoniyatlari va qobiliyatlari, shuningdek, ularga bog'liq bo'lgan motivatsion va ijtimoiy tayyorlik va o'zgaruvchan vaziyatlarda muammoni hal qilishda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli foydalanish qobiliyatlaridir. [4]

Lingvistik nuqtayi nazardan esa "kompetentlilik" termini talabaning interfaol to'g'ri muloqot qobiliyatini anglatadi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, kompetentlilik termini faqatgina tor doirada to'g'ri gapirish qobiliyati deb emas, balki to'g'ri fikrlash hamda tahlil qilish qobiliyati deb tushunilishi lozim. Bu borada Verlen shunday yozadi: "Kommunikativ qobiliyat muloqotga ijodiy va reflektiv kirishish asosida tuziladi, ya'ni o'z fikrini tushuntirish va boshqa qarashlarni qabul qilish orqali boshqalarni tushunishdir". [5]

Xulosa o'rnida keltirish mumkinki, chet tillarni o'qitish, ayniqsa, O'zbekistonda nemis tilini o'qitish yildan-yilga o'zgarib, takomillashib bormoqda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va talabalar oldingi ta'lim tizimiga qaraganda tilni kommunikativ qo'llashda faolroq ish olib borayotganliklari kuzatilmoqda. Pedagoglar nemis tili darslarini takomillashtirilgan yangi innovativ o'quv seminarlari yordamida chuqurlashtirib bormoqdalar, bu esa tillarni o'rganishda va mavjud muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Europarat (2001), Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: Lernen, lehren, beurteilen. – München: Langenscheidt.
2. Corder S. P., Error Analyses and Interlanguage. – Oxford: Oxford University Press, 1981.
3. Habersack Ch., Pude A., Specht F. Menschen A2.1, Deutsch als Fremdsprache, Kursbuch. – Hueber Verlag, 2013. – S. 33-36.
4. Hertel S., Lehrer als Berater in Schule und Unterricht, Stuttgart. – Kohlhammer Verlag, 2010. – S. 58.
5. Werlen, E., Kommunikative Kompetenz und Mehrsprachigkeit, Baltmannsweiler. – Schneider Verlag, 2007. – S. 15.

Musallam XASANOVA,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti Nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

XORIJIY TIL O'RGATISHDA PARTIKULATIV YONDASHUVLAR: NOMUTAXASSIS YO'NALISHLAR MISOLIDA

XXI asrga kelib dunyo miqyosida xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishning ijtimoiy-madaniy asosi mutlaq o'zgardi. Ularning ta'lim va mustaqil ta'limda tutgan o'rnini sezilarli ravishda oshdi. Xorijiy tillarni o'rganish xalqaro mehnat bozorida o'ta muhim kasbiy ahamiyat kasb eta boshladi. Xalqaro tajriba va ko'nikmalar almashish, jahon standartlari chet tillarni o'rgatish ta'lim tizimlariga kirib kela boshladi. Xalqaro mehnat bozorining keskin differentsiyalashuvi, ilmiy-texnik yangiliklar sabab mutaxassisliklarning shiddat bilan o'zgarishlarga yuz tutishi xorijiy tillarni qisqa muddatda, sifatli va samarali o'rganishni taqozo etmoqda. Hozirda barcha raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda kamida bitta xorijiy tilni ona tili darajasida mukammal bilish majburiy va umumiy standartga aylangan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlarida ta'lim shakli va yo'nalishidan qat'i nazar o'rta maktab bitiruvchilari ikki Yevropa tilini bilishlari shart. [1] Bularning bari esa kompleks ravishda xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan talabni keskin oshirdi.

Endilikda, xorijiy tillarni o'rgatishda juda uzoq muddatli, an'anaviy va o'quvchi-talabalarning aksariyati uchun tushunish o'ta qiyin bo'lgan universal metodlardan ko'ra ko'proq partikulativ, ya'ni o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalariga asoslangan o'qitish metodlarining o'rnini kengayib bormoqda. "Partikulatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib (*particula*), qism degan ma'noni beradi. [2] Demak, partikulativ metodlar umumiylikdan voz kechib xususiylikka (yakka hodisalarga) intiladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda qo'llaniladigan partikulativ yondashuvlarni biz umumiy holda 2 ta asosiy turga bo'lishimiz mumkin:

- har bir til o'rganuvchining shaxsiy bilim va ko'nikmalarini birlamchi o'ringa qo'yuvchi "individual" yondashuv;
- biror guruhning umumiy bilim ko'nikmalarini hisobga oluvchi guruh partikulatsiyasi.

Individual yondashuv. Ushbu termin xorijiy til o'quv jarayonini tashkil etuvchi didaktik vositalar tizimini anglatadi va talabalar egallaydigan kasb sohasida ushbu xorijiy tildan foydalana olish imkoniyatlarini, ta'lim maqsadi, mazmuni va jarayonini tashkil etadi.

Individual yondashuv jarayoni murakkab pedagogik hodisa hisoblanib, xorijiy tilni o'rgatish samaradorligini aniqlab beradi. Individual yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirishining asosiy sharti – differentsiatsiya. Differentsiatsiya boshlang'ich til tayyorgarligini hisobga olgan holda talaba uchun shaxsan muhim bo'lgan maqsadlarni qo'yish, o'z ustida mustaqil ishlashning

doimiy va ratsional ko'nikmalarini ishlab chiqish hamda til o'rganishda tizimli yondashuvni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Chet tilni o'rganishda individual yondashishga asoslangan ta'lim kursi bir necha pedagogik vazifalarni amalga oshiradi [3]:

ta'lim faoliyati motivatsiyasi – muammolardan qochish va baholash motividan muvaffaqiyatga erishish va kasbiy manfaat motiviga o'tish;

ishga yangilik kiritish va shaxsiy rejimda ishlash imkoniyati;

darslarda real voqelikka yaqin nutqiy holatlarni yaratishga asoslangan ta'lim;

to'xtovsiz va mustaqil ta'limning asosiy kaliti hisoblanmish o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini talabalarda hosil qilish.

Xorijiy tilni o'rganish jarayoni turli tomonlardan ko'rib chiqilishi mumkin:

o'qituvchi pozitsiyasidan – uning faoliyati til predmetini o'rgatish maqsadlariga mos yoki mos emasligi, talabalarning psixologik xususiyatlari hisobga olinganligi yoki olinmaganligi va boshqalar;

talaba pozitsiyasidan – uning ta'lim jarayoniga qanchalik qo'shilganligi, motivatsiya darajasi va boshqalar;

talabada doimiy rivojlanish kuzatilishi uchun ta'lim jarayonini tashkillashtirishda ichki rezervlarni hosil qilish pozitsiyasidan.

Xorijiy tilni o'rganishdan asosiy maqsadlar:

- o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati va yashash tarzi bilan tanishish;
- chet tilda so'zlashuvchi aholi bilan muloqotga kirishish;
- chet tildan kasbiy faoliyatda foydalanishga kasbiy tayyorgarlik.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, barcha mavjud ta'lim dasturlari o'rtacha o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Lekin, birinchi kursga qabul qilingan talabalar fan bo'yicha turlicha tayyorgarlikka ega bo'ladilar yoki ba'zilar chet tilni bilmaydilar. Ehtimol, ta'lim dasturida belgilangan minimum chegaralardan chiqqan oladigan va chiqishni xohlovchi talabalar uchun chet tilni o'rganishni takomillashtirish imkoniyatini yuqori darajadagi masalalarni hal etish orqali yaratib berish kerakdir. Shundaygina, ta'lim kursi yakunlangach talabalar olgan bilimlaridan muayyan kasbiy maqsadlarda foydalanishlari mumkin: maktabgacha va maktab yoshida-

gi bolalarga chet tilni o'rgatish, chet tildagi manbalarni o'rganish orqali kasbiy malakani oshirish va h.k. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun butun ta'lim jarayonini qaytadan tashkillashtirish talab etiladi. Shundagina, talabalar kurs davomida faqatgina qo'yilgan dasturiy talablarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmasdan, olgan bilimlaridan kasbiy faoliyatda ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Individual yondashuv negizida ko'pgina mutaxassislar faol ta'lim yondashuvini ham alohida qayd etadilar. Faol ta'lim yondashuvi – real hayotda talabalar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqarish, tizimlashtirish, tahlil qilish va yechishga mo'ljallangan yondashuv. U shaxsning rivojlanishi, mustaqil shakllanishi va mustaqil rivojlanishiga yo'naltirilgan.

Yondashuvning bosh tamoyili – har bir o'quvchi o'z bilimlarining yaratuvchisi. [4] Faol ta'lim yondashuvi, shubhasiz, zamonaviy ta'lim tizimidagi eng ustuvor usul va texnologiyalarni o'zida mujassam etgan. Zero, ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish va samaradorligini oshirish uchun, avvalo, o'quvchi-talabalarining fikrlash, tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar bugungi kun voqeligini o'zida aks ettirgan. Ular o'quvchi-talabalarida mustaqil fikr yuritish, kirishimlilik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Guruh partikulatsiyasi yondashuvi. Nomutaxassislik yo'nalishlarida chet tilni samarali o'qitish uchun ta'lim kursi boshlang'ich matnlar, fonetik va grammatik materiallar bilan bir qatorda laboratoriya ishlarini ham o'z ichiga olishi kerak. Laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarda partikulatsiya, ya'ni ayro ta'limning faqatgina individual emas, balki guruh partikulatsiyasi uslubidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Unda talabalarining boshlang'ich tayyorgarligi, ularning real imkoniyatlari, ijobiy motivatsiyaning bor yoki yo'qligi, individual xususiyatlari hisobga olinadi va o'xshash ko'nikmalarga ega talabalar guruhlariga ajratiladi. Bunday ta'lim kursi davlat tomonidan qo'yilgan standartlar bilan bir qatorda tayanch va yuqori talablarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda ta'lim kursi uchta rejimda amalga oshiriladi:

– minimal dastur – lug'at bilan o'qish va tarjima qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan eng kam tayyorgarlikka ega talabalar guruhi uchun;

– o'rta dastur – o'qish va tarjima qilish jarayonida lug'atdan qisman foydalanadigan, lekin erkin so'zlasha olmaydigan talabalar guruhi uchun;

– murakkab dastur – chet tilda mustaqil so'zlash va o'qish ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalar guruhi uchun.

Bunday ko'rinishdagi ta'lim kursini tashkillashtirishda quyidagi shartlar hisobga olinishi kerak:

– talaba oliy ta'lim muassasasida chet tilni o'rta maxsus ta'limdan keyingi darajadan boshlab o'rganishi kerak;

– talaba materialni faqatgina qo'lidan kelgan tezlik bilan o'zlashtirishi lozim;

– talaba uchta ta'lim rejimidan o'zi uchun eng muqobilini tanlashi kerak;

– talaba butun ta'lim muddati davomida bir rejimdan ikkinchi rejimga o'ta olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim;

– talabalar tomonidan qo'yilgan barcha talab va vazifalar bajarilgan holda reja muvaffaqiyatli tugagan hisoblanadi.

Ushbu tizimli ta'lim dasturining sxematik ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi: maqsad – faoliyatning asosiy bosqichlari va turlari – talaba faoliyati – talabalar guruhlarining faoliyati natijalari – talaba faoliyati natijalarini qo'yilgan maqsad bilan solishtirish – xulosa va baholash – yangi maqsadni qo'yish va h.k.

Guruh partikulatsiyasini amalga oshirishda, shuningdek, ko'p tomonlama yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ko'p tomonlama yondashuv 1920-yilda ishlab chiqilgan "Kliviend rejasi" bilan bog'liq. Uning asosiy tamoyillari [5]:

1. Xorijiy tilni mexanik yod olish va eslab qolish orqali o'rganib bo'lmaydi, chunki har bir o'quvchi o'ziga xos va turli sifatlariga ega. Demak, o'quvchining o'zi tushunmagan va anglamagan matnlarni yodlab qolishiga qaratilgan mashqlar minimallashtirilishi kerak.

2. Til – bu madaniyat. Madaniy bilimlar esa autentik (asl) til materiallarini o'rganish jarayonida egallanadi.

3. Har bir dars yagona bir fokus atrofida shakllantirilishi kerak. Bir darsda talabalar ta'lim mazmunining bir qismini, birligini o'rganishlari lozim.

4. Grammatika, so'z boyligi kabi, muvofiqlashtirilgan porsiyalarda bosqichma-bosqich o'rgatilishi kerak: har bir yangi dars oldingi darsda olingan bilimlarni to'ldirib borishi shart.

5. Nutqning barcha to'rt shakli ta'lim berish jarayonida o'rgatilishi va rivojlantirilishi kerak.

Nomutaxassislik yo'nalishlarida chet tilni o'rgatishda partikulativ, ya'ni umumiy bo'lmagan yondashuvlardan foydalanish talabaga ta'lim jarayoniga faol ravishda qo'shilish va ushbu jarayonning to'laqonli subyektiga aylanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, aynan partikulativ yondashuv nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalariga xorijiy tillarni qisqa muddatda, o'z sohasi doirasida o'zlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The pact of European Council of EU on learning of European languages (2010): www.consilium.europa.eu/archives/documents/official_pacts/2010000304&001
2. https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_biology/4089/ПАРТИКУЛЯЦИЯ
3. Маслыко Е.А. Настольная книга преподавателя иностранного языка. – Минск, 2004. – С. 64.
4. Феофилова В.П. Особенности взаимодействия преподавателя и студентов при активном методе обучения. Л., 1983. – С. 112.
5. Комарова Ю.А. Основы формирования научно-исследовательской компетентности специалистов средствами иностранного языка: монография. – СПб.: Стратегия будущего, 2008. – С. 89.

Surayyo MUQIMOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

ONA TILI, ADABIYOT VA BOSHQA FANLAR INTEGRATSIYALASHGANDA

(O'zbek xalq maqollari tahlili asosida)

Ma'lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz'iy tushunchalar yig'indisidan tarkib topadi, degan qoida mavjud. Ona tili darslarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo'laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o'quvchi umumiy ta'rif, qoida va xulosalarga keladi. Falsafa fikrlash va rivojlanishga o'zaro uyg'unlikda qaraydi. Mantiqan olib qaralganda borliqdagi jamiki narsa va hodisalar bir-biri bilan tizim sifatida bog'liq. Bu esa bilish, anglash, tahlil qilishda fanlararo bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu bog'liqlik ularni baravar o'rganish va tadqiq qilishni talab etadi. Jumladan, maqollar adabiyot darsida ham, ona tili darsida ham o'rganiladi. Ona tili darslarida maqollar bir bosh bo'lakli gaplar tarkibida shaxsi umumlashgan gaplarni o'rganishda beriladi, shuningdek, to'liqsiz gaplarga keltiriladigan misollarda ham ko'pincha maqollarga murojaat qilinadi (*Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. Aql ko'pga yetkazadi, hunar – ko'kka. Do'st yuzidan bilinar, dushman – izidan. To'g'ri oshini yeydi, egri – boshini. Aytсам tilim kuyadi, aytmасam – dilim* kabi). Bundan tashqari, ona tili darsliklarida mashqlar tarkibining asosini tashkil etuvchi maqollar bo'limlararo (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va boshq.) integratsiyani ham hosil qiladi.

Maqollar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari mahsuli bo'lib, insonning hayotga, tabiatga, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy va falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Maqollar turli mavzularda, turli soha kishilari uchun mo'ljallangan. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos ifodasi natijasida yuzaga kelgan maqollar ixcham shakl, ammo teran ifodaga ega. Maqollardagi ma'no-mazmun, falsafiy qarashlar negizida boshqa fanlar, sohalarga doir qarashlar mavjudligini ko'rish mumkin. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "suv" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: *Suv vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz, shaffof suyuqlik; tabiatda muz va bug' holida ham uchraydi. Barcha tirik organizmlar va ko'pgina moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.* [2] Odamzod hayotining manbasi bo'lgan suv va uning ahamiyati haqida esa juda ko'p maqollar bor. Ona tili, adabiyot yoinki kimyo, fizika fani bo'lsin, o'quvchi suvning ana shu xususiyatlarini anglashi shu fanlarni yaxshi o'zlashtirish, tafakkur dunyosining bo'yishi, o'qitilayotgan fanlarning inson hayoti bilan bog'lanishiga zamin yaratadi. "Suv qatrası – dur qatrası" yoki "Suv keldi – dur keldi" kabi maqollarda bu ne'matning qadri aks etgan. Suv bilan tabiat jonlanadi, o'simliklar

nish uradi, yashashga oshiqadi, kuch-quvvatga kiradi, hayot jilvalanadi. Tirik jon tanasi (vazni)ning 70–72 foizi suvdan iborat. Yer yuzidagi suvning 97 foizi sho'r, faqat 3 foizi chuchuk. Shu 3% suvning 2 foizi muz, 1 foizi toza suv. Ana shu bir foiz chuchuk suv yerdagi eng noyob mineral hisoblanib, uning o'rnini bosuvchi birorta modda yo'q. Shuning uchun suv bejiz durga qiyoslanmagan. Suvning tabiatdagi ahamiyati va vazifasi sabab unga shunday baho berilgan.

Odamlarning astronomik va meteorologik kuzatishlari natijasida yaratilgan maqollarda fasllar va oylarning o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Albatta, bunday maqollarda mazkur fanlarga doir ilmiy asoslar mavjud. Jumladan:

Oy chiqishidan ma'lum, odam – yurishidan. Oyning "o'rog'i" tik bo'lsa, ob-havo qulay yoki chalqancha bo'lsa, noqulay keladi. *Oy chiqishidan ma'lum* deganda, shunga ishora qilingan. *Odamning yurishi* deganda, uning xulq-atvori, muomalasi, xatti-harakatlari, psixologiyasi nazarda tutiladi. Maqol chuqur falsafiy ahamiyatga ega. Inson shaxsi, uning jamiyatga foyda yoki zararini ifodalashda ushbu maqolda nihoyatda mohirona o'xshatishdan foydalanilgan.

"Qantal og'sa, qag' etar", "Javzo kirmay yoz bo'lmas, qavs kirmay qish bo'lmas" kabi maqollarni izohlashda, albatta, astronomik tahlil va bilim kerak bo'ladi. Astronomiya darsida esa osmon jismlaridan Oy yoki yulduzlar haqida tushuncha berish jarayonida ular bilan bog'liq maqollardan foydalanilsa, o'quvchilarda bir nechta fanning mazmun mohiyatini to'la anglash kompetensiyasi shakllanadi.

Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur. Bu maqol tulkining tilidan aytilgan. Tulki yog'ga o'ch bo'ladi. O'tmishda ovchilar uni tutish uchun qopqonni tuproqqa ko'mib, ustiga bir parcha dumba yog'i qo'yishgan. Tulki uni yemoqchi bo'lganda qopqonga ilingan. Ammo hamma tulklar ham osonlikcha qo'lga tushavermagan, chunki tulki boshqa hayvonlarga qaraganda ancha sezgir, ayyor va hushyor hayvon hisoblanadi. Mazkur maqol shu asosda yuzaga kelgan. Demak, maqolning falsafiy mazmuni asosida zoologiya fani bilan bog'liqlik mavjud.

Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. Jahonning ko'pgina xalqlari orasida tarqalgan bu maqol insoniyat tomonidan yaratilgan eng qadimiy maqollardan biridir. Ushbu maqol milodiy V asrdayoq lotin adibi va tilshunosi A.F.Makrobiyozning "Grammatika" asarida keltirilgan. Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, qarg'a-quzg'unlar odam yoki biror hayvonning ochiq yerda qolib ketgan

murdasini ko'rib qolsa, avval uning ko'zini, so'ng go'shti ni yeya boshlar ekan. Ammo tirik qarg'a va quzg'un o'lik qarg'a va quzg'unning ko'zini cho'qimas ekan. [3:484]

Maqolning majoziy ma'nosi: ba'zi zolim yoki yaramas kishilar boshqalarga har qancha jabr-sitam qilsalar ham, bir-birlarining yonlarini olib, qo'llab-quvvatlaydilar.

Har kim o'z aravasini o'zi tortadi. O'tmishda qo'rg'on va to'g'onlar qurilishiga hashar niqobi ostida butun aholi jalb qilingan. Bunda har bir mahalla yoki urug'ga ishning muayyan qismi taqsimlab berilgan. O'z navbatida, har bir kishiga ishning ma'lum bir ulushi tekkan va har kim o'z ulushini bajarmaguncha bu yerdan keta olmagan. Shuning uchun har kim o'z ulushini tezroq bajarishga harakat qilgan. Yuqoridagi maqol ana shundan qolgan bo'lib, "o'z aravangni o'zing tort, ya'ni o'zing uchun o'zing harakat qil", degan ma'noni o'zida mujassamlashtirgan. Majoziy ma'noda esa har kim o'z tirikchiligini o'zi o'tkazishi, o'z kam-ko'stini o'zi to'ldirishi, o'z zaruratini o'zi ta'minlashi lozimligiga da'vat qilingan. [3:512]

Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali

fikr vujudga keladi, fikrlash esa nutq holatida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi o'z tafakkurini rivojlantirmay turib og'zaki va yozma nutqni egallay olmaydi. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda esa bevosita fanlararo integratsiyaning ahamiyati juda katta.

Ona tili fanini o'qitishda nazariyani amaliyot bilan bog'lash uchun o'quvchilarning tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishlarini ta'minlash, ularda turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmani shakllantirish talab etiladi. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash ona tili o'qitishni foydali maqsadlarga burish, o'rganilayotgan til hodisalarini o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga bo'ysundirish, til ta'limi hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'lash demakdir.

Zero, til madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyati, til sohibini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. O'zME. – Toshkent, 2007.
3. Shomaqsudov Sh., Shonazarov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar



Dilnora TOLIBOVA,

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ingliz tili fani o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA O'QITISHNING INNOVATSION INTERFAOL METODLARI


Mavzularning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishida elektron darsliklar, slaydlar va interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Interfaol o'yinlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchining butun jarayon davomida faolligiga erishiladi. Quyida biz ana shunday interfaol usullarni siz aziz hamkasblar bilan baham ko'rishni maqsad qildik.

“Piramida” o'yini

Bu o'yinda piramida shaklida yasalgan, ichki qismiga narsalar qo'ysa bo'ladigan zinapoyali biror jihozdan foydalanish mumkin. Piramida 3 yoki 4 ta zinapoyadan iborat bo'lib, 5–6-sinflarda o'tilgan mavzularni takrorlashda qo'l keladi. Buning uchun zinalar qushlar, hayvonlar, hasharotlar yoki meva, sabzavot va poliz ekinlari bo'limlariga ajratiladi. O'quvchilar 2 guruhga bo'lindi. Har bir guruhdan navbati bilan 1 nafardan o'quvchi

chiqib, o'sha narsalarning o'yinchoq shaklini olib, ingliz tilida nomini aytib, to'g'ri bo'limga joylashtirishi kerak bo'ladi. Qaysi guruh tez va xatosiz topshiriqni bajarsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Bundan tashqari oddiy gaplar ham tuzishlari mumkin. Masalan: *It is a bear. It is a wild animal. It is a donkey. It is a domestic animal. It is a swallow. It is a bird. It is a bee. It is an insect.*






“Zinapoya” o'yini

Bu o'yinda savollar qog'ozga yozilib, uchburchak shakli ustiga (1-usuldagi piramida shaklidan ham foydalanish mumkin) zinama-zina qilib yopishtiriladi, savollar tepaga chiqqan sari qiyinlashib boraveradi. Darsni yaxshi o'zlashtirgan bilimdon o'quvchilar darrov saralanib qoladi. Masalan:

1. Where are you from?
2. What is your hobby?
3. What is your father's job?


Bu uskunadan archa sifatida foydalansa ham bo'ladi. Archa o'yinchoqlari va rangli chiroqlar ustiga o'quvchilar yangi yil tilaklari yoki savollar yozib yopishtirishlari mumkin.



“Harakatlantiriluvchi yog'och soat va fasllar tasviri”


Bunda qo'lda yasalgan harakatlantiriluvchi soatdan foydalanib, o'quvchilar ko'rsatkichlardagi vaqtni to'g'ri aytishlari, soatning uzun ko'rsatkichi qaysi faslda turgan bo'lsa, o'sha faslni tasvirlab berishlari kerak bo'ladi. Masalan:

It's half past ten. It's spring. It's the season when nature awakens from winter sleep: the ice melts, the grass begins to shoot, the trees burst into blossom. Spring comes in March and ends in May. In spring we can smell fresh air.



“Sehri maydoncha” o'yini

Bunda o'quvchilar 2 yoki 3 guruhga bo'linib, tizilib turishadi. Har bir guruhdan navbati bilan o'quvchilar chiqib, sonlar va harflar yozilgan aylana uskuna ustidagi ko'rsatkichni aylantirishadi. Ko'rsatkich qaysi songa to'g'ri kelsa, o'sha sonning inglizcha nomi hamda o'sha son to'g'risidagi harfga uchtadan so'z aytishi kerak bo'ladi. Qaysi guruh tez va to'g'ri javob bersa, o'sha guruh g'olib sanaladi. Masalan: 5 – five, E – elephant, egg, energy.




“Merganlar” o'yini

Ushbu usul o'quvchilarning aqliy qobiliyatini oshirish hamda sport sohasida merganlikni o'rganishda ham muhim. Bu o'yin o'quvchilarning zehni va chaqqonligini oshiradi.

Merganlik taxtasida 20 gacha bo'lgan raqam, 3 ta o'q va o'rtada kichik qizil aylana bor. 20 ta raqam ortiga 20 ta savol yashiringan. 3–4 metr yoki istalgan masofadan turib merganlik taxtasiga o'qlardan biri otiladi. Agar birinchi o'q merganlik taxtasining teng o'rtasiga

(qizil aylanaga) qadalsa, 5 ball beriladi va o'sha raqamdagidagi savol tanlanadi. Agar savolga to'g'ri javob berilsa, yana 5 ball qo'lga kiritiladi. Agar o'q teng o'rtadan chetlab ketsa, ball berilmaydi va o'sha raqamdagidagi savolga javob beriladi. Har bir o'quvchiga 3 marta imkon beriladi. Agar 3 ta o'q ham meraganlik taxtasiga tegmasa, 0 ball beriladi va ball yig'a olmaydi. Shu tariqa o'yin davom ettiriladi.




“Kiyimlar va fasllar” o'yini

Ushbu usul o'quvchining zehni o'tkirlashtiradi va ularni chaqqonlikka undaydi. Bunda qog'ozda chizilgan kiyimlar maketi kerak bo'ladi. Bu o'yinda o'quvchilar kiyimlarning inglizcha nomlanishi va fasllarni o'rganishadi. Masalan, *What do you wear in winter? I wear a coat, boots, trousers, a jumper and a hot cap in winter.* Bunga o'xshash savol va javoblar og'zaki, yozma bajarilishi yoki harakatlar orqali o'g'il bola yoki qiz bola maketini kiyintirib ko'rsatishi kerak. O'quvchi bu o'yinda zerikmaydi, o'yinda faol ishtirok etish uchun ko'proq so'z va gaplarni yodlashga harakat qiladi.




“So'z o'yini”

Bunda qog'ozlarga so'zlar yozilib, aylana shaklida pol ustiga terib chiqiladi. O'quvchilar aylana qilib terilgan qog'ozlar atrofida turib olishadi. Musiqa sadosi ostida raqsga tushishadi. Musiqa to'xtagach, o'quvchi qaysi so'z (masalan, *foods* (oziq-ovqatlar), *hobbies* (sevimli mashg'ulotlar), *wild animals* (yovvoyi hayvonlar) va h.k.) yonida to'xtasa, shunga oid 3 ta so'z aytishi kerak bo'ladi. Masalan, *Foods – egg, cream and milk. Wild animals – lion, tiger and fox.* Agar o'quvchi boshqalar aytgan so'zni aytsa yoki umuman so'z aytolmasa, o'yindan chiqib ketadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi.




“Savollar savati” o'yini

Bunda qog'ozdan yasalgan savat maketidan foydalanish mumkin. Unda gul yoki meva surati tushirilgan qog'oz bo'laklari orqasiga savollar yopishtirilgan bo'ladi. Har bir o'quvchi chiqib savol tanlab, unga javob berishi kerak. Javob berolmasa, ball ololmaydi. Boshqa o'quvchi shu savolga javob bersa, unga ball beriladi va u ham savol tanlaydi.



Men darsda ushbu usullardan va o'zim yozgan ertak hamda mavzuiy kitoblardan unumli foydalanishga harakat qilaman. O'quvchilar matnni kuzatgan holda ertaklarni tinglashadi va talaffuzlarini yaxshilashga harakat qilishadi, ertaklardan rollar ijro etishadi. Bu esa o'quvchilarning ingliz tilida erkin gaplashishlariga yordam beradi.





“BEHBUDIY AFANDI! YIG‘LAMANG...”

Mahmudxo‘ja Behbudiy zamondoshlari xotirasida

Turkiston jadidlarining ma'naviy otasi, taraqqiyparvar yoshlarning ustoz bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy haqida o'tgan asrning 20-yillari matbuotida Sadridin Ayniy, Saidrizo Alizoda, Hoji Muin, Vadud Mahmud, Abdulhamid Azamat, Abulqosim Azimiy, Laziz Azizzoda va Zavqiy singari ziyolilarning maqolalari, xotiralari chop etilgan. “Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari kim edi? Bu savolga javob bermak uchun gazeta sahifalari emas, jildlarcha kitob yozmoq kerak bo'ladur”, deb yozgan edi ma'rifatparvarning safdoshlaridan biri Sadridin Ayniy.

1919-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy sirli ravishda g'oyib bo'lgach, birinchilardan bo'lib samarqandlik ma'rifatparvar Hoji Muin surishtiruv ishlariga kirishadi. Uning “Mehnatkashlar tovushi” [1] va “Ishtirokiyun” [2] gazetalarida “Qadrnoshunoslik” maqolasi chop etiladi. U Behbudiy va yo'ldoshlarining daraksiz ketganliklarini, xalq orasida ularning qarshi begi tomonidan o'ldirilganligi haqida gap yurganligini, bu “to'g'rida xabar olaturg'on bir kishi ham yo'q”ligini yozar ekan, barchani oyoqqa turishga undaydi: “...Samarqand yoshlari o'z millatig'a 25 yil xizmat etgan muhtaram Mahmudxo'ja ila oning rafiqalarini zolim Buxoro hukumatining qo'lidan qutqarib olmoq va alarning bor-yo'qlaridan xabardor bo'lmoq uchun harakat etmadilar va etmaylar. Mana shunday taraqqiyparvar yoshlarni “qadrnoshunos” demay nima deylik?” [1]

Bu Behbudiy vafotidan keyin yozilgan dastlabki maqola edi.

1920-yilda Behbudiy hayoti va adabiy merosini o'rganish uchun yetti kishilik komissiya tuziladi. Komissiya a'zosi Sadridin Ayniy tomonidan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida “Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi” chop etildi. Xuddi shu yili Saidrizo Alizodaning “Motamzada” imzosi bilan tojik tilidagi “Shu'lai inqilob” jurnalida Behbudiyning qisqacha tarjimai holi bosilgan [3]. Garchi Sadridin Ayniy yozganlarini “mufassal tarjimai holig'a bir zamin”, deb izohlasada, bu biografik maqola Behbudiy tug'ilgan kundan, to o'limi tafsilotlarigacha yozilgan ishonchli manbalardan birinchisidir. Bu maqola Behbudiyning hayoti, faoliyati va o'limi borasidagi jumboqlarga oydinlik kiritishga yordam beradigan ma'lumotlarga ega. Unda davr tasviri, ayrim hodisalar va ularda Behbudiyning ishtiroki haqida so'z yuritilganki, bu maqola xuddi shu jihatlari bilan Hoji Muin yozgan tarjimai hollardan farqlanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi maqolalarning ba'zilarida 1919-yil 25-mart sanasi uning vafot etgan kuni, boshqalarida esa Samarqanddan chiqib ketgan vaqti deb ko'rsatilgan. Hoji Muin esa 25-martni Behbudiy va yo'ldoshlari shahid etilgan kun sifatida tilga oldi va har

yili mana shu kun munosabati bilan ustoz xotirasini yod etib, katta-kichik maqolalar yozib turdi. Ularda publitsist maorif va madaniyatga yigirma yilcha xizmat qilgan ulug' bir insonning xotirasini yolg'iz duoyi fотиha bilan xotirlash emas, balki madaniy millatlar kabi nomini abadiylashtirish lozimligi, buning uchun esa Behbudiyning mufassal tarjimai holi yozish, unga haykallar qo'yish, katta madaniy, ilmiy muassasalarga nomini berish lozimligini takror-takror yozadi.

Hoji Muin Behbudiy haqida yozar ekan, uni bilgan, suhbatida bo'lgan kishilardan ham xotiralar yozishni so'raydi. O'zi 1922-yilda Behbudiyning tarjimai holi yozishga kirishadi. Chunki “1921-yilda Samarqand taraqqiyparvarlari orasida bu tashabbus ko'rilgan bo'lsa-da, oxiri natijasiz qolg'on edi” [4]. “Turkiston” va “Zarafshon” gazetalarida bu borada e'lon berib “Behbudiy afandi kerak matbuot vositasi bilan va kerak Turkiston o'lkasining kattarak shaharlarida qilg'on sayohatlari bilan xalqimizga yangi fikrlar bergan va shuning bilan o'ziga ancha muxlislar paydo qilgan edi. O'z vaqtda uning bilan ko'rishib, uning fikr va qalamidan istifoda qilib turg'on kishilar ko'p bo'lsa kerak. Mana shunday kishilar Behbudiy afandi haqidagi o'z xotiralarini yozib yuborsalar, tarjimai hol risolasining oxirig'a ilova qilar edim. Xotiralarning 1923-yil yanvar oxirig'acha menga yetishmagi tegishdur”, deydi. [4]

Behbudiy tarjimai holi yozilishi zamondoshlarini ham quvontirdi. Bu xayrli ishni amalga oshirayotgan “Hoji Muin afandig'a” tashakkur izhor etildi [5]. Yuqoridagi xabardan ko'rinadiki, Hoji Muin Behbudiyning tarjimai holi yozish bilan birga zamondoshlari tomonidan yozilgan maqolalarni to'plab kitob chiqarish niyatida bo'lgan. U Behbudiyning qarindoshlari, ustozlari, tanish-bilishlari bilan suhbatlashadi, ko'p kishilarga murojaat qilib, to'plangan ma'lumotlarni takror tekshirib, so'ngra yozganlarini Samarqand maorifparvarlarining majlisida o'qib beradi. Mana shundan keyin uni chop ettirishga jazm qiladi. U to'plagan ma'lumotlari bilan tarjimai holi bir qismini “Zarafshon” gazetasi va “Uchqun” jurnalida chop ettiradi. Shu sababli ham bu ocherkka bugungi kunda ishonchli manba sifatida qaraladi.

Afsuski, tarjimai holi davomi gazetada ham, jurnalda ham chop etilmadi. Hoji Muinning yo'qolgan asarlari ro'yxatida “Behbudiyning tarjimai holi ga doir materiallar”i ham borligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu yo'qolish bejiz emas edi. Hoji Muin to'plagan materiallar 1920-yili “Mehnatkashlar tovushi”, 1923-yili “Zarafshon” gazetalarining to'la bir sonida e'lon qilingan bo'lsa, 1924–1925-yillar davomida esa matbuotda uning kichik bir maqolasidan boshqa narsa chop etilmadi. Zamonning

keyingi evrilishlari Hoji Muinni ham ustozlari haqida yozishdan to'xtatdi. Aslida, unga 1921-yildan turli tahdidlar qilinib boshlangan, "Maqolangizda Behbudiyning oti ko'p zikr qiling'on", deya yozgan narsalari chop etilmagan, hatto u millatchilikda ayblana boshlangan edi.

Zamondoshlari tomonidan yozilgan maqolalarda ma'rifatparvar bobomizning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatigina emas, yuksak insoniy fazilatlarini, barkamol shaxsiyatini haqida ham so'z yuritilgan.

Chunonchi, Hoji Muin "Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi" maqolasida uni shunday xotirlaydi: "Behbudiy afandi halim, ziyarak, g'oyat zakovatli va quvvayi hofizasi zo'r bo'ldig'idek, so'zga-da nihoyat darajada usta edi. U har so'ziga qanoatlantirmak uchun turli misollar kelturar, mavqeyi kelganda o'yoq va hadisdan dalillar ko'rsatar edi. Shuning uchun aning suhbatini g'oyat lazzatli va istifodali bo'lur edi. Aning suhbatida bo'lg'on kishi ruhlana, shodlana va aning oldindan aslo turg'usi kelmas edi".

Laziz Azizzoda ham o'z xotiralarida Behbudiyning bevosita shaxsiga xos ibratli fazilatlarini qalamga olgan: "Behbudiy irodasining kuchliligi, muomalada favqulodda ustaligi, dialiktligi, nazariyotchiligi'ni ila barobar amaliyotchiligi'ni, har ishni hayotdan olishlig'i va iqtisodg'a ahamiyat berishi ila o'z zamondoshlaridan ayrilib, o'ziga maxsus muhim bir o'run oladir. Ul o'zi Turkistonning eski madrasasidan chiqqan bir kishi bo'lg'on holda arab dorilfununlarini bitirib kelgan kishilarning qilmag'on xizmatlarini ado qilib ketdi".

Ta'kidlash joizki, "nazariyotchiligi'ni ila barobar amaliyotchiligi'ni" allomaning shaxsiy hayotida, oilasi turmushida ham ayon ko'rinib turgan. U taraqqiyotga erishgan millatlar yutug'ini ijobiy baholab, ko'p jihatdan ularga havas qilgan. To'ng'ich farzandi Ma'sudxo'jani gimnaziyada o'qitgan. Birinchilardan bo'lib ijtimoiy, maishiy yangiliklarni o'z hayotiga olib kirishga intilgan. Masalan, professor N.Karimovning yozishicha, "Samarqandlik jurnalistlar, yozuvchilar, teatr xodimlari va chor ma'murlari shahar kommutatoridan 290-raqamli manzilni so'rashlari bilan simning narigi tomonidan Behbudiy hazratlarining "Labbay" degan muborak ovozlari kelardi". Ya'ni, u o'z uyiga birinchilardan bo'lib telefon o'rnatib, undan unumli foydalangan.

Hoji Muinning yozishicha, Behbudiy taraqqiyotparvarlik harakatlari bilan tahdidlarga uchragan bo'lsa-da, raqiblariga birida matbuot orqali, birida yuzma-yuz tarzda munosib javob bergan. Javoblarida muxoliflari shaxsiga mutlaqo til tegizmagan holda diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor chinakam ziyolilarga xos vazminlikni saqlay bilgan. "Behbudiy afandi shaxsiy dushmanliqni xohlama va hech kimning shaxsig'a va shaxsiy ishlari ga til yetkuzmas edi", deb deb yozadi Hoji Muin, "o'shandog o'zini takfir va tahqir etaturg'on xasmlariga-da qar-

shi yomon va haqoratimiz so'zlar so'ylamas edi. Balki shunday so'zlarni eshitganda: "Zotan munday din va dunyodan xabarsiz kishilardan yaxshi so'zlarda kutmak abasdur", deb kular edi. "Munday takfirlarni yolg'uz men ko'rgan emas, balki o'tgan ulamo va ulug' kishilar ham o'z muosirlaridan shunday hujum va takfirlarni ko'rganlar", deb o'ziga tasalli berar edi. Behbudiy afandida yana bir xususiyat bor ediki, xasm va dushmanlari aning ketindan har qancha haqorat etsalar-da, aning huzuriga o'tirg'on-da hech bir behuda so'z ayta olmasdan, anga tamliq va madora etarg'a majbur bo'lalar edi. Behbudiy afandi har vaqt o'zining shaxsig'a tegib so'ylayturg'on xasmlariga: "Ajabo! Bular na uchun maning shaxsimg'a til yetkuzalar? Men o'zim yaxshimi-yomonmi har na bo'lsa-da, o'z millatimg'a zarar yetkuzmayman, balki xalqqa to'la va faol foyda yetkuzmak uchun qo'limdan kelganicha cholishaman", deya edi".

O'zining bilimi, taraqqiyotparvar g'oyalari, iste'dodi va salohiyatini millatning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi, jipslashishi yo'lga bag'ishlagan fidoyi ma'rifatparvar siymosi bir tarixiy voqea bayonida ham yorqin aks etgan. Turkistonga kelgan Ismoil Gasprinskiy bilan bo'lgan uchrashuv haqida Hoji Muin shunday yozadi: "Bir vaqt (1908-yilda) "Tarjumon" gazetasining muharriri Ismoilbek afandi G'aspirinskiy (25 yillik yubileysindan so'ng) Samarqandg'a kelganida Behbudiy afandi yig'lag'on holda ul zot ila quchoqlashib ko'rushub, "Bu kun sizning huzuringizga kelib suhbatingizdan istifoda qilaturg'on ziyolilarimiz yo'q", dedi. Ismoilbek afandi anga javoban: "Behbudiy afandi! Yig'lamang (majlisdagi kishilarga ishora qilib), mana bular ozmi? Yana sizlar tirishsangiz, oz bir fursatda millatga kerakli ko'b odamlar yetishdira olursiz", dedi".

"Behbudiy afandi! Yig'lamang..." Millat muhibiga bir taskin sifatida aytilgan bu so'zlar aslida uning jonkuyar qalbiga, beg'araz orzu-umidlarining ijobatiga ishora edi. Buyuk qalb egasining o'z millati taqdiri bilan bog'liq orzusi chinakam taraqqiyotparvar, ma'rifatparvar insonlarni tarbiyalash edi. Shu boisdan ham atrofidagi yoshlarga qarata "Bizga ikki turli kishi kerak. Biri diniy ilmlarni falsafalari ila komil bilaturg'on zotlar, ikkinchisi dunyoviy ilm ila hunarlarni yaxshi bilgan ziyolilar", deya ta'kidlashdan charchamagan.

Zamondoshlari xotiralarida Behbudiy "oliyshon ustod", "ko'kni yorub bezatgan quyosh", deya ulug'lanadi, "Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?", degan armon bilan eslanadi. Bu xotiralarda biz allomaning barkamol siymosini aniq-tiniq ko'ramiz. Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarida oldinga surilgan taraqqiyotparvar g'oyalardan esa millatparvar avlodlar tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy sarchashmalardan biri sifatida foydalanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoji Muin. Qadrnoshunoslik // Mehnatkashlar tovushi. 1919. 20-iyun.
2. Hoji Muin. Qadrnoshunoslik // Ishtirokiyun. 1919. 20-iyul.
3. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan odamzod. – Toshkent: Sharq, 1997. 211–213-betlar.
4. Hoji Muin. Behbudiy muxlislariga ochiq xat // Turkiston. 1922. 21-dekabr.
5. Bo'ronov Imomali. Tashakkur // Zarafshon. 1923. 12-yanvar.

Sarvara AKOBIROVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

G'AFUR G'ULOM IJODINING AMERIKADA O'RGANILISHI

O'zbek adabiyoti qadimdan G'arbiy Yevropa olimlari, sayyoh, geograf va tarixchilari diqqatini o'ziga tortib kelgan. Sharq mavzusi G'arbnig zabardast yozuvchilari – I.V.Gyote, F.M.Volter, J.Bayron, J.Vern, R.Kipling hamda ularning yevropalik va amerikalik izdoshlari P.Bak, E.Heminguey, A.L.Strong, A.Smedli, L.Hyuz, E.E.Kisha, Yu.Fuchik, L.Aragon va boshqa ko'pgina jahonda mashhur adabiyot namoyandalari ijodida muhim o'rin egallagan.

Jahon tarixida o'tgan asrning 30-yillari alohida o'rin tutadi. Bu davrda chet eldan yurtimizga kelayotgan yozuvchilar soni ortdi. Ular orasida yosh Lengston Hyuz (1902–1967) ham bor edi.

Lengston Hyuz – shoir, nosir, dramaturg va publitsist bo'lgan. U AQSHning Missuri shtatida tug'ilgan.

L.Hyuz 1932-yilning kuzida o'ttiz ikki kishidan iborat vakillar bilan sobiq Ittifoqqa keldi.

L.Hyuzning O'zbekistonga bag'ishlangan publitsistikasini ikki davrga ajratish mumkin. Birinchi davr o'z ichiga o'tgan asrning 30-yillarini oladi. U bu davrda olingan taassurotlar asosida sobiq Ittifoq va O'zbekiston haqida bir qator asarlar yaratdi. Ikkinchi davrning o'ziga xosligi shundan iboratki, XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o'zbek she'riyati, badiiy publitsistikasi, hajviy hikoyachiligi, yumoristik qissachiligi va tarjimachiligi rivojiga katta hissa qo'shgan G'afur G'ulomning "Turksib yo'llarida" she'rini ingliz tiliga tarjima qildi.

O'tgan asrning 30-yillarida yaratilgan asarlarda o'sha davr va xalq hayoti aks ettirilgan. G'.G'ulomning "Turksib yo'llarida" (1930) she'ri ham davr mahsulidir. Unda bir tomondan xalq turmushi o'tmishda faqat och-yalang'ochlikdan, xor-zorlikdan iborat edi, deb qora buyoqlarda tasvirlansa, ikkinchi tomondan, Turkiston-Sibir temir yo'li singari davr inshootlari qurilishi olqishlanadi.

Ma'lumki, mazkur she'r shoir zamondoshlarining ham, hozirgi tadqiqotchilarning ham e'tiborini jalb qilib keladi. Bunday e'tiborning asosida, albatta, she'rda ko'tarilgan mavzu emas, balki zamon tushunchasini asosiy emotsional mazmun darajasiga ko'targan shoirning badiiy mahorati yotadi. Zamon o'zida o'tmish xotiralarini, asoratlari va yutuqlarini mujassam etadi va, o'z navbatida, o'rnini yangi bir zamonga bo'shatib beradi. G'.G'ulom asarining mazmuni ham mana shu kontrastga qurilgan. Asarning har bir bandi refrenga aylanib qolgan quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Bu yo'llar

ko'p qadim yo'llardir...

L.Hyuzning inglizcha tarjimasida:

Very old

Immemorially old

Is this road.

Ko'rinib turganidek, L.Hyuz mazkur muqaddimani, ya'ni she'rning birinchi misralari mazmunini va ularning asarda tutgan o'rnini to'liq anglab yetgan va tarjimada aniq bera olgan. Ma'lumki, she'rning har bir bandi keltirilgan misralar bilan boshlanadi va ular asar g'oyasini o'quvchiga yetkazishda, o'quvchiga emotsional hissiy zavq berishda alohida o'rin egallaydi.

She'r kompozitsion jihatdan ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismida shoir tarix sahifalarini varaqlab, yaqin va uzoq o'tmish tasvirini yaratadi, sharq-u g'arbni, shimol-u janubni ulagan cheksiz-poyonsiz va kimsasiz yo'ldagi shamolning uvillashini, dovullar guldirashini, otlarning dupur-dupuri va chang-to'zonini, do'mbiralarning urishi va shamshirlarning jarangini chizadi. Mana shu yo'llardan turfa toifa insonlar turfa sabablar bilan: kim "non deya", kim "qon deya", kim "qurbon deya" va yana kimlar "nom uchun, shon uchun" daydib yuribdilar. Bularning hammasi "faqat bir tushday yo tutun-xayolday kechmishdir".

She'rning ikkinchi qismining ohangi o'zgacha – endi bu yo'llar, shu qadim yo'llar yangi, baxtli hayotga boshlaydi, ularning ustidan "ozodlik shamoli esadi". Shoir Turkiston-Sibir temir yo'li singari davr inshootlari qurilishini olqishlaydi.

"Turksib yo'llarida" she'ri uslubi va ohangi jihatidan V.Mayakovskiyning she'rlari tuzilishiga o'xshab ketadi. Biroq G'.G'ulomning "Turksib yo'llarida" she'ri shoir o'tmishga yuksak balandlikdan, o'z zamonasi balandligidan nazar solgan o'zbek she'riyatidagi dastlabki asar edi. Keyinchalik, bu adabiy kashfiyotdan ko'plab shoirlar foydalanishdi.

L.Hyuz tarjimasiga kelsak, asar ingliz tiliga mohirona o'girilgan, tarjimon asliyatning ruhi va mazmunini tarjimada aniq berishga muvaffaq bo'lgan, zero uning o'zi Turksib bunyod bo'lishining shohidi bo'lgan. Asar G'.G'ulomning bevosita yordamida ingliz tiliga tarjima qilingan – shoir she'rni L.Hyuzga o'qib bergan, bu esa tarjimonga asar mazmunini, ohangi, qofiyasi va, ayniqsa, ruhini to'g'ri anglab yetishda juda qo'l kelgan. Ingliz tilida:

Very old,

Immemorially old

Is this road.

Here Iskander, the bold,

And blood-thirsty Chengiz,

And Chu Chin, tiger souled,

And Timur, –

All have come like a flood,

Wildly lusting for blood.

Like a tempest they sped,

*Sabres raised overhead,
Laying waste
All the lands by their warfare enthralled.*

Asliyatda:

*Bu yo'llar
ko'p qadim yo'llardir...
Jahonning fотиhi Iskandar,
Rum qaysari,
qotil Chingiz,
Botu, Jo'ji,
Temurlang
qoldirib kimsasiz iz.
Chindan mo'g'ul o'chi
borliqni
jonliga qilib tang,
Qon! – deya,
– Qon! – deya,
bosaroq kechmishdir.*

L.Hyuz tarjimada oq she'r an'analarini davom ettirib, asliyot vaznini to'liq saqlashga erishgan.

O'zbek shoiri G'afur G'ulom va amerikalik shoir hamda tarjimon L.Hyuzning ijodiy hamkorligi natijasida amerika-o'zbek adabiy aloqalariga asos solindi.

AQSHda 20 jildlik sobiq sovet adabiyoti qomusi nashr qilindi.

Sharq o'zining boy tarixi va madaniyati bilan turli mamlakatlardagi yozuvchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Bu Sharqning G'arbdan ko'p jihatdan farq qilishi bilangina emas, balki boy ma'naviy-axloqiy salohiyati bilan ham bog'liq. Shu narsa qalam ahlini katta kuch bilan ijodga undayveradi. Noyob hodisa bo'lgan Sharq Uyg'onish davri ijodkorlarni hali uzoq yillar ilhomlantiraverishi aniq.

O'zbekiston o'z tarixi va madaniyati bilan ko'pgina yozuvchilar e'tiborini tortganligi va tortayotganligini ko'rsatish, bizda nafaqat ona Vatanimiz, balki G'arb madaniyatini ham chuqur hurmat qilish tuyg'ularini shakllantiradi, bu kishilarimizni umuminsoniylik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, ilm ahlini o'tmish madaniy merosimizni faol o'rganishga chorlaydi.

Khamidilla UMAROV,

senior lecturer at the Customs Institute of the State
Customs Committee of the Republic of Uzbekistan

THE PROBLEM OF “FATHERS” AND “CHILDREN” IN THE WORKS BY I.S. TURGENEV AND WILLIAM THACKERAY

The year 2020 has been declared the “Year of development of science, education and the digital economy” in Uzbekistan. This sets certain tasks for all members of society. In a rapidly developing world, it is necessary to know computer technologies and use them. As a result of the worldwide pandemic, many organizations are forced to work remotely. To carry out remote activities, employees of organizations need computer skills, the ability to use the achievements of information and communication technology.

It must be said that many and many were only superficially familiar with the possibilities of ICT, only at the level that their activities require. But remote activity required more from them. And then many parents came to the aid of their children, who had much more knowledge and skills in the field of communication technologies. As a result, the younger generation came to the aid of the older one: the older generation began to teach. Adults who scolded their children for spending too much time on computers and gadgets realized how important knowledge in this area is.

The problem of “fathers and children” has been, is and will be relevant at all times, and it affects all generations. There has always been a conflict between fathers and children. This topic is very global and is only part of the endless natural struggle of the old with the new,

from which the new does not always come out victorious. Unfortunately, it is difficult to say whether this is good or bad. Each person receives initial knowledge about life, about the relationship between family members from their parents. Therefore, the relationship in the family, the relationship between parents and children depends on how a person will treat other people in the future, what moral principles he will choose for himself, what will be the most important and Holy for him.

The conflict of generations is that the older generation teaches the younger “how to live”, while not forgetting to impose their opinions on them, trying to pass on their accumulated experience. As a result, there are differences between representatives of different generations in their views on certain things and problems. It is worth mentioning that not only parents are able to teach their children something, but often children can give a lot to their parents.

This problem was raised not only in English, but also in Russian literature. Authors approach this eternal problem in different ways. In Russian literature, the problem of fathers and children was raised by I.S. Turgenev in the novel “Fathers and children”. The very title of the novel “Fathers and children” shows that this theme is the most important in the work. In addition, this problem exists in almost all works of literature: in some it is presented more

vividly, in others there are only hints for a more complete disclosure of the image of the hero. It is difficult to say exactly who first raised the issue of fathers and children. It is so vital that it seems to have always existed on the pages of literary works. It is important to note that the problem of fathers and children includes a number of important moral problems. This is also a problem of education, gratitude and ingratitude, and lack of understanding between generations. These questions are raised in various works, and each author tries to look at them and solve them in their own way.

The history of the creation of "Fathers and children" is quite fascinating. In 1860, when Turgenev was in England, the first ideas of the novel appeared. It so happened that Ivan Sergeevich had to spend the whole night at the railway station, where he met a young doctor. The writer and his new friend talked all night, it was the ideas of his interlocutor that Ivan Sergeevich put into the speech of his future main character of the novel – Bazarov.

Family relationships are not the most important thing in the novel "Fathers and children". Fathers and children are adherents of new and old views, who judge events from their own point of view, and the course of life depends on the conflicts of these worldviews. This is a new type of person who is emerging in society, thinks progressive, has firm and resolute beliefs, and calls for the destruction of the old. Bazarov is a typical representative of the new generation that denies the old world. Bazarov's antagonist is Pavel Kirsanov. Kirsanov is an ardent follower of old views, a hereditary nobleman. Patriarchal principles are close and clear to him, he sees the meaning of life in them and tries to conform to his beliefs.

The socio-ideological direction of the novel, the struggle of opposing views, ideological disagreement, different perceptions of the world - all this reflects the disputes between Bazarov and Pavel Kirsanov. All this leads to a lack of understanding of each other and, of course, to the complete opposite of their opinions.

In Ivan Sergeevich's novel, a new type of person is defined, a nihilist (a person who denies generally accepted values, ideals, moral and cultural norms, and does not recognize any authorities.) This is a new trend of the mid-nineteenth century, which was the most important event of that era.

When you think about this problem, you remember the English proverb: "As a tree as a fruit". Although this proverb contains the truth, sometimes the opposite is true. And then there is the problem of misunderstanding. Parents do not understand children, and children, in turn, parents. Parents impose their morals and principles of life on their children, and children do not want to accept them, but they cannot and do not always want to resist. Such is the merchant Kabanikha from Ostrovsky's "Thunderstorm". She constantly imposes her opinion on children, orders them to do only what she wants. Kabanikha did not give a normal life to his son Tikhon and his wife, Catherine. The result was irreparable.

The problem of "fathers and children" is a deeply moral problem, so it is relevant at all times. Everything that is sacred to a person is passed on to him from his parents. The progress of society and its development creates disagreements between the older and younger generations.

In addition to the so-called "age gap", there are several reasons for the problem of "fathers" and "children", and they are rather on a psychological level. Regardless of the change of historical epochs, the development of social spheres and society, these reasons will exist at all times. These reasons are the "early adulthood" of young people and the conflict of interests between children and parents. At all times, young people have considered themselves old enough to solve any problems on their own, but for parents, their children will always remain young inexperienced children, who, as before, need to be protected from the evil influence that takes place in society. To warn their child against the "bad influence of society", parents conduct various kinds of conversations, which are often presented as instructions, and children usually reject this solution to the conflict, because they believe that they are already old enough. Young people want to solve problems on their own and take responsibility for them. It is possible that they may make the wrong decision, but it is necessary to take into account and understand that it is largely due to mistakes that young people gain life experience. Therefore, the solution to the problem on a psychological level should come from both generations. In our opinion, parents should change the form of conversation and their attitude to their child, show that they do not intend to block his path in his affairs, but on the contrary are ready to support, help in anything. And the child should understand that parents are primarily concerned about his well-being, and not so much violate his personal space.

The famous French writer Andre Maurois wrote: "The art of aging is to be a support for the young, not an obstacle, a teacher, not a rival, understanding, not indifferent."

Let's see how the above problem is solved in English literature. The master of the realistic novel, William Thackeray (he was only 7 years older than I.S. Turgenev, and this fact makes it safe to say that both of them were people of the same era, the same generation) in his own way approached the problem of fathers and children. In the work of William Thackeray, psychologism has a domestic orientation and is inextricably linked with the study of the family. The works highlight the features of the relationship between generations. The problem of intergenerational relations in the family arose and developed in Thackeray's work under the influence of Shakespeare's tragedy "King Lear". In an early story "In a noble family" (1840), the writer compared the three sisters to Regan, Goneril, and Cordelia, and in "vanity Fair", Lord Stein, referring to his daughters, noted that they are cheerful, like Regan and Goneril. Thackeray in the early 1840s considered paternal tyranny the main aspect of the tragic relationship of generations in the family, but as his own daughters grew older, the writer began to think more deeply about the reasons for the black ingratitude that beloved children can respond to their parents. Under the influence of Shakespeare's works, the writer revealed in the pages of vanity Fair the tragedy of Emilia, who was betrayed by a selfish son. It is worth noting that the work of W. Thackeray was greatly influenced by the novels of S. Richardson, in whose works the blame for the fate of young heroes was placed on the representatives of the older generation.

When Thackeray wrote the *Story of Pendennis*, he portrayed a self-sacrificing mother who saw the meaning of life in the happiness of her only son, who took her sacrifices for granted and graciously allowed herself to be loved. The most sympathetic in his love for his son is the charming Colonel Newcome in *The Newcomes*. The Colonel is proud of his child, who, in turn, pays him the same strong love, is able to appreciate all the greatness of the father's sacrifices and is ready to sacrifice himself for the father.

The theme of "fathers and children" received the most vivid expression and became one of the leading ones in "Virginians", written in the best national traditions of family and domestic romance. For Colonel Lambert, the main business of his life is the happiness of his children. Speaking of daughters, he emphasizes that their presence in the parental home after reaching the age of marriage pleases him and does not burden him at all. He is even afraid of the time when the children will leave their home. For Lambert, who is thinking about the future of his daughters, the concept of a happy marriage is not associated with the acquisition of wealth. For him, the main thing is not wealth, but morality. Therefore, in the first place, Lambert puts the moral and mental qualities of people and the prospective suitors of his daughters on this principle, not in the spirit of the time. Great is the affection of the Lambert sisters for their parents, from whom the girls have no secrets, because they always know that their problems will be treated very carefully and help them find answers to their questions.

In "The Adventures of Philip" he shows the harsh attitude of parents to their children. Dr. Firmin is simply a parasite on his own child, first ruining it, and then extracting from it the little money that Philip manages to earn. It is not without reason that Thackeray compares Firmin to a Highwayman, even more immoral and cruel, since he robs his own son, not wanting to be responsible for his future fate.

Having analyzed the works of Thackeray, we can conclude that not always good is answered with good, and evil with evil. Children who have been neglected and abused by their parents can purify their souls in suffering and become worthy people. And children, spoiled by forgiving love, can easily lose many of their positive moral qualities inherent in their nature. Thackeray showed more than once that beloved children are often very selfish. The dying father of Arthur Pendennis was whispering the name of his favourite. Meanwhile, the sight of his father on his deathbed did not cause Pendennis Junior, who was old enough to understand what was happening, any anxiety, worry, sadness: the spoiled boy was only glad that he would no longer have to go to school, where he was not assigned by his own will, but by the will of his father and against the wishes of his mother.

Parents in Thackeray's novels can be divided into two groups: suppressing their children or giving them complete freedom of choice and at the same time setting them a good example. Only the Lamberts ("Virginians") can be unconditionally assigned to the second group – the ideal one. All parents, with the exception of rare cases (the Gunn couple, Dr. Firmin), dream of a bright future for their children. However, according to Thackeray, a harmoniously developed personality can only be formed at a distance from society, out of contact with the world, in the wilderness of some estate like Oakhurst or Farrox. Where the family is involved in society, kinship feelings are inevitably affected by its corrupting influence, and distortions of this kind become especially noticeable in the historical perspective, when the older generations methodically impose on the younger the vainglorious ancestral ambitions.

William Thackeray, considering the variety of forms of human behaviour in society and the family, came to the conclusion that there are several types of social behaviour. The first type is typical for people who adequately perceive the world around them. Perfectly adapted to life according to the laws of society, they easily make moral compromises and are able to justify any of their actions (Becky sharp, "vanity Fair"; Barnes, "Newcomes"; Eugene Castlewood, "Virginians", etc.). The second type is inherent in those who soberly assess the reality, but, unfortunately, are not able to come to terms with it. They tend to want to find a place in life that will allow them to live according to the dictates of their honest hearts (Henry Esmond; Philip Firmin; George Warrington, "the History of Pendennis"). The third type could be attributed to heroes who perceive reality inadequately. They have illusions about the good order of the world and do not notice that evil reigns in society. Some create these illusions themselves, while others succumb to suggestions from the outside that impose on them other people's, usually parental, illusions. The Newcome father and son are a classic pair illustrating this type. It is easier for people like them to live in the world, but only as long as they do not encounter anything that mercilessly destroys their illusions. In a life not isolated from public relations, this is almost inevitable. It is the persons belonging to the third behavioral type who are subjected to the most severe psychological break and, having seen the light, come to a categorical denial of reality, i.e. they accept the second type of behaviour.

Thus, from all the above, we can conclude that the problem of "fathers" and "children" has always generated not only a lot of disputes and contradictions, but also a lot of ways to solve it. The topic of intra-family relations has been, remains and will be relevant at all times.

References

1. Tarasenko D.N., Lekatsa A.N. The problem of "fathers" and "children" in modern society // International journal of experimental education. – 2015, No.11–6. – pp. 962–963.
2. Source: Gorbunov A.M. Panorama of centuries: foreign artistic prose from the beginning to the 20th century. – Moscow: kn. Palata, 1991.
3. Source: <http://19v-euro-lit.niv.ru/19v-euro-lit/articles-eng/tekkerej.htm>
4. History of Western European literature. 19th century: England: textbook for students of philological faculties of higher educational institutions / L.V. Sidorchenko, I.I. Burova, A.A. Astvatsaturov, etc. – Saint Petersburg: SPBU, 2004.



Nilufar ACHILOVA,
 Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
 universiteti nemis tili o'qituvchisi

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIZMLAR VA ULARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Tilning lug'at tarkibida xuddi so'z singari tanlab ishlatish mumkin bo'lgan, shu tilda so'zlashuvchi har bir kishining xotirasida bir butun holda saqlanadigan "dili siyoh bo'lmoq", "nog'orasiga o'ynamoq", "ishongan tog'i bo'lmoq", "til biriktirmoq", "obro'si ko'tarilmoq", "ko'ngli xira bo'ldi", "tomdan tarasha tushganday", "yostiqdan bosh ko'tarmoq" kabi minglab iboralar mavjud. Bu tipdagi iboralar frazeologizmlar, ularni o'rganadigan soha esa frazeologiya deb ataladi. Frazeologik iboralar, ya'ni frazeologizmlar, birinchidan, tilda uzoq vaqt bir qolipda ishlatilaverib, bo'linmaydigan "bir butun" holga kelib qolgan bo'ladi. Ikkinchidan, ibora tarkibida eng kamida ikkita so'z qatnashadi. Uchinchidan, ibora yoki uning bir qismi, ko'pincha, ko'chma ma'noda bo'lgani uchun obrazlilikka boy bo'ladi.

Muayyan tilni mukammal o'rganishda undagi frazeologik birliklarni yaxshi bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero tildagi frazeologik birliklar har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar, psixologiyasi, turmush tarzi, mentaliteti kabilar bilan chambarchas bog'liqdir. "Tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokozalar mujassamlashgan", deb yozadi V.A.Maslova. [1]

Nemis tilida frazeologizmlarning xususiyatlari o'rganilganda, ularning ilmiy tasnifi semantik, struktural va funksional nuqtayi nazardan murakkabligi bilan izohlanadi. Shu sababli ham frazeologizmlar struktural-semantik, semantik, stilistik, kompleks, gapdagi sintaktik funksiyasi va boshqa prinsiplar asosida tasnif qilib kelingan. Akademik V.Vinogradovning rus tili frazeologizmlari asosida yaratgan semantik tasnifi ko'plab tillardagi turg'un birliklar tasnifini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Olim yaratgan tasnif vositasida frazeologizmlarning boshqa tillarda ham uch guruhi mavjudligi isbotlandi. U nemis va o'zbek tili frazeologiyasiga ham tatbiq etilib, quyidagicha tasniflangan:

1. *Phraseologische Zusammenbildungen* – frazeologik chatishmalar;
2. *Phraseologische Einheit* – frazeologik birliklar;
3. *Phraseologische Verbindungen* – frazeologik qo'shimcha (birikma).

Frazeologizmlarning 1-turi (frazeologik chatishmalar) da ibora butun holda ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ammo uning ma'no tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan o'zaro bog'lanmaydi. Masalan, "o'takasi yorildi" iborasi butun holda ko'chma – "qattiq qo'rqdi" ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ibora tarkibidagi "o'taka(si) yorildi" so'zlarning na real, na ko'chma ma'nolari bilan bog'liq emas. Xuddi shu singari "yuzi shuvut bo'ldi" iborasi bir butun holda "uyaldi" ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ham iboralar tarkibidagi "yuzi shuvut" so'zlarining ma'nolari bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Nemis tilida: *aus dem Stegreif* (sprechen) – ohne Vorbereitung; durch die Lappen gehen (entwischen); an jemandem, an etwas einen Narren gefressen haben (für jemanden, für etwas stark eingenommen sein).

Frazeologizmlarning 2-turi (frazeologik birliklar)da ibora butun holda ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ammo ibora anglatishi mumkin bo'lgan ma'no uning tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan ma'lum darajada bog'langan bo'ladi. Masalan, "oralaridan qil o'tmaydi", "tepa sochi tikka bo'ldi", "og'zi qulog'iga yetdi", "pashshadan fil yasamoq" va boshqalar. Bunday iboralarda mubolag'a, o'xshatish kabi tasviriy vositalarning qo'llanishi ularning obrazlilikini, ta'sirchanligini oshiradi. Bu turdagi iboralarda so'zlar orasidagi grammatik aloqa sezilib tursa-da, ular gap bo'laklariga ajralmaydi, balki butun holda bitta sintaktik vazifa bajaradi. Masalan, nemis tilida *große Augen machen* (staunen), *auf die Beine kommen* (genesen oder in bessere Verhältnisse kommen).

Frazeologizmlarning 3-turi – frazeologik qo'shimcha ko'pincha ikki so'zdan, ba'zan undan ortiq so'zlardan ham tarkib topadi. Frazeologik qo'shimcha tarkibidagi bir yoki ikki so'z ko'chma ma'noda qo'llanib, boshqasi o'z leksik ma'nosini saqlagan bo'ladi. Ko'chma ma'noni ifoda etgan element yolg'iz o'zi kelganda ko'chma ma'nolilik xususiyatini yo'qotib, o'z asl ma'nosini bildiradi. Masalan, *gap tashlamoq*, *gap otmoq* (gap – o'z ma'nosida; tashlamoq, otmoq – ko'chma ma'noda); *mehri tushdi* (mehr – o'z ma'nosida; tushdi – ko'chma ma'noda); *oyog'i tortmadi* (oyog – o'z ma'nosida; tortmadi – ko'chma ma'noda).

Bundan ma'lum bo'ladiki, frazeologik qo'shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko'chma ma'no butun bog'lanmadagi so'zlarga bog'langan holda yuzaga chiqadi. Shunday qilib, tarkibidagi so'zlardan biri yo ikkitasining ko'chma ma'nosiga asoslangan va bog'lanmadagi barcha so'zlarga xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qolgan iboralar frazeologik qo'shilma deb ataladi. [2] Nemis tilida: z.B. zum Ausdruck bringen. In dieser Wortverbindung ist das Verb bringen metaphorisch umgedeutet, das Substantiv Ausdruck bewahrt seine eigentliche Bedeutung, das Ganze aber bedeutet "ausdrücken". Hierher gehören auch nicht in Frage kommen (nicht wichtig sein), in Gefahr schweben (in Gefahr sein) usw. Steine in den Weg werfen (rollen, legen); Achtung haben (genießen). O'zbek tilida: g'ashiga (ko'ngliga) tegmoq, tosh (gap) otmoq kabi.

Har bir tilning jozibadorligi va boyligi undagi frazeologik birliklar, maqollar va turli iboralar bilan belgilanadi. Til o'rganishda o'sha tilning o'ziga xos jozibadorligidan foydalanish, undagi boy imkoniyatlarni kundalik hayotimizda tatbiq etish yosh avlodni o'z tilini va boshqa xorijiy tillarni mukammal o'rganishida foydadan xoli bo'lmaydi.

Keyingi yillarda, ayniqsa, yoshlar og'zaki nutqda ham yozishda ham frazeologik birliklar, maqollar va turli iboralardan juda kam foydalanishmoqda. Badiiy adabiyotlarni kam o'qish, ko'pincha, Internetdan foydalanish va undagi oddiy va qisqa matnlarni o'qish buning asosiy sababi hisoblanaadi. Chet til darsliklarida ham frazeologik birliklar, maqollar va turli iboralardan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratil-

magan. Bu holni o'zbek tilida ham nemis tilida ham kuzatish mumkin. Germaniyalik talabalar bilan suhbatlashilganda ular ham frazeologik birliklar va maqollardan kam foydalanishi va ko'plarini bilmasligi aniqlandi. Shu sababli Germaniyaning til o'rgatish saytlarida frazeologik birliklar, maqollar va turli iboralarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yangi avlod nemis tili darsliklarida ham frazeologik birliklarni oddiy misollar bilan tushuntirish, yosh avlodning ushbu birliklarni tilida saqlab qolishiga yo'naltirish holatlari kuzatiladi. Jumladan, nemis tilini o'rganish

uchun tayyorlangan "Schritte plus neu" A2.1 darajadagi darslikda iboralar va frazeologik birliklardan sarlavha sifatida keng qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, 1-bo'limning "Aller Anfang ist schwer" nomli sarlavhasi bizning tilimizdagi "Ko'z qo'rqoq – qo'l botir" maqoliga to'g'ri keladi, yoki "Übung macht den Meister!" iborasi "Sen ishdan qo'rqma, ish sendan qo'rqsin" iborasiga yoki "Takrorlash bilimning otasidir", degan maqolga to'g'ri keladi. Til o'rganuvchi sarlavha ostida berilgan mashqlar orqali iboraning ma'nosini yanada yaxshiroq tushunadi va xotirasida uzoq saqlanishiga zamin yaratadi.

Jasur ESHKUVATOV,
mustaqil tadqiqotchi

O'ZBEK NASRI ANIMALISTIK SEMANTIKASI MASALASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Barcha davrlar adabiyotida ramziy-majoziy tasvirlar, hayvonlar, qushlar obrazlari orqali voqelikka munosabat bildirish, shaxsga xos xarakter xususiyatlarini ularda jonlantirish va shu jarayonda o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon adabiyotida bunday asarlar yaratish alohida an'anaga aylangan. Ko'pgina tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, antik dunyoda badiiy adabiyotda jonivorlarni tasvirlashning ma'lum bir mezonini, ma'lum bir qolipi paydo bo'ldi.

Animalistika (animalizm) – tasviriy san'at janri. Unda asosiy obyekt hayvonlar bo'lib, haykaltaroshlik, fotografiya, grafika amaliy-dekorativ san'atda bosh obraz hisoblanadi. Animalistika janr sifatida tabiiylik va badiiylikni teng qamrab oladi. Bu janrdagi asarlarda jonivorlar, avvalo, tabiatdan qanday bo'lsa, shunday aniqlikda tasvirlanib, xuddi ertak va masallarda uchraydigan odamlarga xos xarakter, harakatlar singdirilishi unda badiiy obrazlilik jihatini namoyon etadi.

Badiiy adabiyotdagi hayvonlar obrazi, insonlar va hayvonlar o'rtasidagi munosabatlar, jonivorlarning insonlar hayotida tutgan o'rni jahon adabiyotida yangilik emas. Animalistik adabiyot uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan janrlardan biri sanaladi. O'zbek adabiyotida ham ushbu janrda bir qancha asarlar yaratilgan. Jumladan, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom", Normurod Norqobilovning "Dasht-u dalalarda" asarlaridagi ot, bo'ri kabi hayvonlarning takrorlanmas obrazlari xuddi shu janrdagi asarlarga misol bo'la oladi.

Keyingi yillarda o'zbek nasrida faol ijod qilib kelayotgan, badiiy adabiyotda odam, tabiat, hayvoniy olamning o'zaro murakkab munosabatlarini muqoyasalar asnosida aks ettirishga intilayotgan ijodkorlardan biri Normurod Norqobilov asarlaridagi it va bo'rilar jahon adabiyotida yaratilgan qarindoshlaridan tamomila farq qiladi. Ularga milliy bo'yoq va ruh singdirilgan. Hayvonot olamining o'ziga xos psixologik holatini adib "Ovul oralagan bo'ri" qissasidagi Cho'ngkalla timsoli orqali ishonarli ocha olgan. Qishloqning maqtanchoq ovchisi Salom mergan tasodifan qopqonga ilinib qolgan urg'ochi bo'ri Oqyolni uyiga olib kelib tulimlab qo'ydi. Juftini yo'qotgan Cho'ngkalla bir necha kun Salom merganning uyiga kelib (bu yerda adib bo'rining hid bilish qobiliyatiga urg'u beradi) Oqyolni qidiradi.

Merganni chavaqlab, juft-halolini qutqarish niyatida uchinchi marta kelgan Cho'ngkalla Oqyolning oyoqlari ostida yot-

gan Salom merganni ko'rib, uning jufti tomonidan "mahv etildi" deb bildi. Shuning uchun bemalol borib Oqyolni hidladi, biroq undan achchiq somon hidi anqidi. Keyin "erkalanib tumshug'i bilan yengil bir turti. Oqyol bir qop somonday ag'darilib tushdi". Jonsiz tanaga aylangan juftining o'limidan tamomila gangib qolgan Cho'ngkalla merganning uyg'onib ketganini va qo'rquv ostida o'q otganini sezmay qoldi. Arang qochib qutulgan Cho'ngkalla ayriliqqa chidolmay qirning baland tepaligida Salom merganning uyiga tikilganicha jon berdi.

Cho'ngkalla timsolida yozuvchi nafaqat hayvonlar, balki insonlar uchun ham zarur bo'lgan mardlik, halollik, sabr-toqat, sadoqat, chidam, kuch, qudrat singari mukammal va, o'z navbatida, undagi kamchilik va xatolarni keltirib chiqaruvchi nafaqat inson, balki hayvonlarni ham yomon ahvolga solib, oxir oqibatda yo'qlikka mahkum qilar darajadagi sifatlarni ham aniq namoyon qilishga harakat qilgan.

Xo'sh, odam bolasi o'z ne'matlarini mo'l-ko'l hadya etayotgan tabiatga mehr-muhabbat bilan qaraydimi yoki undan o'ch olish uchun yashaydimi? Undan gina qilsa, alamini olish uchun zarar yetkazsa, oqibati nima bo'ladi? Bular adabiyotning azaliy muammosi bo'lib kelgan va ijod ahli u yoki bu darajada munosabat bildirgan. Normurod Norqobilov ana shunday ijod ahlidan biridir. Shuning uchun bo'lsa kerak uning asarlarini mutolaa qilish jarayonida o'quvchi dasht-u dalalar, tog'-u toshlarning jozibali sehrini his qiladi, o't-o'lanlarning hidini sezadi, turli jonivorlar bilan suhbatlashadi. Normurod Norqobilov jonli tabiatni ilmiy tomondan ham yaxshi o'zlashtirgan. U o'z asarlaridagi daraxtlar, qirlar, adirlar, hayvonlar obrazini mehr bilan tasvirlaydi.

Hatto it, bo'ri kabi jonivorlarning o'ziga xos xarakteri, psixologik holatlarini ham chuqur tahlil qiladi. Bu obrazlar adibning deyarli barcha asarlarida uchraydi, biroq bir-biriga o'xshamaydi.

Jahon folklorshunosligida turli sujetlar genezisi va badiiy evolutsiyasini o'rganish hamda yozma adabiyot namunalari bilan qiyoslash jarayoni animalistik adabiyot taraqqiyotini tasavvur etish imkonini beradi. Natijada ushbu janrda taraqqiyotining turli davrlarga xos tipologik xususiyatlarini o'zida ifoda etgan jihatlari aniqlanadi. Bu, tabiiyki, ushbu yo'nalishda izchil tadqiqotlar yaratilishi lozimligidan dalolat beradi.



Feruza MAMATOVA,

 Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
 xorijiy filologiya fakulteti mustaqil izlanuvchisi

LISONIY STEREOTIPLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada lisoniy stereotiplarning kelib chiqish omili, tilda aks etishi va milliy madaniyatni ifoda etishdagi o'rmi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, stereotip, til va madaniyat, milliy madaniyat, lisoniy stereotip.

Annotation. The article discusses the origin of linguistic stereotypes, their reflection in language and their role in expressing national culture.

Key words: linguistic image of the world, stereotype, language and culture, national culture, linguistic stereotype.

Аннотация. В статье обсуждаются происхождение языковых стереотипов, их отражение в языке и роль в выражении национальной культуры.

Ключевые слова: языковая картина мира, стереотип, язык и культура, национальная культура, языковой стереотип.

Stereotiplar olam manzaralarining obrazi yoki qismini sifatida ongda yashaydi, tilda mustahkamlanadi va namoyon bo'ladi, shu bilan birga ular, aslini olganda, lisoniy stereotiplar sanaladi. "Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, – deb yozadi E. Bartminskiy, – stereotiplarni munosib leksemalar, xususiyatlar darajasida jamoa xotirasida mustahkamlanadigan turg'un, takrorlanuvchi xabar sifatida tasvirlash va ular bo'yicha izlanishlar qilish mumkin" [1:11]. Ko'plab tilshunos olimlar o'z izlanishlarida "stereotip" va "lisoniy stereotip" o'rtasida o'xshashlikni ko'rsatib o'tadilar va bu izlanishlarda til asosiy obyekt sifatida xizmat qilishi ta'kidlanadi. "Tilshunos uchun stereotiplar ham narsalar obrazi, ham odam obrazi sifatida olamning butun manzarasini qamrab oladi" [1:14]. Biroq barcha tushunchalar ham stereotiplarning yaratilishiga asos bo'lmasligi mumkin, faqatgina tarkibiga ijtimoiy birliklar kiruvchi va predmet hamda voqelikdagi hodisalarni belgilaydiganlarigina til egasi uchun ijtimoiy muhim hisoblanadi. "Tilda barchasi emas, faqatgina inson va uning hayot faoliyati uchun gina faol bo'lgan hodisa va predmetlar mustahkamlanadi, chunonchi, bir xalq uchun dolzarb bo'lgani, boshqa bittasiga dolzarb bo'lmasligi mumkin" [8:156–160]. Zamonaviy filologik an'anada lisoniy stereotip olamning lisoniy manzarasi tarkibiy qismi hisoblanadi. Modomiki, til milliy madaniyatning tarqatuvchisi sifatida namoyon bo'lar va bevosita ong hamda idrok bilan bog'liq ekan, olam haqidagi insonning ortirgan bilimlari, xalqning tabiat bilan bog'liq xususiyatlari, uning ijtimoiy tuzumi, hayotiy tajribasi shart-sharoitlarning barcha xilma-xilligi ostida orttiriladi va ular tilda o'z aksini topadi. Natijada odamning olam haqidagi bilimlarining yig'indisi bo'lgan olam manzarasi tilda mavjud bo'lgan olam manzarasiga, ya'ni "olamning lisoniy manzarasi"ga o'zgaradi". [6:108] Bartminskiyning ishlarida olamning lisoniy manzarasi va lisoniy stereotip qism hamda bir butun sifatida o'zaro munosabatga kirishadi. Olim shunday yozadi: "Stereotip predmetning qanday soddalashgan nazariyani tashkil qilishi, bu predmet qanday ko'rinishda ekanligi, predmetning o'zi qandayligi haqidagi an'anaviy tasavvur bo'lib, olam madaniy-lisoniy manzarasining butun batafsil elementidir va boshqa elementlar

bilan bu manzarani yaratadi" [1:20]. Lisoniy stereotip tushunchasi, odatda, klishe va qoliplardan turg'un xarakterni olgan tayyor, takrorlanadigan iboralar bilan bog'liq. Tilshunoslikning vazifasiga bu birliklarning struktur-semantik xususiyatlari va tasniflanishini tasvirlash kiradi. Biroq bunday vazifaning murakkabligi kontekstdan ajratib o'rganishga asoslangan an'anaviy tadqiqot metodida ichki qarama-qarshi tabiatini aniqlaydi, bir tomondan, erkin birikmalarning, ikkinchi tomondan, frazeologizmlarning xususiyatlarini namoyish qiladi. [2:109] So'nggi yillar tadqiqotchilarining aksariyati ta'kidlashicha, "lisoniy stereotiplarning kategoriyasi morfologik va sintaktik bo'lishidan ko'ra ko'proq funksional-pragmatikdir" [4:16]. Shu sababli nutqda stereotiplarning paydo bo'lishi haqida savol ochiq bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, pragmatika, kommunikatsiya nazariyasi, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatning ta'siri serqirra hodisa sifatida talqin qilinadigan lisoniy stereotiplik tushunchasining hajmi va mazmunini sezilarli darajada kengaytiradi. [5:5] Umuman olganda, tilshunoslik ilmiy munozaralarga stereotiplarning shakllanish va harakatlanish mexanizmining chuqur tushunilishini olib kirish barobarida tadqiqiy vositalarni takomillashtirish va boyitishga ham hissa qo'shadi.

Lisoniy stereotiplar paremiya, frazeologizmlar, idiomalar, iboralarda aniq ifoda qilingan semantik stereotiplashni nazarda tutadi. Semantik stereotiplash ibora, leksemalar ma'nolarida semantik ma'nolar sonini kamaytirishga yordam beradi, bu muloqot qiluvchiga kerakli ma'lumotni yetkazish uchun zarur vositaning tanlovini yengillashtiradi. Stereotiplarga yorqin misollarni millat vakilining oldindan belgilab qo'yilgan aniq odatlari va tabiati, turli millatlarning vakillari haqidagi hangomalarda ham uchratish mumkin. Masalan, o'zbeklarning tasavvurida g'arb, Yevropa xalqlari uchun tabassum ular madaniyatining ajralmas qismi, xatti-harakatlarining me'yori sifatida g'avdalanadi. Demak, tabassumni stereotip deb atash mumkin, chunonchi, u yoki bu xalq (o'zbek xalqi) ongida u g'arb va Yevropa madaniyati bilan aniq tasavvurni uyg'otadi. G'arb olamida tabassum, ingliz xalqida hajv – bu madaniyat belgisi, an'ana, odat.

Balki aynan shu belgi bilan ular ushbu madaniyat va killari ekanligiga ishora qiladi. Tilshunoslikda stereotip quyidagi sifat va miqdoriy metodlar yordamida tadqiq qilinadi: modellashtirish, assotsiatsiya, eksperiment, diskursning tanqidiy tahlili, korpus tahlil, kontent-tahlil.

Lingvomadaniyatda esa stereotip ongda mavjud bo'lgan olam manzarasining qismi yoki obrazi hisoblanadi. "Bu predmet yoki vaziyat haqidagi tasavurning milliy-madaniy xususiyat bilan bog'langan qandaydir obrazi – tasavvur, aqliy "manzara", qandaydir barqaror, kichiklashtirilgan – invarianti." deb yozadi V.V.Krasnix. [7:178] Stereotiplarga umumlashiruvchi xarakter xos. Ushbu xususiyat bilan bir qatorda stereotip mantiqiy fikrlash shakliga, soddalashtirish yoki odamlarning muayyan sinflarini hissiy jihatdan belgi-

lash yoki muayyan munosabatlarni rad etish qobiliyatiga ham ega. [3:177]

Kognitiv tilshunoslik va etnolingvistikada esa "stereotip" termini til va madaniyatning mazmunli qismiga tegishli, ya'ni olam manzarasi bilan bog'langan aqliy (tafakkur) stereotip deb tushuniladi. Olam manzarasi tushunchasi, shu o'rinda, olam haqida insonning tasavvurini o'rganish uchun quriladi. Agar olam-odam va atrof-muhitning o'zaro ta'siri bo'lsa, olamning manzarasi – ular haqidagi ma'lumotning qayta ishlanishi natijasidir. Olam manzarasi – bu olamning ko'zgdagi aksi emas, balki bir-biridan farq qiluvchi subyektlar tomonidan olamning qandaydir talqin qilinishi. Shuning uchun olam manzarasini o'zgarishlarga boy dinamik hodisa, deb aytish mumkin va u doimiy ravishda aniqlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартми́нский Е. Базовые стереотипы и их профилирование // Стереотипы в языке, коммуникации, культуре: сб. статей/сост. И отв. ред. Л.Л.Федорова. – Москва: РГГУ, 2009.
2. Дельская Т.Ф. Речевой стереотип как функциональная единица // Значение и смысл слова. – Москва, 1987.
3. Демьянков В.З. Стереотип // Краткий словарь когнитивных терминов/Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Под общей редакцией Е.С.Кубряковой. – Москва: Филологический факультет МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996.
4. Загидулина Р.Г. Основные семантические группы речевых стереотипов//Романский колледиум: Материалы междисциплинарных науч. чт. Вып. 1. – СПб., 2004.
5. Котюрова М.П. Многоаспектность явлений стереотипности в научных текстах//Текст: стереотипность и творчество. – Пермь: Изд-во Пермского гос. ун-та, 1998.
6. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. – Москва: Наука, 1990.
7. Красных В.В. Этнопсихология и лингвокультурология: Курс лекций/В.В.Красных. – Москва: ИТДГК "Гнозис".
8. Петрова А.А. Этнокультурная специфика речевого поведения саха // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. №12. Ч. 2.

Gulbahor TOJIYEVA,

Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ATOV BIRLIKLARINING XOSLANGAN MA'NOLARI

Annotatsiya. Maqolada semantik ixtisoslashuv mavjud ma'noning sifat o'zgarishiga uchramasdan, ayrim xususiyatlarini juz'iyashtirish asosida matnga xoslanishi hamda muayyan ilmiy matndagi istalgan til birligi u yoki bu darajada shu soha terminologik tizimiga xoslanishi va ma'noviy ixtisoslashuvning ikkinchi bosqichida atov birliklarining yangi hosila ma'no kasb etishi ma'lum bir tor sohaga xos tushunchani ifodalashga ko'proq xoslangan ma'nolar ekanligi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: so'z, shakl, morfe-ma, semantik ixtisoslashuv, ma'noviy ixtisoslashuv, atov birligi, ixtisoslashuv, modulatsiya, derivatsiya.

Annotation. The article examines that the semantic specialization does not undergo a qualitative change to an existing value, but also on the basis of differentiation of individual properties, and in varying degrees of any linguistic unity in a scientific text, which is in the second phase of the terminological system of this sector and during the second stage of spiritual specialization semantic units acquire new derivative sense that are more specific to a narrow concept.

Key words: word, form, morpheme, semantic specialization, spiritual specialization, phraseology, specialization, modulation, derivation.

Аннотация. В статье показано, что семантическая специализация существующего значения, качественно не изменяет на втором этапе духовной специализации смысловые единицы приобретают новый производный смысл, что более precisely конкретному узкому понятию.

Ключевые слова: слово, форма, морфема, семантическая специализация, духовная специализация, фразеологизм, специализация, модуляция, деривация.

Umumiste'mol so'zining umumiy qo'llanishdagi xususiyatlari va ilmiy xoslangan ma'nolari orasidagi semantik "ip"larni aniqlash, semik "vorisiylik" xususiyatlarini tadqiq qilish, ixtisoslashgan hosila ma'nolarining umumiy mohiyatdan ajralib chiqishi, bu jarayonga hamkorlik qiladigan lisoniy omillarning roli masalasi tadqiqida S.P.Lopushanskaya tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan so'z semantik strukturasi rekonstruksiya qilish metodikasi samarali sanaladi.¹ Olima umumiste'mol leksemalari va ularning terminlashuvini uch ko'rinishda tadqiq qiladi:

1) ixtisoslashish (so'z ma'nosining o'zgarimasdan, tegishli ilmiy matnga ixtisoslashgan ma'noda voqelanishi);

2) modulatsiya (polisemiya doirasida xos ma'noning asos ma'nodan o'sib chiqqan holda qo'llanilishi);

3) derivatsiya (xoslangan hosila ma'noning asos ma'nodan uzilishi natijasida terminologik mohiyat kasb etgan holda qo'llanilishi).

Olima talqinida ushbu jarayonlar asos ma'nodan uzoqlashish ko'lamiga ko'ra darajalanadi: ixtisoslashish → modulatsiya → derivatsiya.

Semantik ixtisoslashuv deganda mavjud ma'noning sifat o'zgarishiga uchramasdan, ayrim xususiyatlarini juz'iy lashtirish asosida matnga xoslanishi nazarda tutiladi. Muayyan ilmiy matndagi istalgan til birligi u yoki bu darajada shu soha terminologik tizimiga xoslanadi.

Ma'noviy ixtisoslashuvning ikkinchi bosqichida atov birliklarining yangi hosila ma'no kasb etishi ma'lum bir tor sohaga xos tushunchani ifodalashga ko'proq xoslangan ma'nolar sifatida namoyon bo'ladi. Ixtisoslashuvning bu bosqichidagi birliklarni shartli ravishda *xoslangan* termini bilan nomlashni ma'qul ko'rdik. *Xoslangan* so'z shaklining ko'zlagan maqsadimizga muvofiqligini asoslash uchun *xos*, *xoslanmoq* so'zlarining "O'zbek tilining izohli lug'ati" (keyingi o'rinlarda O'TIL)dagi izohlaridan foydalanamiz. Chunonchi:

«**XOS** [a. صاﺦ – maxsus, alohida; xususi, shaxsiy]

1. Biror kimsa yoki narsaning o'zigagina oid, o'zidagina bo'ladigan. *Bolalarga xos qiliq. Rahbarning o'ziga xos ish uslubi. Klara ayollarga xos chiroyli harakat bilan sochini orqasiga tashlab yubordi.* O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol". *Chol keksalarga xos boqish bilan bir zum tikildi: – Kel, chirog'im, nima xizmat?* Oybek, Tanlangan asarlar. **O'ziga xos** Ajralib, farqlanib turadigan. *Shahrimiz me'morchilik qiyofasi o'ziga xos go'zalikka ega.* Gazetadan.

2. Biror shaxsning o'zigagina tegishli bo'lgan, o'zidagina foydalanadigan; shaxsiy. *Oq otliq Bobur mirzo yuzdan ortiq beklari va xos navkarlari bilan tog' etagiga yaqinlashib qolgan edi.* P.Qodirov, "Yulduzli tunlar".

XOSLANMOQ Maxsuslashmoq, moslashmoq. *Biroq bu so'z faqat bir munosabatni – zidlov, kuchaytiruv munosabatini ifodalashga xoslanib qolgan*².

Izohlarning ikkitasidan ham *xos* va *xoslanmoq* so'zlarining "xususiylilik", "egalik", "tegishlilik" ma'nolar-

iga egaligi uqilmoqda. Rus tilidagi *модуляция* ("tuslanmoq") so'zi ham ko'proq "moslashmoq" ma'nosiga muvofiq keladi. Demak, xoslangan ifodasini ma'no xususiylashuvining ikkinchi maxsus turiga nisbatan qo'llash mumkin va bu o'zini oqlaydi, degan umiddamiz.

O'zbek tilshunosligida so'zlarning biz nazarda tutayotgan xususiyl ma'nolari "ixtisoslashgan" termini bilan ilk bor H.Ne'matov va R.Rasulovning "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" (Toshkent: O'qituvchi, 1995) o'quv qo'llanmasida berildi. Olimlar qo'llanmada *ixtisoslashmoq* so'zini 9 marta qo'llab, ularning har birida ma'no mustaqilligiga urg'u berishadi. Ulardan ayrimlari-ni sharhlashga harakat qilamiz.

Mualliflar so'z, shakl yoki yasama so'zlar morfemalarining yaxlitlanishi asosida vujudga keladigan yasama leksemalar ma'nosi bosh ma'nodan uzoqlashishini ixtisoslashish deb atashadi. Misol sifatida keltirilgan *qarash*, *yo'nalish*, *jo'nalish*, *qurilish*, *yig'ilish*, *tanish*, *ko'rinish* kabi so'zlar ham ixtisoslashgan ma'noga ega bo'lgan, yaxlitlangan va leksemalarga aylangan. Yaxlitlanish natijasida nutq birliklarining til birliklariga – leksemalarga o'tishi tez-tez sodir bo'layotgan faol jarayondir.³ Demak, yasama so'zlarda ixtisoslashish (xoslanish) olimlar tomonidan asosli bayon etilgan.

Ma'noviy xoslanishni ikki turga ajratish o'rinli:

1) leksema sememasining yangi hodisani ifodalashga o'tishi natijasida vujudga kelgan ma'noviy xoslanish;

2) leksemaning nutqiy voqelanishi bo'lgan so'zshakl ma'nosining lisoniylashishi natijasida vujudga kelgan ma'noviy xoslanish.

O'zbek tilidagi leksema sememalarining ma'noviy xoslanishi milliy g'oya va milliy ma'naviyat sohasiga tegishli tushunchalarni bildiruvchi birliklarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunday holat tilimizda avvaldan mavjud bo'lishi bilan birga O'zbekistonda mustaqillik mafkurasini shakllanishi va taraqqiyoti davomida yangidan yangi xoslangan ma'noli birliklar vujudga keldi. Quyida ulardan ayrimlarini tahlil qilamiz.

G'oya so'zi O'TILdagi uchinchi ("biror ish-harakat qilish haqidagi fikr, o'y; niyat, maqsad") ma'nosi bilan umumiste'mol qo'llanishda. Lekin uning birinchi ma'nosi falsafiy, uchinchisi ilmiy xoslanganligi bilan xarakterlanadi:

1. Borliqni ongda aks ettiruvchi, shaxsning unga munosabatini ifodalovchi, dunyoqarash asosini tashkil qiluvchi, maqsad sari yetaklovchi fikr, tushuncha, tasavvurlar majmuyi. Misollar: 1. *Eski g'oya va qarashlar ularni yuzaga keltirgan shart-sharoitga nisbatan yashaydi.* 2. *Yozingiz, mana shu Qur'on hurmati bilan qasamyod qilib aytamanki, men o'zimning kurashchan qobiliyatimni shu jamiyatning g'oyalari yo'lida tugatajakman.* 3. *Dinning vazifasi g'oya va e'tiqodlar tizimini sharhlash, izohlash hamda qayta ishlashdan iborat.*

Misollardan ma'lum bo'ladiki, ushbu xoslangan ma'nosida g'oya zamirida "ijtimoiy" semasi xarakter-

lanadi. Shu xususiyati bilan u umumiste'mol ma'nodan farqlanadi.

Uchinchi (ikkinchi xoslangan) ma'nosi falsafiy ma'nodan ma'lum darajada torroq: "badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr": *Asarlarning xalq mulki bo'lib qolishiga sabab shuki, u asarlar mag'ziga singdirilgan g'oya kishilar diliga, ularning istaklariga yaqindir.* N.Safarov, "Olovli izlar".

G'oya atov birligining ma'nolarini shu asosda quyidagicha darajalash mumkin: qo'llanish darajasiga ko'ra: "borliqni ongda aks ettiruvchi, shaxsning unga munosabatini ifodalovchi, dunyoqarash asosini tashkil etuvchi, maqsad sari yetaklovchi fikr, tushuncha, tasavvurlar majmuyi" – "biror ish-harakat qilish haqidagi fikr, o'y; niyat, maqsad" – "badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr".

Ma'nolar bilan leksema bir xil qurshovda qo'llana oladi va kontekst ularni farqlash uchun vosita vazifasini o'taydi, ya'ni, deylik, *g'oya uchun kurashmoq* birikmasidan yuqorida keltirilgan uch ma'noning qaysi biri voqelanganligini ushbu birikmaning o'zidan keltirib chiqarib bo'lmaydi. *G'oya* so'zining derivatsion hosilalari bo'lgan *g'oyali*, *g'oyasiz* ifodalari ham shunday tabiatga ega. Bir qarashda, ikkinchi – "borliqni ongda aks ettiruvchi, shaxsning unga munosabatini ifodalovchi, dunyoqarash asosini tashkil qiluvchi, maqsad sari yetaklovchi fikr, tushuncha, tasavvurlar majmuyi" ma'nosi *g'oyasiz*, *g'oyali* hosilalarida voqelanmaydigandek tuyuladi. Lekin *bunyodkor g'oyali*, *vayronkor g'oyali* birikmalarining mavjudligi tasavvurimizni o'zgartirib yuboradi.

Milliy ma'naviyatga xos tushunchalarni ifodalovchi atov birliklari tizimida *fikr* ifodasi alohida o'rin tutadi. *Fikr* so'zi *mustaqil fikr*, *mustaqil fikrli*, *fikriy zaiflik* kabi birikmalarni ham hosil qiladi. O'TILda bu leksemaning quyidagi ma'nolari ajratilgan va izohlangan:

1. Biror narsa, hodisa yoki kishi haqida o'y, xayol.
2. Biror narsaga nisbatan munosabatni ifodalaydigan hukm, xulosa.
3. Biror hodisa yuzasidan beriladigan taklif; maslahat.
4. Biror narsaga erishish, biror ishni amalga oshirish haqidagi niyat, maqsad.
5. Narsa va hodisalarni taqqoslab o'rganish, mulo-haza yuritish natijasi; to'xtam, qaror.
6. Tushuncha, bilim; ong, aql.
7. Borliqni tushunish yo'sini; dunyoqarash, maslak.
8. (*egalik qo'shimchasi va -cha affiksi bilan*) *krsh. s.*

vzf. Aytilayotgan fikrning qaysi shaxsiga tegishli ekanligi.

Bu ma'nolardan faqat yettinchisini milliy ma'naviyat sohasiga xoslangan deyish mumkin. Misollar: 1. *Yoshlar "yangi fikr", "eski fikr" degan gaplarni yig'ishtirib, ulamolar oldida adab saqlashlari kerak.* Oybek, *Tanlangan asarlar*. 2. *Otamning ham o'zimning qanday fikr va maslak kishisi ekanligimizni aytib o'tmoqchi bo'laman.* A.Qodiriy, "O'tkan kunlar". 3. *Uni o'qidingizmi, insof bilan ayting, asarda qanday zararli fikr bor?* Oybek, "Nur qidirib". 4. *Qishloq aholisi mulla O'sar degan ochiq fikrli o'rta dehqonni komissar qilib sayladi.* M.O'rinxo'jayev, "Unutilmas kunlar".

Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, leksemalar sememalaridan birining qo'llanishi maxsus sohalar bilan cheklanib, ushbu ma'nosi asosida ular yangi mohiyat kasb etadi. Bu ma'nolar ixtisoslashgan terminologik ma'nolar hisoblanadi, hosila ma'nolar sifatida asos ma'no bilan aloqasini uzmagan, ular orasidagi mustahkam semik "ip"lar saqlanib qolgan bo'ladi. Asos va hosila ma'nosida leksema bir xil qurshovda bimalol voqelana oladi hamda ikki xil ma'no bimalol uqilaveradi. Bu ham hosila ma'noning mustaqil ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida aytilganidek, leksemalar bilan bir qatorda grammatik shakllangan so'zlar ham xoslangan, qo'llanishi va ma'no-mohiyati umumqo'llanishdagi tushunchalarni ham, shuningdek, ma'lum bir cheklangan sohaga tegishli tushunchalarni ham ifodalash, ya'ni terminologik mohiyat kasb etishga o'tish hollari tilda ko'p uchraydi.

Grammatik shakllangan atov birliklarining ikki xilini farqlash lozim:

- 1) umumqo'llanish;
- 2) terminologik qo'llanish.

Biroq tegishli lug'atlarda bu ma'nolarni qay yo'sinda berish va izohlash masalasida bir xilliklarni kuzatmaymiz, nazarimizda, bu borada maxsus tekshirishlar taqozo etiladi. Masalan, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1-jildida *avitaminoz* so'zi berilmagan, lekin *avitaminozlar* so'zshakli keltirilgan va izohlangan bo'lib, unga tirkalgan illustrativ misollarda mazkur so'z ko'plik grammatik shaklidan xoli.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilidagi xoslangan ma'noli grammatik shaklli leksemalarni semantik tahlil qilish va leksikografik amaliyot uchun tegishli tavsiyalar berish zarurati davr talabi sifatida tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

¹ Лопушанская С.П. Изменение семантической структуры русских беспривставочных глаголов движения в процессе модуляция // Русский глагол (в сопоставительном освещении). – Волгоград, 1988. – С. 15.

² O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: O'ZME, 2006. IV jild. 414-bet.

³ H.Ne'matov va R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 34-bet.

Ziyoda KASIMOVA,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA REALIYALAR TASNIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy-madaniy realiya birliklarning dunyo tilshunosligidagi tasnifi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: onomastik realiya, appelyativ leksikada belgilangan realiya, aforistik toifadagi realiya, denotativ va konnotativ realiya, subyektiv, mahalliy va vaqtiy taqsimlanish.

Annotation. This article examines the classification of national-cultural reality units in world linguistics.

Key words: onomastic reality, reality defined in appellate lexicon, reality of aphoristic category, denotative and connotative reality, subject, local and temporal distribution.

Аннотация. В данной статье рассматривается классификация национально-культурных единиц реальности в мировой лингвистике.

Ключевые слова: ономастическая реальия, реальия, определенная в апелляционной лексике, реальия афористической категории, денотативная и коннотативная реальия, субъективное, локальное и временное распределение.

Realialarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realialarning paydo bo'lishi tilda shunga mos so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Realialarni ajratib turuvchi xususiyat ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligida. Realialar biror jamoa yoki korxonaga miqyosi bilan ham chegaralangan bo'lishi mumkin. Realiyaga vaqt koloriti ham mansub. Bu leksik birliklar madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, til hodisasi sifatida jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez javob qaytaradi; ular orasida – neologizmlar, tarixizmlar, arxaizmlar kabi realialarni farqlash mumkin. Bu realialarning har bir turi tarjimada alohida e'tibor talab etadi. Realia bu moddiy mavjud bo'lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsa bo'lib, lug'aviy izohlarga ko'ra "moddiy madaniyat narsalari"¹ hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida realiya birliklarni keng va tor tushunishga asoslangan tasniflar mavjud. Realialar keng tushunilgan tasniflarda izchillik kuzatilmaydi. Masalan, S.Vlaxov va S.Florinning realialar umumiy sxemasi tasnifi quyidagi ko'rinishga ega:

I. Realialarning predmet xarakteriga ko'ra tasnifi:

1. Geografik realialar fizik geografiya yoki aralash fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularni aniq chegaralab bo'lmaydi.

2. Etnografik realialar kundalik, moddiy va ma'naviy madaniyat, din, san'at, folklor tushunchalarini anglatuvchi so'zlarni birlashtiradi.

3. Ijtimoiy-siyosiy realialar.

II. Realialarning areal tasnifi (milliy va tilga mansublikka bog'liq holda):

1. Bir til doirasidagi realialar.

2. Bir necha til doirasidagi realialar.

III. Realialarning zamon nuqtayi nazaridagi tasnifi:

1. Zamonaviy realialar.

2. Tarixiy realialar.²

G.D.Tomaxin Amerika realialarini o'rganish jara-yonida uchta katta guruhni alohida ajratib ko'rsatadi:

1. Onomastik realialar.

2. Appelyativ leksikada belgilangan realialar.

3. Aforistik toifadagi realialar.³

Biz ham G.D.Tomaxin tasnifini asos qilib olgan holda realialarning ushbu turlarini Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining Muhammadnodir Safarov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi misolida ko'rib chiqamiz:

Onomastik realialar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– geografik nomlar (toponimlar), ayniqsa, madaniy-tarixiy bog'lanishlarga ega bo'lganlari: Tashkent, Margilan, Turkistan, Kokand, Shama, Samarqand, Buxara, Fergana, Yarmazar, Эски Джужа;

– antroponimlar – tarixiy shaxslar, jamoat arboblari, olimlar, yozuvchilar, san'at arboblari, mashhur sportchilar, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari: Атабек, Кумуш, Зайнаб, Мирзакарим кутидор, Юсуфбек-хаджи, Зия-шахчи, Мусулманькул, Худаяр, Офтоб-аим, Айша-буви, Узбек-аим, Хушрой, Акрам-хаджи, Тойбека;

– adabiyot va san'at asarlari nomlari; mamlakat hayoti bilan bog'liq tarixiy voqealar va hodisalar; davlat va jamoat idoralari nomlari: хан, михманхана, таксыр, курбаши, кушбеги, карачапан.

Onomastik realialar doimo milliylik bilan boyitilgan bo'ladi, chunki atoqli otlar til birligi, muayyan milliy kolorit ifodalovchisi sifatida ishtirok etadi.

Appelyativ leksikada belgilangan realialar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– tabiiy-geografik muhit, flora, faunaning o'ziga xos xususiyatlarini bildiruvchi geografik iboralar: комната, помещение (hujra), караван-сарай (сароу), сандал (tancha), михманхана (mehtonxona), внутренний двор (ichkari), айван (ayvon);

– davlat tuzumi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, huquqshunoslik, harbiy ishlar, san'at, ta'lim tizimi, turmush tarzi, an'analar va urf-odatlar va boshqalar bilan bog'liq ba'zi bir so'zlar (jumladan, mashhur iboralar): кумган (qumg'on), лепешка (non), паток (shinni), плов (palov), заниматься финансовыми делами (qutidorlik qilmoq), зиндан (zindon), атласный одеял (atlas ko'ra), табиб (hakim).

Aforistik toifadagi realialar qatoriga o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlardan olingan quyidagi iqtiboslarni kiritish mumkin: упрекнуть (o'pka qilmoq), расстелить дастархан (dasturxon yozmoq), идущий

подобен реке, сидящий же – циповке (Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra), забелить молоком чай (choyni oqlab bermoq), прочесть фатиха (fotiha o'qimoq).

Denotativ va konnotativ realiyalar. G.D.Tomaxin tilda denotativ va konnotativ realiyalarni ajratib ko'rsatish zarur, deb hisoblaydi. Denotativ realiyalar (denotativ – mazkur referent bilan moslashtirishga xizmat qiluvchi, uning tabiiy yoki alohida xususiyatlaridan qat'i nazar, predmetni ko'rsatuvchi)⁴ bu – semantik tarkibi o'sha muhitning leksik axborotini to'liq qamrab olgan leksik birlik.

Konnotativ realiyalar (konnotativ – nafaqat predmetni, balki uning alohida xususiyatlarini anglatuvchi)⁵ – eng oddiy tushunchalarni anglatgan holda uning mazmunan va emotsional “muhit belgilari”ni namoyon etuvchi leksik birliklar.

Taqqoslanayotgan so'zlarning butun leksik jihatlarini tizimi tahlili ularni ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tarzda u yoki bu til badiiy matnlarida uchrab turuvchi quyosh, oy, daryo va h.k. umuminsoniy bilimlarni anglatuvchi so'zlarga muayyan fikrlarni ifodalovchi hududiy muhit axboroti muhit bilimi bilan teng turadi. Ushbu realiyalarning ma'naviy madaniyati bilan xalq va uning tilidagi uzviy bog'liqlik, ko'pincha, tarji-

monlarni tarjima qilayotgan matnida satr ostida izoh keltirish yoki tavsifiy tarjima va turli tushuntirishlar berishga majbur etadi.

Zohiran, denotatsiya va konnotatsiya asosida V.D.Filatov realiyalarning ikki turini ajratib ko'rsatadi. “Birinchidan, bular faqat mazkur jamiyatga xos bo'lgan noyob realiyalar hisoblanadi”⁶. Bunday realiyalar qatoriga *sumalak*, *chayxana* kabi so'zlarni kiritish mumkin. “Ikkinchidan, bu predmetli-mantiqiy mazmuniga ko'ra aynan o'xshash, lekin konnotativ jihatdan farqlanuvchi kvazinoyob realiyadir”⁷. Bular qatoriga *бабочка* kabi ruscha so'zni kiritish mumkin.

Xullas, xalqlar, millatlar va elatlar orasidagi madaniy hamda adabiy aloqalar doimiy ravishda rivojlana borar ekan, yangi-yangi so'zlar, realiyalarning paydo bo'lishi kuzatilaveradi. Realiyalar har bir xalqning turmush tarzi, madaniyati va urf-odatlarini o'zida aks ettirgan, boshqa xalq va til uchun begona bo'lgan so'zlar majmuasidir. Ular bir tildan ikkinchi tilga ko'chishi natijasida bora-bora baynalminallashuvi, tor doiradan chiqib, umum-milliy so'zlar qatoriga qo'shilishi yoki, aksincha, eskirib, iste'moldan chiqib ketishi va arxaik so'zlar sinfiga mansub bo'lib qolishi mumkin.

¹Томахин Г.Д. Теория перевода. – Москва, 1988. – С. 6.

²Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent, 2018. 31–32-betlar.

³Томахин Г.Д. Реалии в культуре и языке. – Москва, 1981. – С. 25.

⁴Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969. – С. 128.

⁵Ахманова О.С. Указ. работа, с. 203.

⁶Филатов В.Д. Локальная маркированность фразеологических единиц. – Москва, 1981. – С. 173.

⁷Филатов В.Д. Указ. работа, с. 174.

Islom MINNIQULOV,
O'zDJTU tadqiqotchisi

SHART GAPLAR PRAGMATIK ASPEKTINING NUTQ AKTI NAZARIYASI ASOSIDA YORITILISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada shart munosabatlarini ifodalovchi gaplar pragmatik tabiatining nutq akti nazariyasi asosida yoritilishi muhokama qilinadi. Xususan, shart gaplarning ma'lum muloqot sharoitida muayyan nutq akti vazifasini bajarish imkoniyatiga, nutq akti nazariyasi asosida direktiv, ekspressiv, assertiv, kommunikativ va deklarativ aktlarni voqelantirish salohiyatiga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shart, shart ma'no, shart gap, shart konstruksiya, nutq akti, pragmatik aspekt.

Аннотация. В статье рассматривается описание прагматического аспекта условных предложений на основе теории речевого акта. В частности, анализируются возможность условных предложений выполнять конкретный речевой акт в определенном коммуникативном контексте и потенциал условных предложений реализовывать директивные, выразительные, решительные, коммуникативные и декларативные речевые акты на основа теории речевых актов.

Ключевые слова: условие, условное значение, условное предложение, условная конструкция, речевой акт, прагматический аспект.

Annotation. The article discusses the description of the pragmatic aspect of conditional sentences on the basis of the speech act theory. In particular, it analyzes the possibility of conditional sentences to perform a particular speech act in a specific communicative context and the potential of conditional sentences to realize directive, expressive, assertive, communicative and declarative speech acts on the basis of the speech act theory.

Key words: condition, conditional meaning, conditional sentence, conditional construction, speech act, pragmatic aspect.

Tilshunoslikda shart munosabatlarini ifodalovchi til birliklarining pragmatik aspekti nutq akti nazariyasi, implikatura, presuppozitsiya va boshqa pragmatik hodisalar asosida yoritilishi mumkin. Shart munosabatlarini ifodalovchi gaplarni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilar ekanmiz, shart munosabatli konstruksiyalarning ma'lum kontekstda nutq akti bo'lib kelishiga guvoh bo'lamiz.

Nutq akti nazariyasi ta'limot sifatida ingliz mantiqshunos J.Ostin va amerikalik psixolog J.Syorl ishlarida shakllanganligi ilmiy adabiyotlarda e'tirof etiladi. Mazkur nazariya pragmatik tahlilning asosiy masalalaridan hisoblanib, uning asosiy mazmuni quyidagicha izohlanishi mumkin: nutq akti nazariyasi lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya singari uch bosqichli faoliyat sifatida qaraladi. [4:81]

Lokutsiya nutqiy aktning birinchi bosqichi bo'lib, muloqot jarayonidagi mazmundor lisoniy tuzilmaning yaratilishi, talaffuz qilinish orqali nutqiy faoliyat bajarilish aktidir. [4:81] Illokutsiya markaziy akt bo'lib, muloqot jarayonida kommunikativ maqsad voqelanadigan faoliyatdir. Perlokutsiya nutqiy aktning ta'sir etuvchi (so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir etishi) bosqichi, natijaviy maqsad amalga oshadigan faoliyatdir. [4:82]

Tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakati perlokutiv akt nomini olib, pragmatik tahlil doirasiga kiritiladi. [4:86] Zero, aynan shu bosqichda so'zlovchining kommunikativ-pragmatik maqsadi amalga oshadi. Ya'ni, o'zbek tilshunos olimi Sh.Safarov ta'biri bilan aytganda, ma'lum nutqiy muloqotning maqsadi faqatgina axborot yetkazish va olish emas, balki so'zlovchi va tinglovchining talabi, qiziqishini qondirish hamdir. [4:86] Shuningdek, xorij olimi U.T. Davidning qayd etishicha, perlokutiv akt tinglovchini biror ish-harakat qilishga undash, ishontirish va rag'batlantirish xarakteriga ega bo'lib, tinglovchining his-tuyg'ulari, o'y-xayollari va xatti-harakatiga ta'sir etadi. [2:17] Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, nutq akti muloqotining perlokutiv bosqichi so'zlovchining pragmatik maqsadini amalga oshishi uchun qulay zamin yaratadi.

O'zbek tilshunos olimi Sh.Safarov J.Ostin tomonidan tasniflangan nutq aktlarining beshta guruhini quyidagicha yoriadi:

1. Verdiktivlar. Bunday nutq aktlari (sud, hakamlar tomonidan) hukm chiqarish mazmunini anglatadi. Masalan: "Seni aybdor deb hisoblayman", "Jarima to'laysan", "O'yindan tashqari holat", "Ogohlantiraman".

2. Ekzersitivlar. Bu nutqiy harakatlar o'z huquqidan, hukmronligidan foydalanib buyruq berish, majbur qilish, maslahat berish, ogohlantirish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: "Seni lavozimingdan bo'shataman", "Yaxshisi, telefon qilma", "Chiqib ket", "Munofiqdan ehtiyot bo'!".

3. Komissivlar. Bunday nutq aktlari va'da berish va boshqa turdagi majburiyatlarni ifodalaydi. Masalan: "Ertaga kelishga va'da beraman", "Rejani albatta bajaraman", "Burchimni bajarishga qasamyod qilaman", "Jarimani to'lash kafolatini beraman", "Fikringizni qo'llab-quvvatlayman".

4. Bexabitivlar. Bular jamoada o'zini tutish, biror kishi xatti-harakatiga munosabat bildirish ma'nolarini ifodalovchi nutq aktlaridir. Masalan: "Yordaming uchun

rahmat", "Salomat bo'ling", "Xafa bo'lmang", "Oy borib, omon kel" va boshq.

5. Ekspozitivlar. Muloqot jarayonida so'zlovchining fikrini izohlovchi, tasdiqlovchi va tushuntiruvchi nutq aktlaridir. Masalan: "Kasal ekanligingga gumonim bor", "Kasal bo'lishim mumkin", "Qarzdorligingni eslatmoqchiman".

Biroq, bu tasnif muayyan tamoyillarga asoslanmaganligi sababli to'liq va mukammal emas, [4:90] deya e'tirof etiladi.

Shuningdek, Sh.Safarov J.Syorl tomonidan qilingan tasnifni ancha tizimli, deya e'tirof etadi va quyidagicha tasvirlaydi:

1. Assertivlar. Bunday nutqiy harakatlar axborotning rostligini tasdiqlaydi. Masalan: "Maqolani yozib tugatdim", "Poyezd soat 10 da jo'naydi", "Jamshid talaba".

2. Direktivlar. Tinglovchini faoliyatga undovchi (buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish) nutqiy aktlar.

3. Komissivlar. (J.Ostin tasnifi bilan mos)

4. Deklarativlar. Masalan: "Yig'ilishni yopiq deb e'lon qilaman", "Sizlarni er va xotin deb e'lon qilaman".

5. Ekspressivlar (tabrik, ta'ziya bildirish kabi nutqiy aktlar).

Bundan tashqari, Keyt Allanning tasnifi ham Sh.Safarov tomonidan kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tasnif sifatida e'tirof etiladi. [4:92] Bu tasnifga ko'ra nutq aktlari asosiy ikki sinfga bo'linadi:

1. **Shaxslararo harakatlar:** a) konstativ (tasdiq, darak berish); b) prediktiv (taxmin, bashorat qilish); d) komissiv (va'da, taklif qilmoq); e) aknojement (tabrik qilmoq, takalluf, ehtimom); f) direktiv (iltimos, savol, buyruq, ta'qib); g) avtoritativlar (ijozat bermoq, maslahat bermoq)ga oid nutq aktlari.

2. **Deklarativlar:** a) effektiv (cho'qintirish, uylantirish, lavozimga tayinlash); b) verdiktiv (hukm chiqarishga oid nutq aktlari).

Yuqorida tilga olingan nutq aktlari tasnifi asosida shart munosabatlarining ma'lum nutq akti sifatida ishlatilishini tahlil qilish tadqiqotimizning asosiy vazifalaridir. Nutq akti nazariyasi tamoyillariga ko'ra, shart munosabat bildiruvchi konstruksiyalar shart ma'no ifodalashdan tashqari yashirin performativ ma'no bildirib, ma'lum kommunikativ kontekstda muayyan performativ nutq akti vazifasini bajarish imkoniyatiga ega. Ya'ni, shart munosabat ifodalovchi konstruksiyalar performativ nutq akti funksiyalarini bajaradi.

A.Y.Richardning fikricha, shart munosabatlarini nutq akti nuqtayi nazardan tasniflash mumkin bo'lib, unga ko'ra, shart gaplar performativ nutq aktlaridir. [3:35] Performativlarning *va'da berish, ogohlantirish, minnatdorchiilik bildirish, buyruq berish, tabriklash va uzr so'rash* kabi turlari farqlanadi. [3:35] Ya'ni, shart munosabat gaplar performativ nutq aktlari sifatida ham o'z funksiyasini bajarishi mumkin.

Uning e'tirof etishicha, performativ nutqiy aktlarning yashirin va oshkora turlari bo'lib, ular shart munosabatlarini ifodalovchi gaplarda ham namoyon bo'ladi. [3:36] Masalan, *"If you had been here, my brother would not have died"* shart konstruksiyasi orqali so'zlovchi implitsit tarzda o'z kommunikativ maqsadini (koyish, tanbeh berish) ifoda etyapti. [3: 37] So'zlovchi kommu-

nikativ maqsadini muvaffiqiyatli ifoda etish uchun shart munosabat gaplardan foydalanar ekan, implitsit tarzda ma'lum nutq aktini ham bajaradi.

Shart gaplarni nutq akti nuqtayi nazardan tasniflash so'zlovchining kommunikativ maqsad (niyat)ini yaxshiroq anglash imkonini beradi. [3:39] Nutq akti modeliga muvofiq shart munosabatni ifodalovchi gaplarning barchasi implitsit performativlardir: shart munosabat ifodalashdan tashqari implitsit performativ ma'noga ham ega. [3:39] Bundan ma'lum bo'ladiki, so'zlovchining kommunikativ maqsadi shart ma'no bilan birga implitsit performativ ma'no ham anglashilganda to'la namoyon bo'ladi.

Shart munosabat gaplari nutq akti nazariyasiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

- tinglovchini ishonirish;
- biror narsaga kuchli ishonch bildirish;
- tinglovchini manipulyatsiya qilish;
- nasihat qilish;
- tanbeh berish;
- muloyimlik bilan biror narsa so'rash;

o'zini oqlash yoki himoya qilish;
 kimnidir masxara qilish;
 nola (hasrat, shikoyat) qilish. [3:39–46]

Shuningdek, ingliz olimlari C. Murcia va L. Freemanlar e'tiroficha, shart munosabatni ifodalovchi gaplar quyidagi nutq akti nazariyasi asosidagi funksiyalarni ham amalga oshiradi:

taklif: *If I can help you in any way, just let me know.*

buyruq: *If you are not here to help, please leave!*

uzr so'rash: *If I've offended you in any way, I'm very sorry.*

maslahat: *Don't take English 120 A unless you've already completed English 20.*

yo'nalish ko'rsatish: *Take Introduction to Symbolic Logic only if you're willing to work very hard for a B.* [1:559]

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, shart munosabatni ifodalovchi konstruksiyalarda shart ma'nodan tashqari implitsit performativ ma'nolar ham bo'lib, bunday ma'no komponentlari so'zlovchining kommunikativ maqsadini to'liq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Celce-Murcia, M. and Larsen-Freeman, D. *The Grammar Book: An ESL/EFL Teacher's Course*. – New York: Heinle and Heinle, 1999. – 843 p.
2. David Wayas. A pragmatic analysis of victory and inaugural speeches of President Jonathan: A measure for transformation and good governance in Nigeria//*Innovare Journal of Social Sciences*. – Vol. 1, Issue 2, 2013. – pp. 17-21.
3. Richard A. Young. A Classification of Conditional Sentences based on Speech Act Theory//*Grace Theological Journal*, 1989. –Vol. 10, Issue 1. – pp. 29–49.
4. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 300-bet.

Xolida DAVUROVA,

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

OYKONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI

(Jizzax viloyati misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax viloyati oykonimlarining grammatik tuzilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *onomastika, oykonim, komponent, formant, toponomik indikator.*

Annotation. This article is about the grammatical structure of the oykonyms of the Jizzakh region.

Key words: *onomastics, oikonym, component, formant, toponymical indicator.*

Аннотация. В данной статье рассматривается грамматическая структура ойконимов Джизакской области.

Ключевые слова: *ономастика, ойконим, компонент, формант, топонимический индикатор.*

Alohida tanlab olingan hudud oykonimlarining so'z yasash turlari hamda grammatik tuzilishini o'rganish o'zbek toponimikasi uchun alohida nazariy va aniq amaliy ahamiyatga ega. Jizzax viloyati hududidagi oykonimlarning grammatik tuzilishi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, oykonimlar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

I. Sodda oykonimlar.

Bitta sodda so'zdan iborat oykonimlar sodda oykonimlar

hisoblanadi. Jizzax viloyati oykonimlari orasida bunday joy nomlariga Nayman, Ketmonchi, Mergan, Qarapchi, Qiyot, Quduq, Qutchi, Qo'shchi, Bekat, Beklar, Oyuvchi, Olimlar, Sayot, Solin, Tomchi, Toqchi, Yomchi, Xo'ja, Chibar, Shirin, Sho'rcha, Egarchi, O'ray kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday turdagi sodda oykonimlar tuzilishi bo'yicha bir nechta komponentlardan iborat bo'lgan atqli otlardan ajralib turadi. Sodda oykonimlar topoasosga bog'liq holda tub so'zlardan

hosil bo'lgan sodda oykonimlar va yasama so'zlardan yasalgan sodda oykonimlarga bo'linadi.

Tub so'zlardan iborat sodda oykonimlar tarkibida hech qanday so'z yasovchi morfemalar bo'lmaydi va bunday oykonimlar Jizzax viloyati oykonimlari tizimida ham unchalik ko'p emas. Jumladan, Abay, Bayram, Band, Bekat, Mergan, Sayot, Qiyot, Qamish, Baxt, Yom, Mo'g'ol, Nayman, Og'ar, Bo'z, Bo'ston, Bo'ron, Barlos, Duvlat, Do'lana, Quduq, Abuz (Obuz), Gumbaz, Dovul, Juma, Ko'sa, Chibat, Zilol, Bunyod, Qipchoq, Turk kabi oykonimlar.

Toponomist olim T.Raxmatovning ko'rsatishicha, tub so'zlardan hosil bo'lgan sodda toponimlar quyidagicha hosil qilinishi mumkin:

a) geografik terminlardan (ko'l, buloq, soy, tog', adir, qir, do'ng);

b) etnonimlardan (nayman, chibar, shirin, solin, mergan, ko'sa, mo'g'ol);

d) kishilarning ismi va familiyalaridan (Abay, Shodmon, Oxunboboyev);

e) hayvon va o'simliklarning nomlaridan (tuvadoq, terak, chim, yulg'un). □

Jizzax viloyati hududidagi sodda oykonimlarning katta qismini yasama so'zlardan tuzilgan joy nomlari tashkil etadi. Yasama so'zlardan hosil bo'lgan sodda oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning yasalishidir. Ular ma'noli bo'laklarga yaqqol ajralib turadi.

Jizzax viloyati hududidagi sodda oykonimlar tarkibida -li, -lik, -loq, -zor -cha, -chi, -lar, -ma, -kor kabi morfologik (toponomik) formantlar keng qo'llaniladi. Buni quyida ko'rib chiqamiz.

-li affiksli yasama sodda oykonimlar. Hozirgi o'zbek tilida -li affiksi sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib, asosdagi narsaga egalik ma'nosini bildiradi¹. Turkolog olim E.V.Sevortyaning fikricha -li affiksi etnografik ma'noga ega² bo'lib, etnonimlarning hosil bo'lishida keng qo'llanilgan.

Xuddi shu affiks yordamida hosil bo'lgan joy nomlarini Jizzax viloyati oykonimiyasi tarkibida ham uchratish mumkin. Tuyoqli, Udamali (Baxmal tumani), Sirg'ali, Chaparashli (Zomin tumani), So'loqli, Cho'michli (Sh.Rashidov tumani), Tag'li, Sherqang'li (G'allaorol tumani) qishloqlari nomi shunday oykonimlar sirasiga kiradi. Bu joy nomlari etnonimlardan shakllangan etnooykonimlar hisoblanadi.

-li affiksi yordamida fitonimlardan ham yasama sodda oykonimlar yasalgan. Bunday fitooykonimlarga Olmali (G'allaorol va Sh.Rashidov tumanlarida), Tutli (G'allaorol tumanida), O'rikli (Zomin tumani) kabi joy nomlari kiradi.

-lik affiksli yasama sodda oykonimlar. Yasama sodda oykonimlar strukturasi -lik affiksini ham uchratish mumkin. Tarixiy qo'shimcha hisoblangan bu affiks qadimgi turkiy tillarda -lyk/lig/lug kabi shakllarga ega bo'lgan. O'z navbatida, mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy ta'kidlaganidek, -lik affiksi bilan yasalgan so'zlar ma'lum bir predmetga yoki narsaga egalik qilishni bildirgan.³

Ushbu affiks yordamida hosil bo'lgan joy nomlari Jizzax viloyati oykonimlari qatorida ham uchraydi. Bunday oykonimlarga Mo'likanlik, Yaxtanlik, Jizzaxlik, Toshkentlik qishloqlari (Sh.Rashidov tumani), Nijonlik, Ravallik mahallalari nomini (Jizzax shahri) misol qilib keltirish mumkin. Bu joy nomlari kishilarning qayerdan kelib o'rtnashganligini ko'rsatadi.

-lik affiksi yordamida hosil bo'lgan oykonimlar O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlarida ham uchraydi. Masalan, Qashqadaryo viloyati hududida Zargarlik, Misgarlik, Xorazm viloyati hududida Sazaklik, Sheralik, Toshkent shahri hududida Konchilik, Kovushfurushlik kabi joy nomlari shun-

day oykonimlar sirasiga kiradi. Ushbu joy nomlari tarkibidagi -lik affiksi kishilarning kasb-kori, hunarini anglatuvchi so'zlarga qo'shilib, atoqli otlarni hosil qilgan.

-cha affiksli yasama sodda oykonimlar. Hozirgi o'zbek tilida -cha affiksi erkalash va kichraytirish ma'nosidagi otlarni hosil qilishda keng qo'llaniladi. Toponomikada bu affiks yordamida ko'plab komonimlar (qishloq aholi punktlari) ning nomlari yasalgan. Toponomist olim T.Nafasov fikricha, -cha affiksi oq, qora, qizil, ko'k, sho'r, bo'z kabi sifatlarga qo'shilib, geografik nomlar hosil qiladi va bu holatda -cha affiksi o'zining otlar bilan qo'shilib kelgandagi erkalash va kichraytirish ma'nosini yo'qotadi: Oqcha, Sho'rcha, Qizilcha, Ko'kcha.⁴

Jizzax viloyati hududida ham -cha affiksli yordamida yasalgan oykonimlarni uchratish mumkin. Chunonchi, Zomin va G'allaorol tumanlaridagi Sho'rcha, Qo'rg'oncha, Baxmal, Zomin, Forish va Sh.Rashidov tumanlaridagi Quduqcha qishloqlarining nomi shunday oykonimlar sirasiga kiradi.

-chi affiksli yasama sodda oykonimlar. O'zbek tili tarixida -chi affiksi kishilarning kasb va hunarlarini ifodalovchi nomlarning yasalishida keng qo'llanilgan. Bu affiks hozirgi o'zbek tilida ham faol ishlatiladigan qo'shimcha hisoblanadi. Ushbu affiks, asosan, kasb-hunar nomlaridan (Egarchi, Ketmonchi) hamda etnonimlardan (Baliqchi, Qutchi) oykonimlar yasaydi. Tarkibida -chi affiksi bo'lgan har xil hududidagi oykonimlar leksik materialiga ko'ra bir-biriga yaqin va deyarli bir xil. Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi Ketmonchi, Sh.Rashidov tumanidagi Olmachi, Zomin tumanidagi Sho'rchi va Qutchi, Baxmal tumanidagi Egarchi qishloqlarining nomi ham shu affiks yordamida yasalgan.

-ma affiksli yasama sodda oykonimlar. Hozirgi o'zbek tili va shevalarida -ma affiksi qo'llanilishi jihatidan unumdor morfema sanaladi. Bu affiks, asosan, fe'llardan otlar yasaydi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, -ma affiksi o'rta asrlarda (XIV-XV) juda keng tarqalgan va so'z yasovchi hamda so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha vazifasini bajargan. Ammo hozirgi payta bu qo'shimcha so'z yasovchi affiks hisoblanadi. -ma affiksi fe'lning bo'lishsiz shaklini yasaydi.⁵ Ushbu affiks, asosan, fe'llardan tuzilgan atoqli otlar tarkibida uchraydi. Masalan, Toshkent mikrotoponimiyasi tarkibida Ko'tarma, Bostirma, Qashqadaryo toponimiyasida Jerma, Joyilma joy nomlari shunday yasalgan. -m affiksli oykonimlar Jizzax viloyati hududida kam uchraydi. Ushbu hududda bu affiks bilan yasalgan oykonimlarga misol tariqasida Zomin tumanidagi Qayirma va Cho'nqayma, Sh.Rashidov tumanidagi Ko'tarma, Forish tumanidagi Uchma qishloqlari nomini keltirish mumkin.

-loq affiksli yasama sodda oykonimlar. O'zbek toponimiyasida Toshloq, Qumloq, Sangloq, Parloq kabi atoqli otlar juda keng tarqalgan. O'zbek tili va boshqa turkiy tillarda -loq affiksi ko'plik ma'nosi hamda ma'lum bir joyda biror narsaning mo'l-ko'lligini ifodalovchi joy nomlarining yasalishida ishtirok etadigan maxsus morfema hisoblanadi.⁶

Jizzax viloyati oykonimiyasida -loq affiksi bilan bitta joy nomi yasalgan: Toshloq oykonimi – Jizzax shahridagi mahalla nomi.

-zor affiksli yasama sodda oykonimlar. Kelib chiqshi bo'yicha -zor affiksi fors-tojik tili elementi hisoblanadi. Bu affiks otlarga qo'shilib toponimlar hosil qiladi. Shunigdek, ushbu qo'shimcha predmetning joylashgan o'rni va sonini anglatadi. Ko'pincha, -zor affiksi botanik terminlar, ya'ni o'simliklar va mevali daraxtlarning nomlariga qo'shilib, o'simlik turining ko'p bo'lgan joyini anglatadi. -zor affiksi bilan yasalgan oykonimlarni respublikamizning barcha viloyatlarida uchratish mumkin. Jizzax viloyati oykonimlari tizimida ham -zor affiks yordamida yasalgan joy nomlari talaygina. Jumladan, Bog'zor

(Do'stlik tumanida), Gulzor (Arnasoy va Mirzacho'l tumanlarida), Mevazor (Paxtakor va Do'stlik tumanlarida), Paxtazor (Mirzacho'l tumanida), Uzumzor, Chamanzor (Paxtakor tumanida)⁷ oykonimlari shunday yasalgan.

-lar affiksli yasama sodda oykonimlar. -lar – grammatik ko'plikni bildiruvchi qo'shimcha.⁸ O'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalovchi -lar affiksi ot, sifat, olmosh va otlashgan otlarga qo'shilib grammatik ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.⁹ Toponomist olim S.Qorayev ushbu affiksning etnonimlarning yasashida keng qo'llanilishini ta'kidlaydi. Etnonimlardan shakllangan Qarg'alar, Echkilar, Shag'allar kabi etnooykonimlarni misol qilib keltiradi. Jizzax viloyati oykonimlari tarkibida ham -lar affiksi yordamida yasalgan oykonimlar mavjud. Baxmal va Sh.Rashidov tumanlaridagi Beklar qishlog'i, G'allaorol tumanidagi Olimlar mahallasi, Arnasoy tumanidagi G'oliblar shaharchasi, Zafarobod tumanidagi Sanoatchilar qishlog'i nomi shu affiks bilan yasalgan va toponimlashuv natijasida joy nomlari hosil bo'lgan.

-kor affiksli yasama sodda oykonimlar. -kor – shaxs oti yasovchi qo'shimcha.¹⁰ Jizzax viloyati oykonimlari tarkibida o'zbek va tojik tiliga xos bo'lgan joy nomlarini yasaydigan bir qancha morfologik elementlar mavjud. Biroq bunday affikslar dastlab fors-tojik tilida paydo bo'lgan, keyinchalik, tojik va o'zbek tillarida qo'llanila boshlangan. Toponomist olim S.Naimov "Buxoro viloyati oykonimlari" deb nomlangan tadqiqot ishida -lik morfologik formanti yordamida yasalgan yasama sodda oykonimlarga Minakor, Paktakor, Zardikor, Sabzikor¹¹ joy nomlarini misol qilib keltiradi.

Jizzax viloyati hududidagi joy nomlari qatorida ham -kor affiksi bilan yasalgan oykonimlarni uchratish mumkin: Lalmikor (Zarbdor tumanida), Paxtakor (Jizzax viloyatida), G'allakor (Zomin tumanida).

II. Qo'shma oykonimlar. Qo'shma oykonimlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan hosil bo'ladi: Yangiqo'rg'on, Kichikming, Qozoqovul, Oqtepa singari.

Qo'shma oykonimlar morfologik tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ot+ot qolipidagi qo'shma oykonimlar.

Bu tipdagi qo'shma oykonimlarning ikkinchi qismida, ko'pincha, qishloq, ovul, tepa, cho'l, bog' singari so'zlar qatnashadi. Ularning birinchi qismi antroponimlar, etnonimlar, fitonimlar, gidronimlardan yasalishi mumkin. Masalan, Tojikqishloq, Soyqishloq (Baxmal tumanida), Hayitqultepa, Eshmatovul (Zomin tumanida), Qozoqovul (Do'stlik va G'allaorol tumanlarida), Mirzacho'l (Jizzax viloyatida) kabi joy nomlari shunday oykonimlardir.

2. Sifat+ot qolipidagi qo'shma oykonimlar.

Bu qolipda yasalgan qo'shma nomlarning birinchi qismi rang-tus, hajm, o'lcham, maza-ta'mni ifodalaydi. Oqtosh (Baxmal, Zomin, Forish va G'allaorol tumanlarida), Qorasuv (Baxmal tumanida), Kattasoy (Baxmal, Forish va G'allaorol tu-

manlarida), Kichiksoy (G'allaorol tumanida), Kenjayuz (Forish tumanida), O'rtaqishloq (Baxmal, Zomin, Forish va G'allaorol tumanlarida), Sho'rbuloq (G'allaorol va Baxmal tumanlarida) kabi oykonimlar shunday yasalgan joy nomlaridir.

3. Son+ot qolipidagi qo'shma oykonimlar.

Ushbu qolipda yasalgan qo'shma oykonimlarning birinchi komponenti uch, besh, olti, to'rt, qirq, ming so'zlari bilan ifodalanadi. Beshbola (Forish va G'allaorol tumanlarida), Beshbuloq (Zomin tumanida), Uchog'och, Mingchinor (Paxtakor tumanida), Qirqqishloq (Baxmal va G'allaorol tumanlarida), To'rttom (Forish va Zomin tumanlarida), Uchtepa (Sh.Rashidov tumanida) shunday oykonimlardir.

4. Numerativ so'z+ot qolipidagi qo'shma oykonimlar.

Bu tur qo'shma oykonimlarning birinchi qismida narsa-predmetlarning aniq miqdorini ifodalovchi yakka, qo'sh hamda predmetlarni chamalab, to'dalab ko'rsatuvchi to'p, gala, qator numerativlari ishtirok etadi. Qo'shko'prik, Qo'shbarmoq (Sh.Rashidov tumanida), Qo'shqand (Yangiobod tumanida), Yakkatut, Galaxirmonjoy (Baxmal tumanida), Qatortol (Sh. Rashidov va Baxmal tumanlarida), To'ptolobod (Sh.Rashidov tumani) kabi oykonimlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

5. Ot+fe'l va fe'l+ot qolipidagi qo'shma oykonimlar.

Bunday qo'shma oykonimlar ot va fe'l hamda fe'l va otning birikuvidan tashkil topadi. Jumladan, Tongotar, Eshako'ldi (Baxmal tumanida), Toshkeskan (Zomin tumanida), Eshbo'ldi (Forish va G'allaorol tumanlarida) deb nomlangan joy nomlari shunday qolipda yasalgan.

III. Birikmali oykonimlar.

Uch va undan ortiq komponentlardan iborat joy nomlari birikmali oykonimlar deb ataladi. Bunday oykonimlarni O'zbekiston toponimiyasi tarkibida ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, filolog olim T.Raxmatov o'zining "Samarqand shahri va uning yon-atroflari toponimiyasi" deb atalgan ilmiy tadqiqot ishida Yakkabuloqsoy, G'ishttepasoy¹² oykonimlari haqida ma'lumot beradi. Toponomist olimlar N.B.Begaliyev va A.M.Turobov "Samarqand toponimiyasi" nomli kitobida Beshbolaarig'i, Todmozorsoy, Devxonaso¹³ kabi ko'p komponentli oykonimlarni qayd etishgan.

Jizzax viloyati oykonimiyasi tizimida ham ko'p komponentli oykonimlar kuzatiladi: Xo'jamushkent qishlog'i, Balandchaqir qo'rg'oni, So'zmoyiltepa ko'chasi.

Xullas, Jizzax viloyatidagi oykonimlar grammatik tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma va birikmali oykonimlarga bo'linadi. Sodda oykonimlarning bir qismi tub so'zlar, ko'pchilik qismi esa yasama so'zlarning toponimlashuvi (onomastik konversiya usuli) bilan vujudga kelgan. Qo'shma oykonimlar, asosan, sintaktik-leksik usul vositasida yasalgan, tuzilishiga ko'ra ot+ot, sift+ot, son+ot, ot+fe'l, fe'l+ot qoliplaridan iborat. Birikmali oykonimlar esa uch va undan ortiq so'zlardan tuzilgan bo'lib, oykonimlar tizimida katta bo'lmagan miqdorni tashkil etadi.

¹Raxmatov T. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ин-т. Языкознания АН СССР. – Москва, 1973. – С. 31.

²Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. 495-bet.

³Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: Наука, 1980. – С. 395.

⁴Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. III tom. – Toshkent: Fan, 1960, 1963. 499-bet.

⁵Nafasov T. Qashqadaryo viloyati toponimlari. Avtoref.dis.f.f.n. – Toshkent, 1968. 15-bet.

⁶Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. 495-bet.

⁷Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent, 1957. 336-bet; Hozirgi o'zbek adabiy tili. I tom. – Toshkent, 1966. 226-bet.

⁸O'rinboev B. Jizzax toponimlarining ta'biri. – Samarqand, 2007. 80-bet.

⁹Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. 495-bet.

¹⁰G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. – Toshkent, 1944. – 89-bet.

¹¹Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. 495-bet.

¹²Наимов С. Ойконимы Бухарской области. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 25.

¹³Raxmatov T. Указ. работа.

Dilrabo QUVVATOVA,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek adabiyoti kafedrası professori, f.f.d;

Ixtiyor KAMOLOV,

Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, ilmiy izlanuvchi

PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ROMANI JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA

Annotatsiya. *Shoh va shoir Z. M. Bobur jahon tamadduniga hissa qo'shgan ulug' siymolardan biridir. Shu bois bu tarixiy shaxs haqida dunyo miqyosida tarixiy va badiiy asarlar yaratilib kelinmoqda. Maqolada o'zbek adabiyotining atoqli adibi Pirimkul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida yaratilgan Bobur obrazi biografik yondashuv asosida tarixiy manbalar, qolaversa, jahon adabiyotida Bobur haqida yaratilgan badiiy asarlardagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *biografik yondashuv, tarixiy shaxs, tarixiy roman, badiiy asar, obraz, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, "Boburnoma", "Bobur – yo'lbars".*

Annotation. *Poet and ruler Z.M. Babur belongs to a number of great figures who have made valuable contributions to world civilization. For this reason, literary and historical works of a world scale are still created about this historical character. The article provides a comparative analysis of the novel by famous Uzbek writer Pirimkul Kadyrov "Yulduzli tunlar" ("Starry Nights") with historical sources a from the point of view of a biographical approach.*

Key words: *biographical approach, historical character, historical work, literary work, image, historical truth, fiction, "Boburnama", "Babur – the tiger".*

Аннотация. *Поэт и правитель З.М. Бобур относится к ряду великих фигур, внесших ценный вклад в мировую цивилизацию. По этой причине об этой исторической личности до сих пор создаются художественные и исторические произведения мирового масштаба. В статье дан сопоставительный анализ романа известного узбекского писателя Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи» с историческими источниками с точки зрения биографического подхода.*

Ключевые слова: *биографический подход, историческая личность, исторический роман, художественное произведение, образ, историческая правда, художественная вымысел, «Бобурнаме», «Бабур – тигр»*

Istiqlol chin ma'noda o'zligimizni, milliy davlatchiligimiz tarixini, ma'naviy xazinalarimizni qaytarib bergan ulkan g'alabadir. Asrlar davomida ajdodlarimizdan bizgacha meros bo'lib yetib kelgan kitoblarni qaytadan o'rganish, nashr etish va boshqa tillarga tarjima qilish baxtiga muyassar bo'ldik; tarixiy obidalalarimizni, muqaddas qadamjolarini qayta tiklash, ularni butun dunyoga ko'z-ko'z qilish imkoniyatini qo'lga kiritdik. Buyuk bobokolonlarimiz nomini oqladik, ularni yanada chuqurroq o'rgandik, o'rgatdik. Bir necha ming yilliklarga ega tariximizning ana shunday darg'alaridan biri – shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur Sohibqiron Amir Temurning avlodi, ulkan imperiya asoschisi, mohir sarkarda, buyuk shoir, nosir, xattot, tarjimon, bir so'z bilan aytganda, qomusiy ijodkordir. Uning hayoti va ijodi, ilmiy-badiiy merosi o'zi yashagan davrdan boshlab nafaqat bizning yurtimizda yoki ko'hna Sharqda, balki Yevropa va Amerika mamlakatlarida olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Dunyoning ko'plab tillarida Bobur bosib o'tgan hayot va ijod yo'li haqida tarixiy, badiiy asarlar yaratildi, boburshunoslik ilmi o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Shu o'rinda shoh va shoir bobokolonimiz to'g'risida yozilgan badiiy asarlarning eng sarasi sifatida Pirimkul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini aytib o'tishimiz mumkin.

Pirimkul Qodirov Vatanimizning ko'hna va boy tarixini juda chuqur biladi. Jumladan, uning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi", "Amir Temur timsoli" singari qator tarixiy mavzudagi romanlari zamonaviy o'zbek nasrining oltin xazinasini bezab keladi. Ta'kidlash kerakki, bu asarlar orasida "Yulduzli tunlar" alohida mavqega ega. Bizningcha, mazkur asar muallifning keyingi tarixiy romanlarining yozilishi uchun katta turtki bo'lgan.

"Yulduzli tunlar" ("Bobur") romani, muallifning e'tiroficha, 30 yil davomida – 1969–1999-yillar oralig'ida yozilgan. Zero, mashhur "Shohnoma"ning ham 30 yil mobaynida yozilgani

ma'lumdir. Demak, asar ko'p yillik ijodiy, hayotiy izlanishlar mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Yozuvchi asarni boshlashdan oldin uzoq muddat tarixiy faktlar, o'sha davr muarrixlari qoldirib ketgan tarixiy asarlarni, ayniqsa, "Boburnoma" memuarini qunt bilan o'rganib chiqqan. Bobur shaxsiga nisbatan o'ziga xos muhabbat sezgan Pirimkul Qodirov bu ulkan ishining ilk qadamlarini quyidagicha eslaydi: "Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o'nlab, yuzlab adabiy kemalar buzishi mumkin. "Yulduzli tunlar" ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi. Uni 1972-yilda ilk bor yozib, nashrga topshirganimda tog'day bir yuk yelkamdan tushganday bo'ldi" [1, 3]

Pirimkul Qodirov o'z esdaliklarida roman olti yil mobaynida birorta nashriyotga qabul qilinmaganligini eslaydi. Sho'ro mafkurası sabab o'zbek davlatchiligi va madaniyati tarixidan hikoya qiluvchi "Yulduzli tunlar" asari turli tazyiqlarga uchradi. Asar haqida deyarli salbiy taqrizlar yozildi. O'tgan 6 yildan muallif tushkunlikka tushmasdan, ezgu maqsadidan qaytmagan holda unumli foydalandi: asarni yangi parchalar bilan boyitdi, tarixiy manbalarni, birinchi navbatda, "Boburnoma" memuari va Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarlarini sinchiklab o'rgandi va ulardagi tarix haqiqatini roman sahifalariga singirdi. Muallif so'zlari bilan aytganda "avvaldan rejalashtirilgan, dilda pishitilgan" boblar bilan to'ldirdi. Shunga qaramasdan roman ilk bora 1979-yilda xalqimizning yana bir atoqli farzandi – yirik davlat arbobi va ijodkor Sharof Rashidovning yordami bilan kitob shaklida nashr etildi. 1979–1999-yillar davomida roman tinimsiz qayta ishlashlar natijasida Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston hududlarida yashagan xalqlarning qariyb yarim asr – XV-XVI asrlardagi hayotidan xabar beruvchi o'lmas va nodir asarga aylandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi to'g'risida o'zbek va jahon adabiyotida yaratilgan barcha asarlar orasida "Yulduzli tunlar" romanining alohida ehtiromga sazovor

ekanligining yana bir jihati shundaki, ushbu asarda shoh va shoirning bolalik yillaridan boshlab, to umrining oxirigacha bo'lgan hayot yo'li hikoya qilingan. Bu jihatdan jahon adabiyotida Bobur shaxsiyatiga murojaat qilgan amerikalik sharqshunos Harold Lambning asariga qiyoslashimiz mumkin [2, 3]. Ammo Pirmqul Qodirovning ushbu romani tarixiy haqiqatni badiiy jihatdan xolis ifodalash borasida har qanday asardan ustun turadi. Jumladan, Boburning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot beruvchi "Boburnoma" memuari "Tengri taoloning inoyati ila...tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda (milodiy 1494-yil) Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum" [3, 5] deb boshlangan bo'lsa, "Yulduzli tunlar" romani ham xuddi shu tarixiy jarayondan – yosh Boburning tasodifiy o'lim topgan otasi Umarshayx Mirzo o'rniga Farg'ona taxtiga o'tirishi haqida hikoya qiluvchi "Quva. Qil ustida turgan taqdirar. Milodiy 1494-yilning yozi" tarzida ibtido topadi. Qolaversa, "Yulduzli tunlar" birinchi navbatda badiiy asar, ammo muallif tarixiy haqiqatdan bir zumga ham chekinmagan. Kitobxon bunga bir nechta tarixiy manbalarni qiyosiy o'rganish natijasida amin bo'ladi.

Xususan, yosh Zahiriddinning Farg'ona hukmdoriga aylinish voqeasi badiiy asarlarda turlicha talqin qilinadi. G'arb adabiyotida, jumladan, avstriyalik yozuvchi Fris Vyurtlening "Andijon shahzodasi" qissasida Umarshayx Mirzoning o'limini avvaldan uyushtirilgan, muallif so'zlar bilan aytilganda "... bir sotqin iblis podshoni yovuzlarcha o'ldirgan" [4, 45] deya jinoyat sifatida baholasa, o'sha davrning barcha tarixiy manbalarida bu o'lim tasodifiy fojia deb baholanadi. Boburning o'zi bu holatga "Vaqoye"sida "Umarshayx Mirzo jandin kabutar va kaburxon bilan uchub, shunqor bo'ldi" [3, 10] deb yozgan bo'lsa, XVI asr muarrix Mirzo Muhammad Haydar o'zining qimmatli "Tarixi Rashidiy" asarida "Umarshayx Mirzo kabutarxonadin kabutar birla uchub, shunqor bo'ldi" [5, 250] deya o'lim sirli jinoyatning natijasi emasligiga ishora qiladi. Pirmqul Qodirov bu masalaga birinchi navbatda ilmiy manbalar bilan bahslashmasdan, qolaversa, kitobxonni tarixiy haqiqatdan chalg'itmaslik uchun "kutilmagan falokat" [6, 32] sifatida yondashadi.

Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda badiiy to'qimadan ham foydalaniladi. Bu badiiy adabiyotning spetsifik xususiyatidir. Buyuk adib asarda badiiylilikni "libosi mavzun" etgan holda, o'tmish voqeiligini san'atkorona aks ettira olgan. Binobarin, romanda juda erta hokimiyat tizginini qo'lga olgan 12 yoshli hukmdorga uning bet atkasi Mazidbek dalda berish maqsadida "Podshoh hazratlari sizni "Bobur" deb ataganlari bejiz emas. "Bobur" arabchada "sher" demakdir" [6, 35], - deydi. Ya'ni P. Qodirovning e'tiroficha, tug'ilganligida "Zahiriddin Muhammad" deb ism berilgan valiahd shahzodaga "Bobur" nisbatini otasi Umarshayx Mirzo bergan. Mazkur fikrning tarixiy manbalarda quyidagicha talqin etilganligini kuzatish mumkin. Xususan, Boburning xolavachchasi, muarrix Muhammad Haydar Mirzo (1499–1551) "Tarixi Rashidiy"da unga ism qo'yish ulug' shayx Xo'ja Ahror Valiyya topshirilganini, shayx chaqaloqqa otasi va xon dodasi Yunusxon ishtirokida "Zahiriddin Muhammad" deb ism berganini, ona tomonidan qarindoshlari ko'chmanchi chig'atoylarga chaqirish qiyin bo'lmasligi uchun "Bobur" ismi ham qo'shib aytilganligini ta'kidlaydi [5, 249–25]. Amerikalik sharqshunos H. Lamb esa "Bobur" ismini chaqaloqning nomiga "biroz yovvoyi va talavsiz bo'lgan Yunusxon "Zahiriddin Muhammad" ismini talaffuz qilolmagani uchun qo'shgan", [2, 11] - deb yozadi. Ushbu masalaga oid eng qiziqarli yondashuv esa avstriyalik yozuvchi F. Vyurtlega tegishli bo'lib, unga ko'ra tug'ilganida faqat "Zahiriddin Muhammad" ismi berilgan. 15 yoshni to'ldirib, Axi qal'asini sotqinlardan qaytarib olganida hukmdorga askarlari tomonidan "Bobur – yo'lbars" ismi berilgan ekan. [4, 57]

Ta'kidlash kerakki, mazkur hayotiy voqelik Pirmqul Qodirov romanida tarix haqiqatiga mos ravishda ifoda etilgan. Ma'lumki, Bobur Farg'ona hukmdori deb e'lon qilingan dastlabki kunlardan boshlab taxt-uchun jang-u jadallar domiga tortiladi. Hali otasining vafotiga ko'nikolmagan, qolaversa, xalqni boshqara olish qobiliyatini to'liq egallashga ulgurmagani Bobur sarhadlariga uning qondosh amakisi Sulton Ahmad Mirzo urushga tashna beklarining ra'yiga qarshi chiqa olmasdan bostirib kiradi. Dushmanlikni to'xtatib, sulhga chorlab yuborilgan elchilik samarasiz yakunlanadi. Ammo Quva hududiga kiraverishdagi Qorasuv ko'prigi qulab, qo'shin talafotga uchraydi va Farg'ona viloyatini tark etishga majbur bo'ladi – bularning barchasi tarixiy manbalardagi ma'lumotlardir. Xususan, "Boburnoma"da ham bu voqeaning "... qalin cherik kelib ko'rukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib zo'ye' bo'ldi" [3, 20] deya tasodif ekanligi aytiladi. "Yulduzli tunlar" romanida esa muallif bu tarixiy jarayonga badiiy tus beradi: go'yoki Quvasoy ko'prigi tasodif tufayli qulamagan, ya'ni Tohir ismli yigit boshliq bir guruh quvalik yigitlar o'z yurtlarini himoya qilish maqsadida ko'prikn avvaldan "mixlarini sug'urub, to'sinlarni arralab" [6, 65] shikastlab qo'yishadi va dushmanga qarshi chiqadilar. Pirmqul Qodirov shu voqelik orqali Tohir obrazini asrga olib kiradi va uni roman boshidanoq Bobur taqdiriga bog'lab qo'yadi. Aytish mumkinki, Tohir keyingi voqealar davomida Boburning ishonchli sarkardasi, mulozimiga aylanadi. Shu asnda mamlakat ozodligi uchun o'limga ham tayyor ikki vatanparvar shaxs timsoli gavalantirilgan. Shu bilan birga adabiyotshunos va yozuvchi R. Haydarova ta'kidlaganidek: "Yozuvchi Boburning yonida oddiy xalq ichidan chiqqan yaqin safdoshlar borligini ko'rsatish niyatida bo'lgani uchun Tohir oftobachini tanlaydi va asar davomida uni obraz sifatida bosqichma-bosqich rivojlantira boshlaydi". [7, 2]

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, muallif ushbu quvalik qahramonga bekorga Tohir deya nom bermagan. Aslida ko'pchilik kitobxon ahli uchun badiiy to'qima obraz hisoblangan Tohir obrazining ham tarixiy ildizlari bor. Xususan, shoh va shoirning farzandi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarida toj-u taxtdan charchagan otasining mamlakat ishlarini o'g'li Humoyunga topshirib, "...Zarafshon bog'ida bir burchakda o'tirsam, mening xizmatim uchun Tohir oftobachi ham yetib ortadi" [8, 42] degan so'zlarini keltirib o'tadi. Demak, "Yulduzli tunlar" romanida tasvirlangani singari Tohir ismli qahramon tarixda ham Boburning eng yaqin kishilaridan bo'lgan.

Romanning sujet chiziqi "Boburnoma" asari asosida shakllantirilgan. Asarda Bobur hayoti sahifalari memuardagi xronologik ketma-ketlikka asoslangan holda ifoda etilgan. Muallif Boburni faqat davlat boshqaruvi, qizg'in jang-jadallar, g'alaba-yu mag'lubiyatlar komida emas, balki ruhiy jarayonlar, shoh va shoirning o'z-o'zi bilan keskin ichki kurashlari iskanjasida ham tasvirlangan. Boburning hukmdorlikda bobokaloni Sohibqiron Amir Temurga, shoirlikda Alisher Navoiyga bo'lgan yuksak hurmati va muhabbati romanning deyarli hamma boblarida o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Buni asardagi "Boburnoma"dan keltirilgan parchalarda ham ko'rish mumkin.

XV asr oxiri – XVI asrning boshi Movarounnahr tarixida alg'ov-dalg'ovlar, toj-u taxt kurashlari davri bo'lgan. Bunday holatlarda eng og'ir yuk doimo oddiy xalqning zimmasiga tushgan. Zahiriddin Muhammad ham boshqa temuriyozdalar singari parchalanib ketgan Amir Temur saltanati qayta tiklash orzusi bo'lgan. Ammo Sohibqiron poytaxti Samarqandni egallash yana bir urush, qo'n to'kilishi, shahar ahlini talash degani edi. Tarixdan ma'lumki, Bobur bu shaharni 3 marta egallagan, lekin har safar bu yerda uzoq muddat hukmronlik qila olmagani. Shu bois P. Qodirov o'z asarida har safar

Samarqand egallanishini shunchaki saltanat ishtiyoqi uchun emas, balki boshqa vajlar bilan bog'lashga urinadi. Romanda birinchi marta 1497-yilda Samarqandga qilingan yurish shunchaki harbiy maqsad emas, balki or-nomus uchun boshlangan urush sifatida talqin qilinadi. Sababi – 5 yoshligida Boburga unashirilgan Oysha Begim otasi Sulton Ahmad mirzoning o'limidan so'ng Samarqand taxtini egallagan Boysung'ur Mirzo ta'qibiga uchraydi. Oysha Begimdan yordam kutayotganligini eshitgan Bobur poytaxt tomon qo'shin tortadi [6, 92]. Ikkinchi marta 1500-yildagi Samarqand yurishiga sabab sifatida esa Shayboniyxon yurishidan so'ng talon-taroj etilgan oddiy xalqni ko'chmanchilar domidan qutqarish hamda qirg'inga uchratitgan temuriyodalarni chingiziylar qatli omidan asrab qolish edi. 1511-yilda uchinchi marta Samarqandni Eron shohi Ismoil Safaviy yordamida egallagan Bobur azaldan davom etayotgan shia-sunniy bahslariga yakun yasash, bu orqali minglab odamlar hayotini saqlab qolish, Movarounnahrni bir nechta mayda xonliklarga bo'linib ketishdan asrab qolish edi. Boburning Amir Temur poytaxtini uchun qilgan hujumlariga sabab bo'lgan yuqoridagi omillar faqatgina tarixiy faktlar emas, balki P. Qodirovning go'zal badiiy tasavvuri hamdir.

Zahiriddin Muhammad biografiyasidagi eng munozarali mavzularidan biri – shubhasiz, opasi Xonzoda Begimning Shayboniyxon nikohiga berilishi masalasidir. Bu borada nafaqat badiiy asarlarda, balki tarixiy manbalarda ham turlicha fikrlarni uchratish mumkin. Tarixdan ma'lumki, Bobur Samarqandni 1500-yilda ikkinchi marta egallaydi. Ammo biroz muddatdan so'ng u Shayboniyxonga yengilib, shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Orada sulh tuzilgandan so'ng, Bobur yaqin insonlari bilan Samarqandni tark etadi, biroq uning tug'ishgan opasi dushman qo'liga asir tushadi va Shayboniyxon nikohiga beriladi. "Boburnoma" asarida muallif opasi kutilmaganda "Shayboqxonning iligiga tushti",

[3, 97] deb ta'kidlaydi. Ammo barcha tarixiy manbalarda ham bunga tasodif deb qaralmaydi. Xususan, Gulbadanbegim "Humoyunnoma"da: "Otam hazratlari olti oy davomida Samarqandni olmoqqa urindilar, lekin maqsadlariga yeta olmadilar... hech joydan madad va yordam kelmagach, ma'yus bo'ldilar. Ana shunday vaqtda Shohibekxon "Agar... Xonzodabegimni menga bersangiz oramizda sulh tuziladi va ittifoqlik aloqalari o'rnatiladi", deb aytgizib yubordi. Oxiri Xonzodabegimni o'sha xonga berib, o'zlarining qaytishlari zarur bo'ldi" [8, 29-30], – deya otasi go'yo o'z opasini ongli ravishda dushman qo'liga topshirib ketganini izohlaydi. Boburning xolavachchasi, tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida ham xuddi shunday talqinni o'qishimiz mumkin: "Bobur Podshohning toqati toq bo'lib, Shohibekxonga opasi Xonzoda Begimni berib, sulh tuzdi-da, ketdi" [5, 251]. Bu bahsli munozaraga qo'shilgan badiiy asarlarda esa boshqacha talqinni uchratishimiz mumkin. Amerikalik sharqshunos, yozuvchi H. Lamb "Bobur – yo'lbars" asarida "Ukasiga hamisha sadoqat bilan xizmat qilgan Xonzoda Begim o'z ixtiyori bilan Shayboniyxon huzurida qolganday tuyuladi"

[2, 69] deb yozadi va Bobur opasini dushmanga topshirib, o'z hayotini saqlab qoladigan inson emasligini uqtiradi. "Yulduzli tunlar" romanida atoqli ijodkor yuqoridagi tarixiy chalkashlikka go'zal badiiy "uydurma" kafsh qilib javob qaytargan. Ya'ni Pirmqul Qodirovning badiiy talqiniga ko'ra, Shayboniyxon Xonzoda Begim nomiga ishqiy maktub yo'llab, agar uning nikohiga o'tsa, ukasi Bobur va uning yaqinlarini sog'-salomat shaharni tark etishiga ijozat berishini bildiradi. Onasi va qolgan yaqinlarini o'limdan asrab qolish, qolaversa, "...hamma balolarga o'zini tutib berib ukasini yov qurshovidan xalos qilish" [6, 254] maqsadida Xonzoda Begim Boburning bunga ko'nmasligini sezib, hech kimga sezdirmasdan o'z ixtiyori bilan Shayboniyxonning huzuriga boradi. Shoh va shoirga

o'zgacha hurmat va muhabbat tuygan P. Qodirov o'z romani-da unga opasini dushman qo'liga topshirishga majbur qilgan uka sifatida ta'rifi olmaydi. Yoxud ba'zi adabiyotshunolar ta'kidlaganlaridek [7, 2], yozuvchi bu vaziyatda asosiy badiiy urg'uni Boburga emas, Xonzodabegimning ukasi, onasi va boshqa yaqinlarini qutqarish uchun qilgan jasoratiga beriladi.

Ba'zi masalalar xususida "Boburnoma" va boshqa tarixiy manbalar to'liq mutanosib kelmagan holatda Bobur shaxsiyatiga murojaat qilayotganida Pirmqul Qodirov birinchi navbatda "Boburnoma"ga tayanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz – Xonzoda Begimning Shayboniyxonga uzatilishi masalasini Bobur biroz ehtiyotkorlik bilan, mas'uliyatni o'zidan soqit qilgan holda tasvirlagani, "Yulduzli tunlar" asarida ham xuddi shu yo'l tanlanganligi, haqiqiy tarix biroz "o'zgartirilib" tasvirlanganini ko'rish mumkin. Ammo barcha bahsli mavzularda ham bunday emas, ya'ni Bobur va P. Qodirov har doim ham haqiqiy voqeilikni biroz boshqacharoq aks ettirishmagan. Masalan, Kobuldagi isyon masalasiga e'tibor qaratsak: aslida Bobur Afg'onistonda hukronlik qilayotganida Xuroson sultoni Husayn Boyqarodan Shayboniyxonga qarshi birlashish taklifini oladi. Ammo yarim yo'lda yetganida Boyqarodan vafoti xabarini eshitadi. Y ortga qaytmasdan, sultonning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirish maqsadida Hirotda boradi. Shu vaqtda Kobulda unga qarshi isyon ko'tariladi. Bu isyonda pochchasi, tarixchi Haydar mirzoning otasi Muhammad Husayn ham ishtirok etadi. Bobur isyonni bostirgach, "Boburnoma"da keltirganidek: "Bore baharhol Muhammad Husayn mirzoni xonimning to'shakxonasidan topib, arkta mening qoshimga kelturdilar... agar pora-pora qilsam, yeri bor edi, turluk-turluk azob-u uqubat bila o'lmakka sazovor edi, chun orada bir nav ulug'luq bo'lube di, maning tuqqan xolam Xo'b Nigorxonimdin o'g'lonlari va qizlari bor edi. Bu huquqni yod qilib, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim" [3, 212-213]. Demak, Bobur isyonchining qilmishidan qattiq darg'azab bo'lganiga qaramasdan, insoniylik nuqtai nazaridan, qolaversa, xolasi va xolavachchalarining hurmati yuzasidan Muhammad Husayn mirzoni jazodan ozod qiladi. Otasining bu fikrlarini Gulbadanbegim ham tasdiqlaydi. "Humoyunnoma"da muallifning yozganidek, Bobur isyonchini "xolalarining xotirasini qilib, Mirzo Muhammad Husaynning gunohidan kechdilar va ozod qildilar" [8, 32].

Ushbu masalaga Muhammad Haydar Mirzo o'z asarida tarixchi emas, birinchi navbatda farzand sifatida murojaat qiladi. U o'z otasidan nuqson izlamaydi, uning bu kamchiligiga izohlar berishga hamda padarini oqlaydigan asoslar keltirishga harakat qiladi. Isyon bostirilgach, yengilgan otasi va Boburning uchrashuvini "Tarixi Rashidiy"da muallif "Boburnoma" hamda "Humoyunnoma" dan farqli ravishda quyidagicha tasvirlaydi: "Bobur Podshoh otamni ko'rgach, shosha-pisha, ilgari rasm-odatga ko'ra ta'zim qilib kelib xursand bo'lib, kulib u bilan quchoqlashdi, mehribonlik bilan sog'ligini, ahvolini so'radi... U himmat va muruvvat ko'rsatib, ular bilan samimiy suhbatlashdi va qaysi yo'lni tanlashni: ketishadimi yoki u bilan qolishadimi, o'zlarining ixtiyorlariga qo'yib berdi"

[5, 309]. Demak, ushbu tarixiy haqiqatni yoritishda Muhammad Haydar Mirzo real yondashmagan. Pirmqul Qodirov esa yuqoridagi bahsda "Boburnoma"dagi variantni tanlaydi. "Yulduzli tunlar" asarida muallifning tasvirlashicha, isyonchilarning boshliqlaridan biri – "Xotinlarning xonasidagi... bo'g'jamaaning ichiga yashiringan" [6, 334-335] pochchasi Muhammad Husayn dug'lat qo'lga tushgach, hukmdor oldida tiz cho'kib, tavba qilganini aytadi. Bobur esa marhuma xolasi hamda xolavachchalarining hurmati pochchasini afv etadi va uni o'z ixtiyoriga ko'ra Kobuldan chiqib ketishiga izn beradi. Ana shu tarixiy jarayonlar yoritilgan barcha tarixiy va badiiy

asarlarda Boburning kechirimli, qarindoshlariga muruvvatli, kattalarga bo'lgan hurmatini madh etadi. Jumladan, isyonchi Muhammad Husaynning o'g'li, muarrix Muhammad Haydar mirzo ham o'z asarida bekorga xolavachchasini "Turli go'zal fazilatlar, maqtovgga loyiq sifatlariga ega podshoh edi. Barcha sifatleri ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi" [5, 250] deb ta'rif bergani bejiz emas.

Yuqoridagi tahlillar Pirimqul Qodirovning mavzuni yoritishda, avvalo, "Boburnoma"ga tayanib ish ko'rganligini, shu bilan birga Bobur davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlarga ham murojaat etganligini ko'rsatib turadi. Chunki "Boburnoma"ning bizgacha yetib kelmagan qismlaridagi tarixiy jarayonlar, Bobur aynan keng yoritmagan voqea-hodisalarga ham batafsil to'xtalib o'tishga harakat qiladi. Buning uchun "Humoyunnoma", "Tarixi Rashidiy", Xondamir va Mirxondning tarixiy asarlarini, qolaversa, XV-XVI asr Turon, Eron, Afg'oniston va Hindiston tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalarni chuqur o'rganganligi ko'zga tashlanadi. Shu boisdan ham "Yulduzli tunlar"da Boburning Samarqandni qay-

ta qo'lga kiritish uchun shialar hukmdori Ismoil bilan tuzgan ittifoqi va uning muvaffaqiyatsiz natijasi, o'z Vatanini shundan so'ng butunlay tashlab betganligi va boshqa qaytib kelmaganligi juda mahorat bilan tasvirlanadi. Hindistonni egallashdagi qon to'kilishlar, xiyonat, yaqinlarining har qadamdagi vafoti Boburning qalbini tirnaganligi aniq. Biroq uning og'ir musibatlar boshiga tushganda ham matonatli va sabrli bo'lganligi realistlik lavhalarida o'z ifodasini topgan.

Ko'rinadiki, Bobur shaxsiga qiziqish va u haqda asarlar yaratish ulug' ijodkor yashagan davrdan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Yuqorida tilga olganimiz va qiyoslaganimiz tarixiy va badiiy asarlar mulohazalarimizni tasdiqlab turadi. Bunday asarlar orasida buyuk adib Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani Zahiriddin Muhammad Boburning hayot va ijod yo'li haqida hikoya qiluvchi eng nodir ham badiiy, ham tarixiy manba sifatida umrboqiylik kasb etishini alohida qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 542-b.
2. Lamb H. Bobur – yo'lbars. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. 296-b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Fan, 2019. 440-b.
4. Vyurtle F. Andijon shahzodasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. 160-b.
5. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq, 2010. 720-b.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2018. 544-b.
7. Risolat Haydarova. Tarixiy haqiqat, badiiy to'qima va uydurma. "Sharq yulduzi" jurnali. – Toshkent: 2017-2.
8. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. 104-b.

Kichik tadqiqot

Zebo YAXSHIYEVA,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi

MUHAMMAD ALINING "ULUG' SALTANAT" TETRALOGIYASIDA TARIXIY HAQIQATGA ASOSLANGAN BADIY TO'QIMALAR

Ma'lumki, tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish yozuvchidan ijodiy izlanish, matonat, faktik materiallarni sinchiklab o'rganishni taqozo qiladi. Bu haqida so'z yuritganda "...tarixiy roman ijod qilishda boy material yig'ish ham mashaqqatli mehnat, lekin yig'ilgan materialni saralash, tanlay bilish, chegaralash, uni badiiy qayta ishlash katta san'atdir" [1].

Muhammad Alining uzoq yillik ijodiy izlanishlari natijasi o'laroq dunyoga kelgan "Ulug' saltanat" tetralogiyasida temuriylar sulolasining o'ziga xos strategik konsepsiyasi, davr, muhit, jamiyat hayoti, evolutsion o'sish-o'zgarishlar faktik materiallar negizida qayta kashf qilinadi.

V.G.Belinskiy ta'biricha, "nima bo'lganini aytib bering – bu hali tarix bo'la olmaydi" [2]. Darhaqiqat, mu'tafakkir inson haqida yozganda yozuvchi oldida juda katta mas'uliyatli vazifalar turadi. "Ulug' saltanat" tetralogiyasi yangi o'zbek adabiyotida tarixiy epopeyaning o'ziga xos shakli sanaladi.

Tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishda yozuvchi muhim faktik materiallarni – Amir Temur davridagi muarrixlar qo'lyozmalaridan tortib, risolalarigacha o'rganadi. Romanda qo'llanilgan davr muhitiga oid badiiy tafsilotlarda yozuvchi ijodiy niyatining ko'lamdorligi sezilib turadi. Bu borada akademik B.Nazarov: "Yozuvchining asosiy maqsadi ulkan tarixiy voqealar, jang-u jadal-lar, saltanat qudrati-yu turli mamlakatlar zabt etilishini ko'rsatish emas, ularni muayyan ma'noda badiiy fonga o'tkazib, asosiy e'tibor shu fon mohiyatini harakatga keltirgan inson – Sohobqiron hamda uning atrofida-gilar-ni, uzoq-yaqinda u bilan munosabatda bo'lgan kishilar qalbini, ularning goh shu kun, goh o'tmish, goh kelajak-dagi holatlarini tasvirlashdan iborat bo'lganini ko'rsatadi" [3]. Binobarin, romanda "sujet tamsili" epik ko'lam-dorlikni kompas (kompozitsiya vaqti) bilan yagona es-tetik markazga yo'naltirganligi e'tiborga loyiq jihatlardan biridir. Roman-epopeyaning ikkinchi kitobi "Jahongir Mirzo" nashr qilinganiga o'n to'qqiz yil bo'lgan bo'lsa-

da, asar bir necha tuzatishlar bilan ikki-uch marotaba bosmadan chiqdi. Jarayon shuni ko'rsatmoqdaki, "badiiy to'qimaning" hayotiylikni ta'minlashga qaratilgan voqelik xronologiyasi zanjiri epik kanonlarni yangilashga qaratildi.

"Jahongir Mirzo" roman-epopeyasidagi tarixiy voqelik ketma-ket bo'ladigan jang-u jadallar haqidagi ogohlikni, saltanat muqimdorligini saqlashda hushyorlik eng asosiy yumush ekanini talqin qilishdan boshlangan. Unda davrning muayyan konseptual solnomasi Jahongir Mirzo singari jahongashta sarkardaning, otasiga mehribon, fazli odil o'g'lining xarakterini teran chizishdan iborat bo'libgina qolmay, oiladagi murosani muvozanatda ushlay olish qobiliyati xususida ham to'la-to'kis ma'lumot beradi. Yozuvchi "Sohibqiron farzandlari" nomli maqolasida Jahongir Mirzoning portretiga shunday ta'rif beradi: "Amir Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzo 1356-yilda tug'ilgan, o'n to'rt-o'n besh yoshlaridanoq sarkardaning yoniga kirib janglarda ishtirok etgan. Umuman, farzandlar, o'g'illar ham, qizlar ham harbiy san'at sirlaridan yaxshi xabardor bo'lishgan. Jahongir Mirzo Amir Temurning Turmish oqa degan xotinidan dunyoga kelgan. Ba'zan uni Nurmish, Nurmushk oqa deb yozishadi, to'g'risi, bizningcha, Turmish oqa; oilada farzandlar turavermaginadan keyin, yangi tug'ilgan chaqaloqqa umid bilan "Turdi", "Tursun", "Turmish" kabi ismlarni qo'yish odati xalqimizda azaldan bor. Turmish oqa Sohobqironning yaqin safdoshlaridan biri Amir Joku barlosning dilbandi edi" [4]. Mazkur tarixiy haqiqat yozuvchi nazdida roman sujetida hamda voqelikni badiiyatga aylantirishda juda qo'l kelgan. Asarda aynan hayotiy materiallar – Nizomiddin Shomiy va Ali Yazdiyning asarlarida uchraydigan ma'lumotlarning ham hissasi beqiyosdir.

Jahongir Mirzo tabiatan mard, dovyurak, mas'uliyatli, Amir Temur o'zi komil ishonch bildirganidek, saltanat ishlarining davomchisi sifatida ulug'langan edi. Bu haqida ba'zi tarixiy manbalarda ham, jumladan, Xondamirning "Habib us-siyar" asaridagi "Nasabnoma"da ham aniq ma'lumotlar keltiriladi. Jahongir Mirzo endi bilagi kuchga to'lib, hayot haqidagi tasavvurlari o'tkirlashgan, ota va ona ishonchini oqlash uchun bel bog'lagan yigirma yoshida og'ir betoblikdan vafot etadi. Bu judolik Amir Temur qalbini juda qattiq tirnaydi. Haqiqatan ham u o'g'lining rafiqasi Xonzoda xonimni "qizidan ham qattiq ardoqlardi". Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirgan roman-epopeyaga murojaat qilamiz:

"Jahongir Mirzo yo'rg'alay boshlagan otini sekinlatdi. U asli Xorazm, umuman, Turon tarixini yaxshi bilardi. Amir Temur xonadonida farzandlariga bilim berish, harbiy mahoratni oshirish to'g'risida hamisha qayg'urib

kelinardi. Qisiq ko'zlari doim kulib turadigan, chiroyli Sohobqironga moziydan hikoyalar so'ylaganda, Amir Temur bolakay shahzodani ham o'ltirib tinglashga undar, o'zi har turli savollar yog'dirib tashlardi. Ana shu suhbatlarda shahzoda xiyla savodini oshirgan, hatto bir marta Byuuk Turk xoqoni Istamiy haqida qayta-qayta savollar berib padari buzrukvorini ham, qissaxonni ham hayron qoldirgan. Xorazmshohlar Takash, Ma'mun, Muhammad Xorazmshoh, Sulton Jaloliddin taqdirlari ham unga ma'lum. Ammo hozir u atay, Axiy Jabbor Bahodir gaplarini Xorazm haqida birinchi marta eshitayotgan g'ofil bir odamday berilib tinglardi" [5].

Ko'rinadiki, asarda Amir Temurning komil farzandlari haqidagi ma'lumotlar ham to'laqonli ochib berilgan, ularning insoniy sifatleri bilan shahanshohlik fazilatleri ham yoritilgan. Demak, yozuvchining badiiy g'oya konsepsiyasida ota-farzand munosabatlari tig'izligi, o'zaro suhbatlarda hal qilinadigan qarorlar ijrosi, dorulsaltanatdagi fazli-ikrom tamoyili ham muayyan darajada haqqoniy ifodasini topgan.

Munaqqid O.Golubev yozishicha: "Asar qahramoni yozuvchi tasvirlayotgan davrni qanday tushunish va tushuntirishning bosh mezonidir. Sirasini aytganda, asar qahramoni obrazida mujassamlashgan davrning o'zi tarixiy romanning qahramonidir" [6]. Darvoqe, "Jahongir Mirzo" roman-epopeyasida Jahongirning xarakterida mujassamlashgan turfa fazilatlar o'sha davr muhitini to'laligicha anglashga, ma'lum darajada his qilishga keng yo'l ochadi. Jahongir Mirzoning betobligi, atrof-javonibdagi unga bo'lgan munosabatlar, mehribon volidasining mehr-muruvati, suyuqlik yorining muhabbati tasvirlarida haqiqiy voqelikni kuzatamiz. Yozuvchi tasvirni quyuqlashtirish barobarida tarixiy voqelikni, Amir Temur islohotlarining tadjriy takomili farzandlar xatti-harakatlarida bardavom ekanligini dalolatlashga ham erishadi.

Umuman, roman-epopeyadagi tarixiy haqiqatning poetik talqini Jahongir Mirzo shaxsini individuallashtirishga qaratilgan qator tafsilotlarda to'laligicha namoyon bo'lgan. O'tmish va kelajak haqida chuqur o'ylashga undagan asar kompozitsiyasida Amir Temur saltanatining har tomonlama mustahkam qo'rg'oni, undagi bunyodkorlik va obodlik borasidagi tizimli ishlar, sohobqiron va farzandlarining shariat ahkomlari nazdida dunyo xalqlariga o'mak bo'lgulik chin insoniy fazilatleri teran falsafiy-estetik mushohadalarda yoritilgan. Chunonchi, davr manzaralarini keng epik planda yoritgan, batafsil tarixiy voqelikni badiiy haqiqatga aylantira olgan adib ijodiy kredosi murakkab va ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1972. 102-bet.
2. Белинский В.Г. Сбор. соч. в 3-х томах. Т. 2. – Москва, 1948. – С. 288.
3. Nazarov B. Barhayot asar. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo. Tetroligiya 1-jild. – Toshkent: Navro'z, 2019. 7-bet.
4. Muhammad Ali. O'z-o'zingni anglab yet. – Toshkent: Sharq, 2012. 432-bet.
5. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo. – Toshkent: Navro'z, 2019. 182-bet.
6. Вопросы литературы. 1958. – №1. – С.84.



Екатерина АМИНОВА,

преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

РЕДУКЦИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРАКТИЧЕСКОЙ ФОНЕТИКИ

«Другой язык – это другое видение жизни» (Федерико Феллини)
«Слово – великое оружие жизни» (В.О.Ключевский)

Проблемы в произношении слогов и слов возникают весьма часто. Существует множество инструментов и методик, разработанных для тренировки произношения, однако наиболее эффективными являются знание правил редукции и их практическое применение.

Редукция – это исторический процесс ослабления, сокращения или потери звучания гласных звуков в безударном положении, фонетическое явление, отражающее способы лексических и грамматических изменений в языке.

Ниже мы приводим примерный план занятия по практическому применению редукции при изучении английского языка.

Тема занятия: Reduction.

Цели: повысить интерес студентов к занятию, разъяснить значение таких фонетических терминов как *phonetics, phonology, vowel, consonant and reduction*; расширить знания студентов по фонетике; практически применить полученные знания с использованием упражнений; пополнить словарный запас; развить навыки правильного, беглого и аутентичного произношения при индивидуальной, парной и групповой работе.

Необходимые материалы: раздаточный материал (картинки), PPP слайды аудио- и видеоматериалы, компьютер, проектор, звуковые колонки, маркеры для доски, ручки, карандаши, листы белой бумаги, доска, наглядные пособия.

Вводная часть занятия: Warm-up activity «Listening Perception». Каждый студент получает раздаточный материал № 1. Преподаватель включает аудиоматериал № 1, студенты его прослушивают и заполняют раздаточный материал № 1, затем прослушивают аудиоматериал № 2 и заполняют раздаточный материал № 2, после выполнения заданий проводится групповая проверка с учителем.

Раздаточный материал № 1

WRITE THE WORDS YOU HEAR:					
1.	2.	3.	4.	5.	6.
7.	8.	9.	10.	11.	12.
13.	14.	15.	16.	17.	18.

Раздаточный материал № 2

Choose the word that you heard from the three choices:

- | | |
|-----------------------------|----------------------------------|
| 1. __ tall __ tool __ towel | 6. __ hole __ hall __ howl |
| 2. __ tall __ tool __ toil | 7. __ hall __ howl __ hole |
| 3. __ toil __ tail __ towel | 8. __ hall __ howl __ hole |
| 4. __ towel __ toil __ tail | 9. __ forest __ forced __ first |
| 5. __ tail __ towel __ toil | 10. __ forest __ forced __ first |

Задание № 1. «Word Master» – вводная игра.

Для более правильного понимания темы и полной вовлеченности каждого студента в процесс формирования ее понимания преподаватель проводит со студентами игру. Группа студентов делится на три команды по 4-5 человек в каждой. Каждая группа выбирает для

себя любую согласную букву английского алфавита. Далее преподаватель обозначает каждую команду одной из трех частей речи. Например: «**noun, verb, adjective**». Цель каждой команды – в течение 5 минут написать как можно больше слов на данную им часть речи, начинающихся с выбранной ими согласной буквы. По истечении времени проверяется написание и соответствие заданию, выбирается команда-победитель.

Основная часть занятия. «Reduction of vowels in the English language».

Преподаватель знакомит студентов с основными терминами, проводит повторение гласных и согласных звуков английского языка и объясняет основную тему с использованием наглядных пособий, раздаточного материала № 3 и презентации. После ознакомления с правилами основной части урока преподаватель представляет вниманию студентов видеоматериал № 1. (Ссылка на видеоприложение описания картинки – www.englishvid.com/How_to_speak_naturally_in_English_Reduction_Mistakes).

Раздаточный материал № 3

Phonetics is the systematic study of speech and sounds of language.

Phonology is the study of how sounds are organized and used in natural languages.

A vowel is a speech sound made with your mouth open and your tongue in the middle of your mouth not touching your teeth, lips, etc. Five of the 26 alphabet letters are vowels: **A, E, I, O and U**. The letter **Y** is sometimes considered a sixth vowel because it can sound like other vowels.

Reduction is a historical process of weakening, shortening or disappearance of vowel sounds in unstressed positions. This phonetic phenomenon, as well as assimilation, is closely connected with the general development of the language system. Reduction reflects the process of lexical and grammatical changes.

Strong vowels: a, o, u

Soft vowels: e, i, y

1. Soft reduction.

Reading of soft vowels, which are **e, i, y** in unstressed position will give **phoneme #2 [i]**

Examples: basket ['bæskɪt], cabin ['kæbɪn], angry ['æŋɡrɪ]

2. Hard (strong) reduction.

Reading of strong vowels, which are **a, o, u** in unstressed position will give **phoneme #12 [ə]**

Examples: company ['kʌmpəni], tomorrow [tə'mɔ:roʊ], supply [sə'plai]

3. Special reduction.

Reading of the vowels **e, i, a** in unstressed position before the combinations **-nt, -nce, -ble** will give **phoneme #12 [ə]**

Examples: absence ['æbsəns], tenant ['tenənt], terrible ['terəbl]

4. Complete reduction.

Reading of the vowels **o, e, ai** at the end of the word before the letter "n" is called complete reduction, because these vowels are not pronounced at all.

Example: open [ˈəʊpən], abandon [əˈbændən], Britain [ˈbrɪtən]

5. Not complete reduction.

Reading of “a” in unstressed position under the influence of letter combinations -ge, -te, -de will give **phoneme #2 [ɪ]**

Examples: average [ˈævərɪdʒ], create [kriˈeɪt], blade [ˈbleɪd]

6. Reduction of the 3rd type (R + consonant) and the 4th type (R + vowel).

All the vowels in the 3rd and 4th types in unstressed position will give **phoneme #12 [ə]**

Examples: The 3rd type: mister [ˈmɪstə], the 4th type: fire [ˈfaɪə]

7. Reduction of digraphs.

Digraphs -ee, -ea, -ie, -ai, -ay, -ei, -ey in unstressed position will give **phoneme #2 [ɪ]**

Examples: toffee [ˈtɒfi], bay [ˈbeɪ], calorie [ˈkæləri]

8. Quantity reduction.

Quantity reduction means that the vowel phonemes in unstressed position lose their longlines in those words, which do not have sentence stress (e.g. articles, prepositions, pronouns, conjunctions, etc.)

Examples: he [hi:], When does he come? [wendəz hɪ kʌm]

9. Quality reduction.

Quality reduction means the change of vowel sounds in words of secondary parts of speech (e.g. connectives)

Examples: for [fɔ:], I wait for you [aɪweɪtʃəju]

10. Reduction of exceptions.

a) vowel “o” at the end of the word in unstressed position gives the **phoneme #14 [əʊ]**

e.g. disco [ˈdɪskəʊ]

b) vowel “i” in unstressed position in the borrowed words gives **phoneme #15 [aɪ]**

e.g. violin [vaɪəˈlɪn]

c) vowel “u” in unstressed position in the borrowed words gives **phoneme #9 [ju]**

e.g. value [ˈvælju:]

d) digraph “oo” in unstressed position gives **phoneme #8 [u]**

e.g. adulthood [ˈædʌlthʊd]

e) digraph “ow” in unstressed position gives **phoneme #14 [əʊ]**

e.g. elbow [ˈelbəʊ]

f) digraph “oa” in unstressed position gives **phoneme #14 [əʊ]**

e.g. cocoa [ˈkəʊkəʊ]

g) digraph “aw” in unstressed position gives **phoneme #7 [ɔ:]**

e.g. bylaw [ˈbaɪləʊ]

h) digraphs “oi”, “oy” in unstressed position gives **phoneme #17 [ɔɪ]**

e.g. convoy [ˈkɒnvɔɪ]

i) digraphs “eu”, “ew” in unstressed position gives **phoneme #9 [ju:]**

e.g. milieu [ˈmi:ljʊ:] review [riˈvju:]

Задание № 2 – «Practical Reduction». Это задание предназначено для проверки усвоения пройденного материала на практике. Преподаватель делит доску на колонки в соответствии с количеством типов редуций и обозначает каждую из них. Например: *Soft Reduction, Strong Reduction, Special Reduction, Complete Reduction, Not Complete Reduction, Reduction of the 3rd and 4th types.* На столе раскладываются перевернутые карточки (раздаточный материал № 4) со словами. Студенты подходят по очереди, выбирают одну карточку, читают слово и записывают на доске в колонке с подходящим типом редуции. Преподаватель проверяет и исправляет ошибки.

Раздаточный материал № 4

Soft Reduction	Strong Reduction	Special Reduction	Complete Reduction	Not Complete Reduction	Reduction of the 3 rd and 4 th types
puppy [ˈpʌpi]	adult [əˈdʌlt]	pregnant [ˈpregnənt]	abandon [əˈbændən]	advantage [ədˈvæntɪdʒ]	enter [ˈentə]
agency [ˈeɪdʒɪnsɪ]	normal [ˈnɔ:məl]	probably [ˈprɒbəbli]	mention [ˈmenʃn]	cage [ˈkeɪdʒ]	hunter [ˈhʌntə]
army [ˈɑ:mi]	season [ˈsi:zən]	balance [ˈbæləns]	warden [ˈwɔ:dn]	kite [kaɪt]	desire [dɪˈzaɪə]
regret [rɪˈgret]		ambulance [ˈæmbjʊləns]	kitten [ˈkɪtn]	fade [feɪd]	pure [pjʊə]
market [ˈmɑ:kɪt]					elevator [ˈelɪvətə]
music [ˈmjuzɪk]					

Домашнее задание: студенты получают слова для определения типа редуции и текст для транскрипции и постановки логического и фразового ударения.

Глоссарий:

Vowel – a speech sound made with your mouth open and your tongue in the middle of your mouth not touching your teeth, lips, etc.

Consonant – a speech sound in which the air is at least partly blocked, and any letter which represents this.

Monophthong – a vowel that has a single perceived auditory quality.

Diphthong – a vowel where two different vowel qualities can be heard.

Phoneme – the smallest contrastive unit in the sound system of a language.

Digraph – a single sound, or **phoneme**, which is represented by two letters.

Использованная литература и Интернет-ссылки

1. Васильев В.А. Предупреждение и исправление ошибок в произношении английских фонем. М.: Изд-во Моск. гос. пед. ин-та им. Мориса Тореза, 1973.
2. Веренинова Ж.Б. Специфика работы над постановкой английских гласных и согласных звуков // Звучащая речь: теория и практика: Сб. науч. трудов. М.: Изд-во Моск. гос. лингв. ун-та, 1971.
3. Соколова М.А., Гинтовт К.П., Тихонова И.С., Тихонова Р.М. Теоретическая фонетика английского языка: Учебник для студ. ин-тов и фак. иностр. яз. М.: Высшая школа, 1991.
4. <http://phonemicchart.com/what/index3.html>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=kudiYRUhSF1>
6. http://teflpedia.com/IPA_phoneme_fj/
7. <http://www.etymonline.com/index.php?term=value>



Гульшод ХАМРАЕВА,
кандидат педагогических наук, старший преподаватель Узбекского государственного
университета мировых языков

БИБЛИОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ, ИЗУЧЕНИЕ ЛИТЕРАТУРЫ И ОТБОР ФАКТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА

(практическое занятие по методологии научного исследования)

Цели:

образовательная – расширение и углубление знаний по изучаемой теме;

развивающая – совершенствование умения и навыков применения теоретических знаний на практике;

воспитательная – воспитание настойчивости и целеустремленности в достижении поставленных целей, эмоционально-положительное отношение к продуктивной работе.

Методы и приемы обучения: фокусирующие вопросы, ситуативные задания, кластер, метод «З/Х/У», метод «Поиск соответствий», «Инсерт», работа в малых группах, блиц-опрос.

Оборудование: УМК, учебное пособие, раздаточный материал, проектор.

I. Организационный момент (преподаватель сообщает тему занятия, план, цели и задачи, планируемые результаты).

II. Основная часть

1. Проведение блиц-опроса для актуализации знаний по теме.

Что такое библиография?

Что такое справочно-библиографический аппарат научного произведения?

Какие условные разделительные знаки и общепринятые сокращения используются в библиографическом описании?

Что такое библиографические ссылки в научном тексте?

Как оформляются библиографические ссылки в научном тексте?

2. Составление кластера на изучаемую тему.

3. Преподаватель предлагает дать определение ключевым понятиям («библиография»,

«библиографическое описание», «справочно-библиографический аппарат научного произведения», «библиографические ссылки научного текста» и др.) по изучаемой теме. При выполнении данного задания применяется метод мозгового штурма.

III. Закрепление нового материала

Учебные задания:

1) обучающиеся делятся на две группы и подготавливают сообщение по теме «Правила оформления библиографических ссылок» (преподаватель напоминает о правилах работы в группе);

2) студенты читают текст, пользуясь методом «Инсерт» (преподаватель напоминает о правилах его работы).

Библиографический список – неотъемлемая часть диссертаций, дипломных и курсовых работ, учебных рефератов. Он состоит из отдельных позиций. Каждая позиция представляет собой самостоятельное библиографическое описание. Библиографические списки могут иметь следующее построение: алфавитное, хронологическое, алфавитно-хронологическое, нумерационное, систематическое.

В настоящее время в связи с гигантским ростом массива публикаций и расширением круга читателей ссылки, не соответствующие современным требованиям оформления научных работ, становятся недопустимыми.

При составлении библиографического описания необходимо соблюдать правила его построения, расстановки знаков препинания и сокращения слов [1].

3. Преподаватель предлагает найти ответы к данным в таблице вопросам (метод «Поиск соответствий») по теме занятия.

Вопрос	Ответ
Что такое библиографическое описание?	...неотъемлемая часть диссертаций, дипломных и курсовых работ, учебных рефератов. Он состоит из отдельных позиций. Каждая позиция представляет собой самостоятельное библиографическое описание.
В каком порядке строятся библиографические списки?	...это совокупность библиографических сведений о документе, его составной части или группе документов, приведенных по определенным правилам, необходимых и достаточных для общей характеристики идентификации документа.
Что такое библиографический список?	...могут иметь следующее построение: алфавитное хронологическое алфавитно-хронологическое нумерационное систематическое.

4. Преподаватель предлагает заполнить таблицу, используя лекционный материал занятия по теме.

Двоеточие (:) в оформлении списка использованной литературы ставится...	
Точка и тире (. –) в оформлении списка использованной литературы ставится ...	
Косая черта (/) в оформлении списка использованной литературы ставится ...	
Две косые черты (//) в оформлении списка использованной литературы ставятся ...	

5. Заполните таблицу Интернет-источников научной информации. Назовите сайты, которыми вы пользуетесь при работе над магистерской диссертацией.

Название и адрес сайта	Информация о сайте, ресурсы

